



K.M. Karamatova, H.S. Karamatov



PROVERBS

MAQOLLAR

ПОСЛОВИЦЫ



Toshkent - "Mehnat" - 2000

**82.33**

**K 21**

PROVERBS-MAQOLLAR-ПОСЛОВИЦЫ//Tuzuvchilar. K.M.Karomatova, H.S.Karomatov./ T.: Mehnat, 2000. 400 b. Tit. varag'i va matni ing., o'zb., rus tillarida.

**ББК 82.33-6**

*Dedicated to the memory of Karamatxon Karamatova*

*Karamatxon Karamatovaning porloq xotiralariga bag'ishlanadi*

*Посвящается светлой памяти Караматхон Караматовой*


Mas'ul muharrir: **G'AYBULLO SALOMOV**

Taqrizchilar: D.A. BOBOJONOVA — filologiya fanlari nomzodi,  
JAMOL KAMOL — O'zbekiston xalq shoiri.

**K  $\frac{460200000-1}{M359(04)-99}$  e'lonsiz**

**ISBN 5-8244-1303-7**

**© «Mehnat» nashriyoti, 2000**



**EN** Absence makes the heart grow fonder.

**UZ** (Firoq yuraklarda muhabbatni kuchaytiradi.)  
Yolg'izlikda yor yaxshi.

**RUS** От разлуки любовь горячий.



**EN** Absence sharpens love, presence strengthens it.

**UZ** (Firoq sevgini o'tkirlashtiradi, visol kuchaytiradi.)  
Ko'z ko'zga tushsa,  
Mehr dilga tushadi./

**RUS** Любовь начинается с глаз.



**EN** Absent is always in the wrong, The.

**UZ** (Dovrada yo'q doim aybdor.)  
O'zi yo'qning — ko'zi yo'q.

**RUS** Отсутствующие всегда неправы.



**EN** Abundance of money ruins the youth, The.

**UZ** (Mo'may pul yoshlikni xarob qiladi.)  
Yomon o'g'il molga o'rtoq,  
Yaxshi o'g'il — jonga.

**RUS** Богатство родителей порча детям.

**EN** Accidents will happen in the best regulated families.

**UZ** (Noxush voqealar tagli-zotli oilalarda ham sodir bo'ladi.)

Yaxshi ota-onadan ham  
yomon farzand tug'ilar

**RUS** В семье не без урода.



**EN** Accounting for tastes, There is no.

**UZ** (Didlar son-sanoqsizdir.)

Har kim suygan oshini ichadi.

**RUS** На вкус и цвет товарищей нет.



**EN** Acquaintance brings repentance, Short.

**UZ** (Qisqa muddatli tanishuv pushaymonga sababchi.)

Tanishingning otini bil,  
Otini bilmasang ham, o'zini bil./

**RUS** Шапочное знакомство не в потомство.



**EN** Actions speak louder than words.

**UZ** (So'zlardan ishlarning salmog'i baland.)

Gap bilguncha — ish bil.

**RUS** Не по словам судят, а по делам.



**EN** Adversity is a good discipline.

**UZ** (Mashaqqat — yaxshi maktab.)

Bosh toshga tegsa,

Aql boshga kelar.

**RUS** Беды мучат, да уму учат.





**EN** Adversity makes a man wise, not rich.

**UZ** (Qiyinchilik odamni dono qilar, ammo boyitmas.) ✓

Zamon seni o'qitar,  
Tayoq bilan so'qitar.  
Sabog'ingni bilmasang,  
Do'konda bo'z to'qitar.

**RUS** Больше узнаешь — умнее станешь.



**EN** Adversity, Many can bear/but few contempt.

**UZ** (Ko'pchilik qiyinchilikka chidaydi, ammo kamdan-kam odam uni pisand qilmaydi.)

Qiyinchilik mehnat bilan yengilar.

**RUS** Золото не в золото, не побывав под молотком.



**EN** Advise none to marry or go to war.

**UZ** (Hech kimga uylanishga yoki urishga borishni maslahat berma.)

Har kimning niyati o'zining yo'ldoshi.

**RUS** Вмешаешься не в свое дело,  
сам в дураках останешься.



**EN** After a storm comes a calm.

**UZ** (Bo'rondan so'ng dengiz tinchlanadi.)

Zamonaning zindoni ham, xandoni ham bor.

**RUS** Веруй, надейся и жди — путь твой широк впереди.





**EN** After rain comes sunshine.

**UZ** (Yomg'irdan keyin quyosh chiqadi.)

Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa,

O'n beshi yorug' bo'ladi.

**RUS** Вздога и невздога — что погода и непогода.



**EN** After dinner comes the reckoning.

**UZ** (Ovqat yemoqning to'lovi ham bor.)

Yemoqning qusmog'i bor.

**RUS** Любишь кататься, люби и саночки носить.



**EN** After dinner mustard.

**UZ** (Ovqatdan keyin qalampir bermoq).

To'ydan keyin nog'ora.

**RUS** После пожара, да за водой.



**EN** After dinner sit a while, after supper walk a mile.

**UZ** (Tushki ovqatdan so'ng bir oz o'tir,

kechkişidan keyin bir chaqirim.yur.)

Qorning ochmasdan ovqat yegin,

Qorning to'ymasdan qo'l artgin.

**RUS** Добра пора — пора вон из стола.



**EN** Agree, for the law is costly.

**UZ** (Shartnoma — qonun uchun asos.)

Arslon izidan qaytmas,

Yigit — so'zidan.

**RUS** Договор дороже денег.

**EN** Agues come on horseback but go away on foot.

**UZ** (Bezgakning kelishi — ot ustida, ketishi yayov.)

Og'riq joyini topsa,

Olti oy qishlaydi.

**RUS** Болезнь входит пудами, а выходит золотниками.



**EN** All are not saint that go to the church.

**UZ** (Cherkovga borganlarning hammasi ham avliyo bo'lavermaydi.)

Eshak Makkaga borganisi bilan hoji bo'lmas.

**RUS** На словах с богом, а в сердце с чертом.



**EN** All are not thieves that dogs bark at.

**UZ** (It hurigan har bir kishi ham o'g'ri bo'lavermaydi.)

It hurishi — gumon tug'ishi.

**RUS** На время и тучка может заслонить солнце.



**EN** All bread is not baked in one oven.

**UZ** (Hamma non ham bitta tandirda yopilgan emas.)

Har supraning noni bor.

**RUS** Не смотри на клечку, а смотри на птичку.



**EN** All covet, all lose.

**UZ** (Hammasiga erishaman degan, hammasidan quruq qoladi.)

Ikki kemanding boshini ushlagan g'araq bo'ladi.

**RUS** За двумя зайцами погонишься — ни одного не поймаешь.



**EN** All in the day's work, It is.

**UZ** (Kunduzgi harakatda — barakat.)  
Ertalabki vaqt-naqdgina baxt.

**RUS** Кто рано встаёт — тому бог подаёт.



**EN** All is fair in love and war.

**UZ** (Sevgida va urushda har qanday chora yaxshi.)  
Oshiq zahmat chekmay murodigiga yetmas.

**RUS** В любви все средства хороши.



**EN** All is fish that comes to his net.

**UZ** (Nimaiki ilinsa to'riga — baliq bo'lib ko'rinar ko'ziga.)  
Tovuqning tushiga don kirar.

**RUS** Есть вода — будет и рыба.



**EN** All is not gold that glitters.

**UZ** (Yaltiragan hamma narsa ham tilla bo'lavermaydi.)  
Yaltiroq narsa oltin bo'lavermaydi.

**RUS** Не все то золото, что блестит.



**EN** All is over bar (but) the shouting.

**UZ** (Bari ortda qoldi, vaqt shodlikka yetdi.)  
Mehnat qancha og'ir bo'lsa,  
Keti shuncha shirin bo'ladi.

**RUS** Труден путь, зато отдых хорош.



**EN** All is well that ends well.

**UZ** (Hamma narsa yaxshilik bilan tugasa yaxshidir.)  
Oxiri bahayr bo'lsin.

**RUS** Всё хорошо, что хорошо кончается.



**EN** All sorts to make a world, It takes.

**UZ** (Dunyo turli odamlardan tashkil topadi.)  
Dunyoda bir ko'ngilchak bor,  
Bir erinchoq bor.

**RUS** Каждый на своих лапах стоит.



**EN** Almost never killed a fly.

**UZ** (Hatto pashshani ham o'ldirmagan.)  
Mushugiga ham pisht demaydi.

**RUS** Даже мухи не обидит.



**EN** Always is a long time.

**UZ** (Har doim — uzoq muddat.)  
Oldindagi ishni Xudo biladi.

**RUS** Не зарекайся.



**EN** Among the blind the one-eyed is king.

**UZ** (Ko'rlar orasida bir ko'zlik — podsho.)  
Qush yo'q joyda qurbaqa ham bulbul.

**RUS** В царстве слепых кривой сойдёт за короля.

- EN** Angels and they flop their wings, Speak of.  
**UZ** (Farishtalar to'g'risida gapirsang ular qanot qoqar.)  
 Xizrni yo'qlasa bo'larkan.  
**RUS** Лёгко на помине.



- EN** Anger is a short madness.  
**UZ** (G'azab — qisqa muddatli telbalik.)  
 Jahl kelganda aql ketadi.  
**RUS** Гнев сродни безумию.



- EN** Answer turneth away wrath, A soft.  
**UZ** (Muloyim javob g'azabni qaytaradi.)  
 Egilgan boshni qilich kesmas.  
**RUS** Повинную голову меч не сечёт.



- EN** Anticipates, That which one least/ soonest  
 comes to pass.  
**UZ** (Sira kutilmagan hodisa tez orada ro'y beradi.)  
 Kafil turma, kafansiz ketasan.  
 Kutilmagan narsa oyoq octidan chiqar.  
**RUS** Чего не ждешь, то и случается.



- EN** Any port in a storm.  
**UZ** (Bo'ron kelganda har qanday sohil [as qotadi].)  
 Qiyshiq bo'lsa ham, yo'l yaxshi,  
 Xunuk bo'lsa ham, qiz yaxshi.  
**RUS** В беде любой выход хорош.



**EN** Ape goes, The higher the / the more  
he shows his tail.

**UZ** (Maymun qanchalik yuqori chiqsa, dumini shunchalik  
ko'proq ko'rsatadi.)

Echki yugurib, kiyik bo'lolmas.

**RUS** Чем ближе вышка, тем виднее мартышка.



**EN** Appearances are deceptive.

**UZ** (Tashqi ko'rinish aldar.)

Usti yaltiroq, ichi qaltiroq.

**RUS** Внешность обманчива.



**EN** Appetite comes with eating.

**UZ** (Ishtaha ovqat payti ochiladi.)

Borga yetti kun xayit,

Yo'qqa — bir kun.

**RUS** Аппетит приходит во время еды.



**EN** Apple a day keeps the doctor away, An.

**UZ** (Har kuni bittadan olma yegan odam  
sira tabibga uchramas.)

Bir anor ming dardga davu.

**RUS** Чем живешь — тем лечись.





**EN** Apple injures its neighbours, The rotten.

**UZ** (Bitta chirigan olma yonidagi olmalarni ham chiritadi.)  
Tirraqi buzoq podani bulg'ar.

**RUS** От одного порченого яблока целый воз загнивает.



**EN** Apple-cart, To upset the.

**UZ** (Olma ortilgan aravani ag'darish.)  
Nari borsam, ho'kiz o'lar,  
Beri kelsam, arava sinar

**RUS** Спутать все карты.



**EN** Archer is not known by his arrows, but his aim, A good.

**UZ** (Yaxshi mergan kamon o'qi bilan emas,  
poylagan nishoni bilan mashhur.)  
Usta ovchi bekorga o'q otmas.

**RUS** Не платье красит человека, а ум.



**EN** Architect of his own fortune/ Every man is the.

**UZ** (Har bir inson o'z taqdirining me'mori.)  
Taqdirim deb o'ylama,  
Qismat o'lchog'i qo'lda.

**RUS** Человек сам своему счастью кузнец.



**EN** Art has no enemy except ignorance.

**UZ** (San'atning nodonlikdan o'zga dushmani yo'q.)  
Ahmoqning o'zi bilmas,  
Bilganning so'ziga kirmas.

**RUS** Лучшее дарованье — ум, худшая беда — невежество.





**EN** Art is long, life is short.

**UZ** (San'at abadiy — umr qisqa.)

Ilmsiz — bir yashar,

Ilmli — ming yashar.

**RUS** Жизнь коротка — искусство вечно.



**EN** Ask no questions and you will be told no lies.

**UZ** (Savol berma, yolg'on eshitmaysan.)

Savol — osmondan,

Javob — tegirmondan.

**RUS** И правильные слова без дела трепать не к чему.



**EN** Ask thy purse what thou shouldst buy.

**UZ** (Nima xarid qilishni hamyoningdan so'ra.)

Pullikka — kabob, bepulga — dardi kabob.

**RUS** По одежке протягивай ножки.



**EN** As you make your bed, so must you lie on it.

**UZ** (Qanday o'rin solsang, shunday yotasan.)

Ko'rpangga qarab oyoq uzat.

**RUS** Как постелешь, так и поспишь.



**EN** As you sow, shall you mow.

**UZ** (Nima eksang, shuni o'rasan.)

Arpa ekkan arpa olar,

Bug'doy ekkan bug'doy olar.

**RUS** Что посеешь, то и пожнешь.



**EN** Ass of oneself, To make an

**UZ** (Birovni eshak qilmoq.)

Ahmoqni urma, so'kma — gapga sol.

**RUS** Дуракам закон не писан.



**EN** All asses wag their ears.

**UZ** (Eshaklarning hammasi qulog'ini ding qilar.)

Ahmoq aql o'rgatar.

**RUS** Дуракам присущ глубокомысленный вид.



**EN** An ass between two bundles of hay.

**UZ** (Ikki bog' pichan orasida arosatda qolgan eshak.)

Ikki quyoning ketidan quvgan,

Ikkalasidan ham quruq qolar.

**RUS** С сука на сук прыгает, а все недосуг.



**EN** An ass in a hon's skin.

**UZ** (Sher terisidagi eshak.)

Kalla boshqa, salla boshqa.

**RUS** Наряди свинью хоть в серьги,

Она все равно в грязь полезет.



**EN** Atlantic with a broom, Try to sweep back the.

**UZ** (Atlantika okeanini supurgi bilan quritishga urinmoq.)

Suv o'pirib ketgan to'g'onni do'ppi bilan bekitib bo'lmas.

**RUS** И большой бадьей реки не вычерпашь.

EN Aunt had been a man, If my/ she'd have been my uncle.

UZ (Ammam erkak bo'lganida, amakim bo'lar edi.

Murda tirik bo'lganida, o'lmagan bo'larmidi.

RUS Кабы бабушка не бабушка, так была б она дедушкой.



EN Author as you choose a friend, Choose an

UZ (Kitob muallifini do'st tanlagandek tanla.)

Kitob ko'rmagan kalla —

Giyoh unmagani dala.

RUS Книга — лучший друг.




EN Axe to grind, To have an

UZ (O'tin maydalash uchun bolta darkor.)

Gap bilan osh pishmas.

RUS Не собрав клепок, не съешь и бочки.



- EN** Bacchus has drowned more men than Neptune.  
**UZ** (Neptun [dengiz xudosi] ga nisbatan Baxus [ichkilik xudosi] ko'proq odamni g'araq etgan.)  
 Aroq ichgan — o'ziga kafan bichgan.  
**RUS** Пьяному море по колено, а лужа по уши.



- EN** Bachelor's fare: bread and cheese and kisses.  
**UZ** (Bo'ydoqning rizqi - non-u pishloq va o'pkich.)  
 Boshing ikki bo'lmaguncha,  
 Moling ikki bo'lmaydi.  
**RUS** Любовь холостого, что вешний лед.



- EN** Back is spent under his belly, What is got over the devil's.  
**UZ** (Shayton kuchi bilan topilgan, shayton puchi bilan ketar.)  
 Haromdan yig'ilgan haromga ketar.  
**RUS** Худо нажитое впрок нейдет.





**EN** Bad excuse is better than none, A.

**UZ** (Xohlamasdan kechirim so'rash — yo'g'idan yaxshi.)

Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar,  
Yomon gap bilan musulmon dinidan.

**RUS** Худой мир лучше доброй драки.



**EN** Bad workman quarrels his tools, A

**UZ** (Ustaning yomoni doim asbobdan nolir.)

O'zolmagan otga uzangi bahona.

**RUS** Плохой плясун всегда музыканта хает.



**EN** Bad news has wings.

**UZ** (Yomon xabarlarining qanoti bor.)

Yomon so'zning qanoti bor.

**RUS** Плохая молва на крыльях летит.



**EN** Bad injures the good, He that spares the.

**UZ** (Yomon narsangni ayasang, yaxshisidan ayrilasan.)

Xasisning yonidan moli chiqquncha,  
Tanidan joni chiqadi.

**RUS** Пожалеешь лычка, не увяжешь и ремешком.



**EN** Bait hides the hook, The.

**UZ** (Go'sht ostidagi tuzoqni berkitar.)

Bir balosi bo'lmasa,  
Shudgorda quyruq na qilur?

**RUS** Мягко стелет, да жестко спать.

**EN** Bald heads are soon shaven.

**UZ** (Kalning sochi tez orada olinur.)

Kalning nimasi bor — temir tarog'i,

Ko'ringning nimasi bor — eski tayog'i.

**RUS** В пустой бочке и звону много.



**EN** Bargain is a bargain, A.

**UZ** (Kelishuv — kelishuvdir.)

Mard aytmas,

Aytza — qaytmas.

**RUS** Уговор дороже денег.



**EN** Bark at the Moon, To.

**UZ** (Oyga qarab hurimoq.)

It hurar — oy seskanmas.

**RUS** Карканье вороны, лай шакала и шипение змеи  
не могут помешать восходу солнца.



**EN** Barking dogs seldom bite.

**UZ** (Huradigan itlar kamdan-kam qopadi.)

Qopag'on it tishini ko'rsatmas.

**RUS** Не бойся собаки, что лает.



**EN** Bats in the belfry, To have .

**UZ** (Minorasida ko'rshapalagi bor [telba].)

Telba tosh yig'ar.

**RUS** Не все дома.



**EN** Be sure before you marry of a house wherein to tarry.

**UZ** (To'ydan oldin yashaydigan oilaga ishonch hosil qil.)

Onasiga qarab qizini ol.

**RUS** Выбирай корову по рогам, а девуку по родам.



**EN** Bean has its black, Every.

**UZ** (Har bir dukkakning o'z qorachig'i bor.)

Har zog'da — bir dog'.

**RUS** И на солнце есть пятна.



**EN** Bear before you sell his skin, Catch the

**UZ** (Ayiqning terisini sotishdan oldin, o'zini tutgin.)

Ot kimniki — minganniki,

To'n kimniki — kiyganniki.

**RUS** Медведь в лесу, так и шкура в лесу.



**EN** Beauty is but skin deep.

**UZ** (Chiroy yuzda, teri esa qalin.)

Chiroy husni jamolda emas, fazli kamolda.

**RUS** Личико беленько, да ума маленько.



**EN** Beauty is in the eye of the gazer.

**UZ** (Chiroy sevishganlarning ko'zida bo'ladi.)

Chiroyli chiroyli emas,

Suyganing — chiroyli.

**RUS** Не по хорошу мил, а по милу хорош.



**EN** Beauty will buy no beef.

**UZ** (Chiroyga go'sht olib bo'lmas.)

Chiroyga non botirib yeb bo'lmas.

**RUS** Сила и слава богатству послушны.



**EN** Bedfellows, Poverty acquaints with strange.

**UZ** (Qashshoqlik g'aroyib o'rindoshlarga yo'liqtirar.)

Yo'qchilik — toshdan qattiq, go'ngdan sassiq.

**RUS** В нужде с кем не поведешься?



**EN** Beggar may sing before the thief, The.

**UZ** (Kambag'al o'g'riga duch kelsa, ashula aytadi.)

Kambag'alni urma-so'kma, to'nini yirt.

**RUS** Голый разбоя не боится.



**EN** Beggars cannot be choosers.

**UZ** (Kambag'al tanlay olmaydi.)

Kambag'alning bir to'ygani —  
Chala boyigani.

**RUS** Не до жиру, быть бы живу.



**EN** Beggar on horseback and he'll ride to the devil, Set a.

**UZ** (Kambag'alni otga mindirsang, shayton oldiga yelar.)

Chillasi chiroq ko'rmagan, mum shamni kamsitar.

**RUS** Посади свинью за стол, она и ноги на стол.





- EN** Bad beginning makes a bad ending, A.  
**UZ** (Yomon boshlangan yomon tugaydi.)  
 Yomonchilik bo'lganda, qar ustiga muz yog'ar.  
**RUS** Плохо начнешь — плохо кончишь.



- EN** Beginning makes a good ending, A good.  
**UZ** (Yaxshi boshlangan yaxshilik bilan tugallanar.)  
 Yaxshi yil — bahoridan,  
 Yomon kun — saharidan ma'lum.  
**RUS** Хорошее начало полдела откачало.



- EN** Beginning think of the end, In every.  
**UZ** (Har ishni boshlayotganda, oxirini o'yla.)  
 Yaxshi yerga yotsang,  
 Yaxshi tush ko'rasan.  
 Yomon yerga yotsang,  
 Yomon tush ko'rasan.  
**RUS** Конец венчает дело.



- EN** Bellies have no ears, Hungry .  
**UZ** (Qorni ochning qulog'i yo'q.)  
 Osh-nonsiz yashab bo'lmas,  
 Quruq gapni oshab bo'lmas.  
**RUS** Соловья баснями не кормят.





**EN** Better belly burst than drink/meat/ lost.

**UZ** (Ichkilik [go'sht] qolgandan ko'ra, qornim yorilsin.)  
Ochko'zning o'zi to'ysa ham, qorni to'ymas.

**RUS** Хоть лопни брюшко, да не оставайся добро.



**EN** Best is (oftentimes) the enemy of the good, The.

**UZ** (Yaxshi narsaning dushmani — eng yaxshisidir.)

Baliq chuqur joyni,  
Odam yaxshi joyni istar.

**RUS** Лучшее враг хорошего.



**EN** Best , If you cannot have the/ makes the best  
of what you have.

**UZ** (Agar yaxshi narsaga ega bo'lolmasang,  
qo'lingda boriga qanoat qil.)

Qanoat aylagan shoh-u jahondir,  
Tama qilgan eshakdan ham yomondir.

**RUS** Гол да не вор, беден да честен.



**EN** Better a lean peace than a fat victory.

**UZ** (Semiz g'alabadan ozg'in tinchlik yaxshiroq.)

Urush — ofat,  
Tinchlik — rohat.

**RUS** Худой мир лучше доброй ссоры.



**EN** Better an egg to-day than a hen to-morrow.

**UZ** (Ertangi tovuqdan bugungi tuxum afzal.)

Keyingi quyuqdan, hozirgi o'pka yaxshi.

**RUS** Домашний теленок лучше заморской коровы.

**EN** Better a glorious death than a shameful life.

**UZ** (Nomussiz hayotdan shonli o'lim afzal.)

Yer bo'lib yashagandan,  
Sher bo'lib o'lgan yaxshi.

**RUS** Лучше смерть нежели позор.



**EN** Better an open enemy than a false friend.

**UZ** (Soxta do'stdan oshkora dushman afzal.)

Ablah do'st dushmandan yomon,  
Ne hiyla bo'lsa, ishlatar oson.

**RUS** Бойся друга как врага.



**EN** Better be alone than in bad company.

**UZ** (Yomonlar orasida bo'lgandan yolg'iz bo'lgan afzal.)

Ulfating boyo'g'li bo'lsa,  
Maskaning — vayrona.

**RUS** Доброго держись, а от худого удались.



**EN** Better be born lucky than rich.

**UZ** (Boy bo'lib tug'ilgandan omadli bo'lib tug'ilgan yaxshi.)

Taxting kulguncha, baxting kulsin.

**RUS** Не родись ни хорош, ни пригож, родись счастлив.



**EN** Better be envied than pitied.

**UZ** (Birov seni ayagandan ko'ra hasad qilgani yaxshi.)

Bor bo'lsang, ko'rolmaydi,  
Yo'q bo'lsang, berolmaydi.

**RUS** Лучше жить в зависти, чем в жалости.



**EN** Better be sure than sorry.

**UZ** (Afsuslangandan ko'ra o'zingga ishon.)  
Keyingi pushaymon,  
O'zingga dushman.

**RUS** Раздумье на грех наводит.



**EN** Better be the head of a dog than the tail of a lion.

**UZ** (Arslonning dumi bo'lgandan ko'ra  
itning boshi bo'lgan afzal.)

Arslonning o'ligi — sichqonning tirigi.

**RUS** Живой пес лучше мертвого льва.



**EN** Better buy than borrow.

**UZ** (Qarz olgandan ko'ra sotib ol.)

Qarzing uchun qayg'ir, oladiganing qochmas.

**RUS** Заниматься — самому продаться.



**EN** Better give a shilling than lend a half-crown.

**UZ** (Yarim krona qarz bergandan ko'ra  
bir shilling hadya et.)  
Qarz olgan qochar,  
Qarz bergan quvar.

**RUS** Дай займы, да назад не проси.



**EN** Better die a beggar than live a beggar.

**UZ** (Kambag'al bo'lib yashagandan  
kambag'al bo'lib o'lgan afzal.)  
Otlarning qamchisi ham,  
Yayovning kaltagi ham,  
Kambag'alning boshiga tegadi.

**RUS** Богаты, так здравствуйте,  
А убоги, так прощайте!



**EN** Better go to heaven in rags than to hell in embroidery.

**UZ** (Jahannamga kimhob kiyib borgandan,  
jannatga juldur kiyib borgan afzal.)  
Boy bo'lib bezillaguncha,  
Qul bo'lib qo'porib yur.

**RUS** Богатому не спится.



**EN** Better late than never.

**UZ** (Hech bo'lmagandan kech bo'lgani afzal.)  
Hech bo'lmagandan kech bo'lgani yaxshi.

**RUS** Лучше поздно, чем никогда.



**EN** Better never begin than never make an end.

**UZ** (Hech tamomlay olmaydigan ishni sira boshlamagan afzal.)  
Bilmagan ishga urinma,  
Urinib tuzoqqa ilinma.

**RUS** Дело без конца, что кобыла без хвоста.



**EN** Better the devil you know than the devil you don't know.

**UZ** (O'zing tanimagan shaytondan sen tanigan shayton afzal.)

Sinalmagan farishtadan,

Sinalgan shayton yaxshi.

**RUS** Спереди — апостол, а сзади — черт бесхвостый.



**EN** Better untaught than ill-taught.

**UZ** (Chalasavoddan savodsiz afzal.)

Chalasavod — chirik robot.

**RUS** Недоученый хуже неученого.



**EN** Between the cup and the lip a morsel may slip.

**UZ** (Lagandan labingga yetguncha,  
luqmang tushib ketishi mumkin.)

Yutganim — o'zimniki,

Chaynaganim — gumonda.

**RUS** Ломоть в руке — не мой, а в брюхе — так мой.



**EN** Between Scylla and Charybdis.

**UZ** (Silla va Xaribda orasida.)

Osmon uzoq — yer qattiq.

**RUS** Меж двух огней.



**EN** Between two stools one falls to the ground.

**UZ** (Ikki kursi orasida o'tiraman degan yiqilib tushadi.)

Ikki kemanding boshini tutgan, g'araq bo'ladi.

**RUS** За двумя зайцами погонишься, ни одного не поймаешь.



**EN** Bind, Fast/ fast find.

**UZ** (Yaxshiroq qulflasang - butunroq topasan.)

Uzoqqa qo'ysang, yaqindan olasan.

**RUS** Подальше положишь, поближе найдешь.



**EN** Bird in hand is worth two in the bush, A.

**UZ** (Butadagi ikkita qushdan, qo'ldagi bittasi yaxshi.)

Nasiya saryog'dan

Naqd o'pka yaxshi.

**RUS** Не сули журавля в небе, а дай синицу в руки.



**EN** Birds of a feather flock together.

**UZ** (Bir balandlikda parvoz qiladigan qushlar galaga to'planishadi.)

Har qush o'z to'pi bilan.

**RUS** Рыбак рыбака видит издалека.



**EN** Bird likes its own nest, Every.

**UZ** (Har qush o'z uyasini der.)

O'rgimchak ham o'z uyim der.

**RUS** Всяк кулик свое болото хвалит.



**EN** Bird that fouls its own nest, It is an ill.

**UZ** (Yomon qush o'z uyasini bulg'ar.)

O'lgisi kelgan shoqol iniga qarab uvillar.

**RUS** Ворона не каркает над своим гнездом.



- EN** Birds are not to be caught with chaff, Old.  
**UZ** (Qari qushni tuzoq bilan tutib [aldab] bo'lmaz.)  
 To'rga tushgan baliq qarmoqdan qo'rqmas.  
**RUS** Старого воробья на мякине не проведешь.



- EN** Birds of this year in last year's nest, There are no.  
**UZ** (Bu yil uchib kelgan qushlarni o'tgan yilgi  
 uyadan topib bo'lmaydi.)  
 O'tgan bulutdan yomg'ir kutma.  
**RUS** В одну реку дважды не войдешь.



- EN** Bitter to endure may be sweet to remember,  
**UZ** That which was.  
 (Achchiq tuyulgan narsani balki keyinchalik  
 eslash shirin bo'lur.)  
 Ari chaqdi deb arazlama,  
 Bol bor.  
**RUS** После грозы ведро, после горя радость.



- EN** Bitter, Who has never tasted/ knows not what is sweet.  
**UZ** (Achchiqni tatib ko'rmagan, shirinning ta'miga yetmas.)  
 Achchiqni tatib ko'rmaguncha,  
 Shirinning qadriga yetmaysan.  
**RUS** Терпи горе: пей мед.







**EN** Black sheep in every flock, There are.

**UZ** (Har podaning o'z qora qo'yi bor.)

Bitta tirraqi buzoq,  
Bir to'p podani buzadi.

**RUS** Паршивая овца все стадо портит.



**EN** Blacks do not make a white, Two.

**UZ** (Ikki qora qo'shilib ham oq bo'lolmaydi.)

Qora itning uyati oq itga tegar.

**RUS** Чужим грехом своего не искупишь.



**EN** Blessings are not valued till they are gone.

**UZ** (Baxt qo'ldan ketmaguncha beqadr.)

Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q.

**RUS** Лей на него масло, скажет — деготь.



**EN** Blind as those who won't see, None so.

**UZ** (Ko'rishni istamaganlardan ko'rroq odam topilmas.)

Ko'rmas — tuyani ham ko'rmas.

**RUS** Не тот глухой, кто не слышит, а тот,  
кто не хочет слышать.



**EN** Blind in their own cause, Men are.

**UZ** (O'ziga qolganda odamlar ko'r bo'ladi.)

Ishtoni yo'q, tizzasi yirtiqqa kulibdi.

**RUS** В своем глазу бревно не заметит,  
а в чужом соринку видит.



**EN** Blind man will not thank you for a looking-glass, A.

**UZ** (Ko'r ko'zgu keltirganga rahmat aytmas.)

Ko'rga ko'zgu kerakmas.

**RUS** На слепого очков не подберешь.



**EN** Blind, In the land of the/ the one-eyed man is king.

**UZ** (Ko'rlar mamlakatida bir ko'zli qirol bo'ladi.)

Ko'rlar orasida bir ko'zli podsho.

**RUS** На безрыбье и рак рыба.



**EN** Blind leads the blind, If the/ both shall fall into the ditch.

**UZ** (Ko'r ko'rni yetaklasa, ikkalovi ham chuqurga dumalar.)

Ko'rni ko'r yetaklasa,

Go'rga olib boradi.

**RUS** Слепой слепца водит, оба ни зги не видят.



**EN** Blood is thicker than water.

**UZ** (Qon suvdan quyuq.)

Urug'-aymog'im — quyuq qaymog'im.

**RUS** Свой своему поневоле брат.



**EN** Blot is no blot till it be hit, A

**UZ** (Dog' tushurmaguncha dog' paydo bo'lmaydi.)

O'g'ri bitta, gumoni mingta.

**RUS** Не пойман — не вор.



**EN** Blushing is virtue's colour.

**UZ** (Uyatdan qizarmoq — nomus belgisi.)  
Qizil yuzli yigitning qizargani — o'lgani.

**RUS** В ком стыд, в том и совесть.



**EN** Boast and small roast, Great.

**UZ** (Maqtanchoqlik ko'p — jarkob bo'lsa oz.)  
Maqtanganning to'yiga bor,  
Kerilganning uyiga.

**RUS** На брюхе шелк, а в брюхе — щелк.



**EN** Body often harbours a great soul, A little.

**UZ** (Kichik tanda ko'pinchalik buyuk ruh yashaydi.)  
Kichkina mitti, xonho'jani yiqitdi.

**RUS** Мал золотник, да дорог.



**EN** Bolt is soon shot, A fool's.

**UZ** (Ahmoqning kamon o'qi tezda otilar.)  
Ahmoqning boshiga aql yopishtirib qo'ysang,  
Qo'li bilan ko'chirib tashlaydi.

**RUS** У дурака деньги долго не держатся.



**EN** Bred in the bone will not out of the flesh, What is.

**UZ** (Tug'ma egrilikni et bilan to'g'rilab bo'lmas.)  
Tayoq o'g'rini to'g'rilar,  
Go'r bukrini to'g'rilar.

**RUS** Горбатого могила исправит.



**EN** Born to be hanged, He that is / shall never be drowned.

**UZ** (Dorda o'lish uchun tug'ilgan, cho'kib o'lmaydi.)

Umidingni uzma,

Ko'ngilni buzma.

**RUS** Чему быть, того не миновать.



**EN** Born with a silver spoon in his mouth, He was.

**UZ** (Og'izda kumush qoshiq bilan tug'ilmoq.)

Taxting kulguncha

Baxting kulsin.

**RUS** Родиться в сорочке.



**EN** Born yesterday, I was not.

**UZ** (Kecha tug'ilganim yo'q.)

Kecha dunyoga kelganim yo'q.

**RUS** Видал виды.



**EN** Both ends meet, To make.

**UZ** (Uchni uchga ulamoq.)

Yamasang yangi bo'lar,

Yangining tengi bo'lar.

**RUS** Сводить концы с концами.



**EN** Bourn no traveller returns, From whose.

**UZ** (U yerdan hech bir sayyoh qaytmas.)

O'lgan — kelmas,

O'chgan — yonmas.

**RUS** Из-за гроба нет голоса.

**EN** Brains in one's little finger than one has in his whole body,  
Have more.

**UZ** (Birovning jimjilog'ida o'zganing badanidan  
ko'proq aql bor.)

Yuzta ahmoqdan bitta aqli zo'r.

**RUS** Велик, да дурак; а иной и маленек, да черт ли в нем?



**EN** Brain in the devil's workshop, An idle.

**UZ** (Dangasa aqli — shayton ustaxonasi.)

Ishchanlik to'rga tortar,

Yalqovlik go'rga tortar.

**RUS** Праздность — мать всех пороков.



**EN** Brave deserve the fair, None but the.

**UZ** (Faqat jasurlik go'zallikka loyiq.)

Bedanabotir bovdan yer,

Botir yigit yovdan yer.

**RUS** Смелость города берет.



**EN** Bread and be given a stone, Ask for.

**UZ** (Non so'rab, tosh olmoq.)

Tosh yog'sa — taqdirga.

**RUS** Не корми калачом, да не бей в спину кирпичом.



**EN** Bread upon the waters, Cast one's.

**UZ** (Nonni suvga oqizmoq.)

Savobi oshkoradan gunohi pinhona yaxshi.

**RUS** Сделав добро, не помни.

**EN** Bread of affliction, Eat the.

**UZ** (Xorlikning achchiq nonini yemoq.)

Zorlik — keltirar xorlik.

**RUS** Хлебнуть горя.



**EN** Bread of idleness, Eat the.

**UZ** (Bekorchilik nonini yemoq.)

Bekorchining beti yo'q,

Qozon osar eti yo'q.

**RUS** На работу позадь последних, на еду наперед первых.



**EN** Bread is buttered on both sides, His.

**UZ** (Uning noniga ikki tarafidan saryog' surilgan.)

Uning pichog'i moy ustida.

**RUS** Как сыр в масле кататься.



**EN** Breakfast you'll cry before supper, Laugh before.

**UZ** (Nonushtadan oldin kulgan, tushlikdan oldin yig'lar.)

Tushlik oshga tushlik yerdan kishi kelur.

**RUS** Рано пташечка запела, как бы кошечка не съела.



**EN** Breath is the beginning of death, The first

**UZ** (Birinchi nafas — o'limning boshlanishi.)

Bir kun tug'ilmoq,

Bir kun o'lmoq bor.

**RUS** Этот свет, что маков цвет: днем цветет, а ночью опадает

**EN** Bridges before you come to them, Don't cross the.

**UZ** (Ko'prikka kelmasdan, uni kechib o'tma.)

Suv ko'rmay, etikni yechma.

**RUS** Не хвали кашу, коли просо не просеяно.



**EN** Bridge he goes over, Let every man praise the.

**UZ** (Ko'prikdan o'tgan har kishi uni maqtasin.)

Bir kun tuz ichgan joyga —

Qirq kun salom.

**RUS** Не плюй в колодец, пригодится воды напиться.



**EN** Broad as it's long, It's as.

**UZ** (Uzinasiga ham, eniga ham bir xil.)

Alixo'ja — Xo'jaali.

**RUS** Что в лоб, что по лбу.



**EN** Broom sweeps clean, A new.

**UZ** (Yangi supurgi toza supuradi.)

Yangi supurgi toza supuradi.

**RUS** Новая метла чисто метет.



**EN** Bull in a china shop , A.

**UZ** (Xitoy chinnisi do'konidagi buqa.)

Qo'polning o'rganidan

To'qolning tepgani yaxshi.

**RUS** Слон в посудной лавке.



**EN** Bullet has it billet , Every.

**UZ** (Har bir o'qning o'z nishoni bor.)

Taqdirning balosi ko'p,

Saqlasa panosi ko'p.

**RUS** Чему быть, того не миновать.



**EN** Bully is always a coward , A.

**UZ** (Maqtanchoq doim qo'rqoq bo'ladi.)

Qo'rqoqning odati — maqtanmoq.

**RUS** Всякий трус о храбрости беседует.



**EN** Bulls the cow must keep the calf , He that .

**UZ** (Sigirini sotgan, buzog'ini saqlab qolishi lozim.)

Ehtiyoting bo'lsa, ehtiyojning bo'lmas.

**RUS** Ешь пироги, а хлеб вперед береги!



**EN** Burn the candle at both ends ,To.

**UZ** (Shamni ikki tomonidan yoqmoq.)

O'ntaning yor-yori bo'lguncha,

Bittaning vafodori bo'l.

**RUS** Живет, что в печи.



**EN** Bush must never go a-birding , He that feareth every.

**UZ** (Butadan qo'rqqan aslo qush oviga bormasin.)

Chumchuq «pirr» etsa,

Qo'rqoq yuragi «shirr» etadi.

**RUS** Волков бояться, в лес не ходить.





- EN** Bush, One beats the/ and another catches the birds.  
**UZ** (Butalarni silkilib, birov qush haydar, birov esa uni tutar.)  
 Qo'yini birov qarar, sutini kimlar ichar.  
**RUS** Чужими руками жар загребать.



- EN** Business before pleasure.  
**UZ** (Hordiqdan oldin mehnat.)  
 Mehnat, mehnatning tagi rohat.  
**RUS** Делу — время, потехе — час.



- EN** Business is business.  
**UZ** (Biznes biznesligicha qolaveradi.)  
 Puldorning ota-onasi pul.  
**RUS** Никому не верь, только счету верь!



- EN** Business is nobody's business, Everybody's.  
**UZ** (Hammaning ishi — hech kimning ishi.)  
 Cho'pon ko'p bo'lsa,  
 Qo'y harom o'ladi.  
**RUS** У семи нянек дитя без глазу.



- EN** Busy, Who is more/ than he that hath least to do?  
**UZ** (Eng band odamlar hammadan kam ishlaydi.)  
 Ayoz-ayoz kunlarda olma terar Boqi akam,  
 Qorli-muzli kunlarda xirmon yig'ar Boqi akam.  
**RUS** И козлу недосуг:  
 надо лошадей на водопой провожать.



**EN** Buy a pig in a poke , To.

**UZ** (Qop ichida cho'chqani [ko'rmasdan] sotib olmoq.)  
Savdogarga sunma bo'yingni,  
Puch yong'oqqa to'ldirar qo'yingni.


**RUS** Купить кота в мешке.



**EN** Bygones be bygones, Let.

**UZ** (O'tmish o'tmishda qolaversin.)  
O'tgan ishga salavat.

**RUS** Кто старое помянет, тому глаз вон.



**EN** Calamity is man's true touchstone.

**UZ** (Musibat — odamni [tekshiruvchi] asl mezon.)  
Odam safarda bilinar,  
Botir — xatarda.

**RUS** Человек познается в беде.



**EN** Calends, At the Greek.

**UZ** (Yunon kalendarigacha [ularda kalendar bo'lmagan].)  
Va'dasiga vafosi yo'q,  
Ko'rshapalakning ko'zi yo'q.

**RUS** Когда рак на горе свистнет.



**EN** Calf love, half love; old love, cold love.

**UZ** (Yoshlikdagi sevgi — yarim sevgi,  
qarilikdagi sevgi — sovuq sevgi.)  
Sevgining bahori bilan shodlanma,  
Yoz-u qishi ham bordir.

**RUS** Молодой дружок, что вешний ледок.



**EN** Call a spade a spade, To.

**UZ** (Ketmonni ketmon demoq.)

Oqni oq, qorani qora demoq.

**RUS** Называть вещи своими именами.



**EN** Cap fits, If the/ wear it.

**UZ** (Shu do'ppi sizga to'g'ri kelsa, kiyib yuring.)

O'g'rini o'g'ri desang, o'lgisi kelar,

To'g'rini o'g'ri desang, kulgisi kelar.

**RUS** .На воре и шапка горит.



**EN** Cards are the devil's books.

**UZ** (Karta — shaytonning kitobi.)

Qimordan kelgan qimorga ketar.

**RUS** Карты до добра не доведут.



**EN** Cards, Lucky at/ unlucky in love.

**UZ** (Qimorda omadi yurishgan, sevgida omadsiz bo'ladi.)

Har kim nasib qilganini oshar.

**RUS** Везет в картах, не везет в любви.



**EN** Care killed a cat.

**UZ** (G'am mushukni o'ldiribdi.)

Qayg'u qaritar, g'am o'ldirar.

**RUS** Не работа старит, а забота.

**EN** Care of the pence and the pounds will take care of themselves, Take .

**UZ** (Har bir pens [tiyin]ning g'amini yesang, funt[so'm]lar o'z g'amini o'zi yer.)  
Tanga tiyindan o'sar,  
Yilqi qulundan o'sar.

**RUS** Копейка рубль бережет.



**EN** Carry coals to Newcastle, To.

**UZ** (Nyukaslga [Angliya ko'mir sanoatining markaziga] ko'mir olib bormoq).

Dar'yo bo'yida quduq qazima.

**RUS** Ехать в Тулу со своим самоваром.  
(Tula - Rossiyaning samovar chiqaradigan markazi)



**EN** Cart before the horse, To put the.

**UZ** (Aravani otdan oldin qo'ymoq.)  
Tentakning o'ti tepasidan yonar.

**RUS** Саней нет, впрячь нечего, ехать некуда, да поедем.



**EN** Castles in the air, To build.

**UZ** (Havoda qasr qurmoq.)  
Qumdan qo'rg'on bo'lmas.

**RUS** Строить воздушные замки.





**EN** Cats are grey in the dark, All.

**UZ** (Qorong'ida hamma mushuklar kulrang ko'rinadi.)

Qorong'ida qora ko'rinasan, yorug'da — oq.

**RUS** Ночью все кошки серы.



**EN** Cats love fish but fear to wet their paws, All .

**UZ** (Mushuk baliqni xush ko'rar,  
ammo oyog'ini ho'llashdan qo'rqar.)

Baliqni xush ko'rgan, qiltanog'idan qo'rqmas.

**RUS** Любишь кататься, люби и саночки возить.



**EN** Cat in gloves catches no mice, A.

**UZ** (Mushuk qo'lqopda sichqon tutolmas.)

Burga tutmoq uchun ham barmoqni ho'llamoq kerak.

**RUS** Без труда не вытацишь и рыбки из пруда.



**EN** Cat may look at a king, A.

**UZ** (Mushuk ham qiroлга qarashi mumkin.)

Yirtiq bo'lsa — to'nim yirtiq,

Ko'nglim — podshodan ortiq.

**RUS** Хотя не в том ряде, да в том же стаде.



**EN** Cat jumps, To see which way the.

**UZ** (Mushukning sakragan tomoniga qara.)

Shamol kemadagilarning xohishiga qarab esmas.

**RUS** Держать нос по ветру.



**EN** Cat the way to the kirn ,Teach the.

**UZ** (Mushukni hosil bayramiga olib bormoq.)

Tulkiga rahm qilsang,  
Tovug'ingdan ajraysan.

**RUS** Пустить козла в огород.



**EN** Cat but her skin, What can you have of a .

**UZ** (Mushukdan terisidan o'zga nima ham olardingiz.)

Dar'yodan bir tomchi,  
To'ng'izdan bir tuk.

**RUS** С паршивой овцы хоть шерсти клок.



**EN** Cat's away, When the/ the mice will play.

**UZ** (Mushuk ketsa, sichqon o'yinga tushadi.)

Mushukning o'lgani — sichqonga to'y.

**RUS** Кошка из дома, мышка на стол.



**EN** Chain is no stronger than its weakest link, A.

**UZ** (Zanjirning mustahkamligi eng bo'sh  
bo'g'inidan kuchli emas.)

Yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.

**RUS** Где тонко, там и рвется.



**EN** Chalk and cheese, As like as.

**UZ** (Bo'r pishloqqa o'xshaganidek.)

Osmon bilan yerdek farqi bor.

**RUS** Похоже, как гвоздь на панихиду.



**EN** Chanceth in an hour,  
It / that happeneth not in seven years.

**UZ** (Yetti yildan beri bo'lmagan narsa  
bir soatda sodir bo'ladi.)  
Ko'za kunda sinmaydi,  
Kunida sinar.

**RUS** Чему не год, так и семенам не род.



**EN** Charity begins at home.

**UZ** (Savob o'z uyigdan boshlanadi.)  
Har kim o'z uyiga qarab tortar.

**RUS** И лиса около своей норы смирно живет.



**EN** Child first, The person always christens his own.

**UZ** (Har kimsa birinchi bo'lib o'z bolasini cho'qintiradi.)  
Har kim qilar o'ziga,  
Yelik surtar ko'ziga.

**RUS** Своя рубашка ближе к телу.



**EN** Chatters to you, Who/ will chatter of you.

**UZ** (Senga birovning sirini ochgan,  
sening siringni birovga ochar.)  
Yomonga aytsang siringni,  
Mingta qilar biringni.

**RUS** Бойся клеветника, как злого еретика.





**EN** Cheese goes half away in parings, The king's.

**UZ** (Xon pishlog'ining yarmi peshvolariga ulashiladi.)

Xon qoshida qorang bo'lsa,

Qora kemang qirda yurar.

**RUS** Есть много охотников до "казенного пирога".



**EN** Chestnuts out of the fire, Pull smb's.

**UZ** (Olovdan o'zgaralar uchun yong'oq olmoq.)

Birovning qo'li bilan tikan yulish oson.

**RUS** Чужими руками жар загребать.



**EN** Chickens before they are hatched, Don't count your.

**UZ** (Jo'jalaringni tuxumdan chiqmasidan sanama.)

Chuchvarani pishirib sana,

Jo'jani — ochirib.

**RUS** Цыплят по осени считают.



**EN** Children usually go unshod, The cobbler's.

**UZ** (Etikdo'zning bolalari odatda etiksiz yuradi.)

Etikdo'zning etigi yirtiq,

Temirchining teshasi kemtik.

**RUS** Портной без кафтана, сапожник без сапогов,  
а плотник без дверей.



**EN** Chin, He may well swim that is held up by the.

**UZ** (Birov iyagidan ushlab tursa, suzishga usta.)  
«Хайт» degan — tuyaga madad.

**RUS** И комар лошадь свалит, коли волк пособит.



**EN** Chip of the old block, A.

**UZ** (Ko'hna xarsangning siniq parchasi.)  
Ilonning bolasi — ilon,  
Chayonning bolasi — chayon.

**RUS** Яблоко от яблони недалеко падает.



**EN** Choose between them, Nothing to.

**UZ** (Ularning orasidan tanlashga arziydigani yo'q.)  
Tanlaganim toz,  
Toz qiladi noz.

**RUS** Вся свадьба песни не стоит.



**EN** Choose a wife rather by your ear than your eye.

**UZ** (Xotinni ko'zing bilan emas, qulog'ing bilan tanla.)  
Onasi maqtagan qizni olma,  
El maqtagan qizni ol.

**RUS** Жену выбирай не ушами, а глазами.



**EN** Church, The nearer the/ the farther from God.

**UZ** (Cherkovga yaqinlashgan sari Xudodan uzoqlashar.)  
Besh vaqt namozini tark etmas,  
Harom-xarishni farq etmas.

**RUS** Борода апостольская, а усок дьявольский.

**EN** Circles, Go round in small.

**UZ** (O'z atrofida gir aylanmoq.)

G'alvirga suv solib qo'yar,

G'alvirga un bosib qo'yar.

**RUS** Хлопот много, толку мало.



**EN** Civility costs nothing.

**UZ** (Xushxulqlik tekindir.)

Xushxulqlik fazilati — odamiylik ziynati.

**RUS** Ничто не стоит так дешево,

и не ценится так дорого, как вежливость.



**EN** Claw me and I will claw thee.

**UZ** (Sen meni maqta, men seni maqtayman.)

Sizdan ugina, bizdan bugina.

**RUS** Услуга за услугу.



**EN** Cleanliness is next to godliness.

**UZ** (Tozalik xudojo'ylik garovi.)

Toza qalbdag' bo'lmas.

**RUS** Чистота — залог благочестия.



**EN** Climbed, He that never/ never fell.

**UZ** (Sira yuksalmagan sira yiqilmas.)

Xatosiz mergan bo'lmas.

**RUS** Не ошибается тот, кто ничего не делает.



**EN** Climbers have sudden falls, Hasty.

**UZ** (Tez ko'tarilgan to'satdan yiqiladi.)

Shoshding, jarga qulading,  
Shoshmading, niyatga yetding.

**RUS** Вверх бегом — вниз кузырком.



**EN** Cloak to make when it begins to rain, Have not thy

**UZ** (Yomg'ir boshlangandan keyin to'n t'kish kech.)

Avval otingni taqala,  
Keyin yo'l tanla.

**RUS** На охоту ехать — собак кормить.



**EN** Close mouth catcheth no flies, A.

**UZ** (Yopiq og'izga pashsha tushmas.)

Og'ziga kelganni demak — nodonning ishi,  
Oldiga kelganni yemak -- hayvonning ishi.

**RUS** Молчи — за умного сойдешь



**EN** Clothes make the man.

**UZ** (Odamni kiyim ochar.)

Kiyiming janda bo'lsa ham,  
Ganda bo'lmasin.

**RUS** Наряди пень, и пень будет хорош.





- EN** Cloud has a silver lining, Every.  
**UZ** (Har bir bulutning kumush hoshiyasi bor.)  
 Har yaxshida bir «ammo» bor,  
 Har yomonda — bir «lekin».  
**RUS** Нет худа без добра.



- EN** Coast is clear, The.  
**UZ** (Qirg'oq bo'yi toza.)  
 Yo'ling ravon bo'lsa,  
 Manziling yaqin bo'lar.  
**RUS** Путь свободен.



- EN** Coat according to the cloth, Cut the.  
**UZ** (Qo'lingdagi bo'zga qarab ko'ylak bich.)  
 Qulochingga qarab ketmon chop.  
**RUS** По одежке протягивай ножки.



- EN** Coat that makes the gentleman, It's not the gay.  
**UZ** (Kul rang kiyim kiygan har kimsa ham  
 jentlmen bo'lavermaydi.)  
 Yaxshi kiysang — el ko'rar,  
 Yaxshi yursang — el suyar.  
**RUS** Не одежда красит человека.



**EN** Cobbler must stick to his last, The.

**UZ** (Etikdo'z o'zi tikayotgan etigiga bigiz tiqsin.)  
Tezakchining tengi bor,  
O'roqchining o'rni bor.

**RUS** Всяк сверчок знай свой шесток.



**EN** Cock crows, As the old/ so doth the young.

**UZ** (Yosh xo'roz qari xo'roz singari qichqiradi.)  
Qush uyasida ko'rganini qiladi.

**RUS** Мальки плавают следом за крупной рыбой.



**EN** Cock is valiant on his own dunghill, A.

**UZ** (Xo'roz o'z go'ng uyimida botir.)  
O'z joyida laycha ham sher.

**RUS** Всяк кулик в своем болоте велик.



**EN** Colt may make a good horse, A ragged.

**UZ** (Oyoqda turlmaydigan toy chopog'on otga  
aylanishi mumkin.)

Toychani toy deb xo'rlama,  
Erta-indin ot bo'lar.

**RUS** Гадкий утенок.



**EN** Come, Easy/ easy go.

**UZ** (Yengil kelgan, yengil ketadi.)  
Davlat qanday kelgan bo'lsa,  
Shunday ketadi.

**RUS** Легко нажито — легко прожито.

**EN** Comes to him who waits, Everything.

**UZ** (Kuta bilganga hamma narsa keladi.)

Sabr qilsang, g'oradan holva bitar,

Besabrlar o'z oyog'idan yitar.

**RUS** Терпи казак, атаманом будешь.



**EN** Comes uncalled, He who/ sits unserved.

**UZ** (Chaqirilmagan joyga borgan — qarovsiz qolar.)

Chaqirilmagan qo'noq quruq qaytadi.

**RUS** Незванного гостя с пиря долой.



**EN** Communications corrupt good manners, Evil.

**UZ** (Shayton bilan aloqa — xulqi a'loni ham buzadi.)

Yomon bilan yer qo'shni ham bo'lma,

Go'r qo'shni ham bo'lma.

**RUS** С кем поведешься, от того и наберешься.



**EN** Company, Two is/ but three is none.

**UZ** (Ikki kishi kengash qursa, uchinchisi ortiqcha.)

Ikkovga birov botolmas,

Otliqqa yayov yetolmas.

**RUS** Где двое, там третий лишний.



**EN** Comparisons are odious.

**UZ** (O'xshatish nafrat uyg'otar.)

Taqlid bilan tong otmas.

**RUS** Сравнения не всегда уместны.

**EN** Compromise is better than a fat lawsuit, A lean.

**UZ** (Omonat kelishuv qiyomat qarzdand afzal.)

Inoqlik jon kiritadi,  
Niyat buzilsa, jon ketadi.

**RUS** Худой мир лучше доброй ссоры.



**EN** Confession is good for the soul.

**UZ** (Iqror — ruh uchun yaxshidir.)

Aybiga iqror — mard kishi,  
Yashirmoq — qo'rqoq ishi.

**RUS** Повинную голову меч не сечет.



**EN** Conscience is a continual feast, A good.

**UZ** (Sof insof — tugamas bayram.)

Insofli odam oshini yer,  
Insofsiz odam — boshini.

**RUS** У кого совесть чиста, тот может спать спокойно.



**EN** Constant guest is never welcome, A .

**UZ** (Ko'p keladigan mehmonni yaxshi kutib olishmaydi.)

Kunda keladigan mehmonning qadri yo'q.

**RUS** Частого гостя радушно не встречают.



**EN** Cook praises his own broth, Every.

**UZ** (Har bir oshpaz o'z sho'rvasini maqtar.)

Har kimniki o'ziga,  
Oy ko'rinar ko'ziga.

**RUS** Всяк кулик свое болото хвалит.





**EN** Cook and bottle-washer, Head.

**UZ** (Ham bosh oshpaz, ham tovoq yuvuvchi.)  
Yigitga yetmish hunar oz.

**RUS** На все руки мастер.



**EN** Counsel does no harm, Good.

**UZ** (Yaxshi maslahat yomonlik keltirmas.)  
Ko'p bilan kengash,  
Ma'quliga yondash.

**RUS** Хороший совет всегда пригодится.



**EN** Country has his own customs, Every.

**UZ** (Har bir mamlakatning o'z urf-odatlarini bor.)  
Har gulning o'z isini bor,  
Har elning o'z tusini bor.

**RUS** Что край, то обычай; что народ, то вера.



**EN** Couple is not a pair, Every.

**UZ** (Har qanday ikki kishi ham juft bo'lavermaydi.)  
Ikki xaramza do'st bo'lmas.

**RUS** Не каждый брак удачен.



**EN** Course of true love never did run smooth, The.

**UZ** (Haqiqiy muhabbat yo'li hech qachon tekis bo'lmaydi.)  
Sevgi dardi ko'p yomon,  
Boshidan o'tgan bilar.

**RUS** Милый не злодей, а иссушил до костей.



**EN** Courtesy on one side only lasts not long.

**UZ** (Bir taraflama xushmuomalalik uzoqqa cho'zilmaydi.)

Qars ikki qo'ldan chiqadi.

**RUS** Грех пополам.



**EN** Cousin seven times removed.

**UZ** (Yetti yot begona xolavachcha.)

Uzoqdagi qarindoshdan

Yaqindagi qo'shni yaxshi.

**RUS** Седьмая вода на киселе.



**EN** Cow knows not what her tail is worth  
until she has lost it, The.

**UZ** (Sigir dumidan ayrilmaguncha, uning qadriga yetmas.)

Oldingda oqar suvning qadri yo'q.

**RUS** Что имеем — не храним, потерявши — плачем.



**EN** Cowards are cruel.

**UZ** (Qo'rqoqlar berahm bo'ladi.)

Qo'rqoqdan shafqat kutma.

**RUS** Кто любит помыкать другими — всегда трус.



**EN** Cowards die many times before their death.

**UZ** (Qo'rqoq o'limidan oldin ko'p bor o'ladi.)

Qo'rqoq o'lmasdan burun o'lar,

O'likdan nima kutib bo'lar.

**RUS** Герой умирает раз, трус — тысячу раз.



**EN** Creaking door hangs long, A.

**UZ** (G'irchillagan eshik uzoq turadi.)

Eski chophonim — rohati jonim.

**RUS** Скрипучее дерево долго стоит.



**EN** Creditors have better memories than debtors.

**UZ** (Qarz berganning xotirasi, qarz olgannikidan butunroq.)

Qarz olgan qochar,

Qarz bergan quvar.

**RUS** На свои долги забытки, на чужие — памятки.



**EN** Crime doesn't pay.

**UZ** (Yomon ish o'zini hech qachon oqlamas.)

O'g'irlik mol boy qilmas.

**RUS** Ворованное впрок нейдет.



**EN** Crime, the higher the gallows, The greater the.

**UZ** (Jinoyat qanchalik qabih bo'lsa,  
dor shunchalik baland bo'ladi.)

O'g'irlik solsang qo'yingga,

Sirtmoq tushar bo'yingga.

**RUS** Кто плут, для того сделан кнут.



**EN** Cripples learns to limp, He that lives with.

**UZ** (Cho'loqlar bilan yashagan, oqsashni o'rganar.)

Qo'shning ko'r bo'lsa, ko'zingni qis,

Cho'loq bo'lsa — lang.

Около муки — в муке,

**RUS** А около скота — в навозе.

**EN** Crooked by nature is never made straight by education.

**UZ** (Bukri bo'lib tug'lganni tarbiya to'g'rilamas.)

Asli qora oqarmas,

Asli qing'ir tuzalmas.

**RUS** Горбатого могила исправит.



**EN** Crying over split milk, It is no use.

**UZ** (To'kilgan sutga yig'lamoq befoyda.)

O'tganni qaytarib bo'lmas,

O'lganni - turgizib.

**RUS** Которая корова умерла, та и к молоку была добра.



**EN** Cup must be carried steadily, A full.

**UZ** (To'la kosani avaylab ol.)

Avaylab uchmagan qush

Qanotidan ayrilar.

**RUS** Береженого и бог бережет.




**EN** Curses are like chickens; they come home to roost.

**UZ** (Qarg'ish jo'jaga o'xshab o'z iniga qaytadi.)

Birovni qarg'asang,

O'zingga urar.

**RUS** Не рой яму другому, сам в нее попадешь.



**EN** Danger foreseen is half avoided, A.

**UZ** (Xatarni oldindan ko'ra bilmoq, yarmisiga oldini olmoq.)  
Oldingdagi ovni ko'rmasang ham,  
Uzoqdagi yovni ko'ra bil.

**RUS** Веревку врага не используй при спуске в колодец.



**EN** Day the better deed, The better.

**UZ** (Yaxshiroq kunda yaxshiroq ish.)  
Har ishning vaqti bor,  
Vaqt bilganning baxti bor.

**RUS** Всему свое время.



**EN** Drunken days have all their to-morrrows.

**UZ** (Har bir may ichgan kunning o'z ertasi bor.)  
Mast bilan qo'shilib otimni chopdim,  
Otimni o'ldirib sazomni topdim.

**RUS** После пира наступает похмелье.





**EN** Day is not Sunday, Every.

**UZ** (Har kuni ham yakshanba bo'lavermaydi.)  
Qazi bilan qarta yedim, qornimda yo'q,  
Atlas bilan kimxob kiydim, egnimda yo'q.

**RUS** Не все коту масленица.



**EN** Day at night, Praise fair.

**UZ** (Yaxshi kunni kechasi maqta.)  
Kun hisobini oy olar,  
Bedov o'rnini toy olar.

**RUS** Хвали утро вечером —  
не видав вечера, и хвалиться нечего.



**EN** Daughter win, He that would the/  
must with the mother first begin.

**UZ** (Qiziga erishmoq uchun onasining ko'nglini  
ovlash kerak.)

Ona aqli - qiz aqli,  
Ota so'zi - aql ko'zi.

**RUS** Воля батюшкина, негa матушкина.



**EN** Disputing about tastes, There is no.

**UZ** (Kim nimani xush ko'rishi haqida bahslashilmaydi.)  
Har kim suygan oshini ichadi.

**RUS** О вкусах не спорят.





**EN** Dead men tell no tales.

**UZ** (O'lganlar ertak aytishmaydi.)  
O'lik bo'rini it tishlamas.

**RUS** Жил — полковник, помер — покойник.



**EN** Dead bury their dead, Let the.

**UZ** (O'liklar o'z o'liklarini ko'msin.)  
O'tgan ishga — salavot,  
Qolgan ishga — barakat.

**RUS** Кто старое помянет, тому глаз вон.



**EN** Dead say nothing but good, Concerning the.

**UZ** (O'lganlar haqida faqat yaxshi gapir.)  
O'ldi — aziz bo'ldi,  
Shishdi — semiz bo'ldi.

**RUS** Покойника не поминай лихом.



**EN** Dead men don't bite.

**UZ** (O'lganlar tishlamas.)

O'lganning ko'zidan yosh chiqmas.

**RUS** Мертвый не кусается.



**EN** Death the doctor, After.

**UZ** (O'lgandan keyin tabib chaqirmoq.)  
O'lmak, o'lmakning ishi — ko'mmak.

**RUS** Как мертвому припарки.



**EN** Death is the grand leveller.

**UZ** (O'lim — buyuk tenglashtiruvchidir.)

O'lim shox-u gadoga barobar.

**RUS** У смерти на глазах все равны.



**EN** Death takes no denial.

**UZ** (O'lim norozilikka qaramas.)

O'limdan qochib bo'lmas.

**RUS** Смерть сослепу лютует.



**EN** Debt is the worst poverty.

**UZ** (Qarz kambag'allikdan battar.)

Darding bo'lsa bo'lsin,

Qarzing bo'lmasin.

**RUS** Заниматься, что побираться.



**EN** Debt, out of danger, Out of.

**UZ** (Qarzdin yiroq, xatardan yiroq.)

Qarzdorlik — qahri Xudo.

**RUS** Съедают долги и богатого.



**EN** Deceives is ever suspected, He that once.

**UZ** (Bir marta aldagan umrbod ishonchdan chiqar.)

Yolg'onchi chin deyolmas,

Chin desa ham, el inonmas.

**RUS** Раз солгал, а век веры не имут.



**EN** Deceives me once, If a man /shame on him;  
if he deceives me twice, shame on me.

**UZ** (Meni birov bir marta aldasa — unga uyat;  
agar meni ikki marta aldasa — menga uyat.)  
Yolg'onchi to'rga bir o'tar, ikkinchi o'tmas.

**RUS** Врать, так с людьми не знаясь.



**EN** Deepest water is the best fishing, In the.

**UZ** (Eng chuqur suvda baliq ovi zo'r bo'ladi.)

Baliq suvning chuqurini,  
Mard ishning qiyinini izlar.

**RUS** Рыба ищет, где глубже, человек — где лучше.



**EN** Delays are dangerous.

**UZ** (Keyinga qoldirish xatarlidir.)

Anqov bo'lgan kishining,  
Mazasi yo'q ishining.

**RUS** Промедление смерти подобно.



**EN** Deserves not the sweet that will not taste the sour, He.

**UZ** (Achchiqni totib ko'rmagan shiringa loyiq emas.)

Achchiq bilan chuchukni totgan bilar,  
Uzoq bilan yaqinni — yurgan.

**RUS** Не вкусив горького, не видать и сладкого.



**EN** Desires honour, He that / is not worthy of honour.

**UZ** (Shon-shavkatni talab qilgan — unga munosib emas.)

Shuxratparast el bo'lmas,

Ko'lmak suvdan ko'l bo'lmas.

**RUS** Дай бог тому честь, кто умеет её снесть.



**EN** Despair gives courage to a coward.

**UZ** (Iloji qolmasa, qo'rqoq ham botir bo'ladi.)

Qarg'ani qo'rqitsang, botir bo'lar.

**RUS** Один со страху помер, другой ожил.



**EN** Devil you know than the devil you don't know, Better the.

**UZ** (Tanimagan shaytondan tanish shayton yaxshi.)

Sinalgan yov urushga yaxshi.

**RUS** Из двух зол выбирай меньшее.



**EN** Devil and the deep sea, Between the.

**UZ** (Shayton bilan dengiz qa'ri orasida.)

Osmon uzoq, yer qattiq,

O'lay desam, jon totlik.

**RUS** Между двух огней.



**EN** Devil can cite Scripture for his purpose, The.

**UZ** (O'z maqsadida shayton Muqaddas

Kitob ustida ham qasam ichadi.)

Shaytonning ozdirgani - o'zniki.

**RUS** О подлости кричит и воет,

А честности яму роет.

**EN** Devil finds work for the idle hands to do, The.

**UZ** (Shayton bo'sh qo'lga ish topib beradi.)

Dangasa boshin yesin,

Illatning g'amin yesin.

**RUS** Лень — мать всех пороков.



**EN** Devil is good to his own, The.

**UZ** (Shayton o'zinikini xush ko'rar.)

It itning quyrug'ini bosmas.

**RUS** Свой своему — и ногою пнет, поможет.



**EN** Devil knows many things because he is old, The.

**UZ** (Shayton ko'p narsani biladi, chunki ko'p yashagan.)

Qari bilganni pari bilmas.

**RUS** Старый волк знает толк.



**EN** Devil rebuking sin, The.

**UZ** (Yovuzlikni qoralayotgan shayton.)

Oldin o'zingga boq,

So'ngra nog'ora qoq.

**RUS** Чья бы корова мычала, а твоя бы молчала.



**EN** Devil take the hindmost, Each for himself and the.

**UZ** (Hamma o'zi uchun, shayton olsin orqada qolganlarni.)

Har kim o'zim bo'lay deydi.

**RUS** Богаты, так здравствуйте, а убоги, так прощайте.



**EN** Devil hates holy water, Hate smb. as the.

**UZ** (Birovni, shayton muqoddas suvni yoqirmagandek,  
xush ko'rmalik.)

Yomondan yo qoch, qutul, yo quv, qutul.

**RUS** Бежать от кого-либо, как черт от ладана.



**EN** Devil, He must have a long spoon that sups with the.

**UZ** (Shayton bilan ovqatlangani o'tirsang,  
uzunroq qoshiq ol.)

Yomondan to'n kiysang,  
To'yda "to'nim ber" deydi.

**RUS** Связался с чертом, пеняй на себя.



**EN** Devil drives, He must needs go whom the.

**UZ** (Shayton yetaklasa yurishga majbursan.)

O'zimdani chiqqan baloga,  
Qayga boray davoga.

**RUS** Против рожна не погрешь.



**EN** Devil than to lay him, It is easier to raise the.

**UZ** (Shaytonni chaqirish oson, undan qutulish qiyin.)

Yomonning balosiga, qayga boray davosiga.

**RUS** Как придет напасть, так хоть вовсе пропасть.



**EN** Devil by the tail, Pull the.

**UZ** (Shaytonni dumidan tortmoq.)

Behuda harakat belni sindirar.

**RUS** Не буди лиха.



**EN** Devil was sick, When the / the devil a monk would be.

**UZ** (Kasallik kelsa shayton ham so'pi bo'ladi.)

Kasalingdan ilgari kafan tayyorla.

**RUS** Когда старость придет, то и черт в монастырь идет.



**EN** Diamond cut diamond.

**UZ** (Olmosni olmos kesar.)

Egovni egov yeydi,  
Zaharni zahar yeydi.

**RUS** Клин клином вышибают.



**EN** Difference between tweedledum and tweedledee. The .

**UZ** (Tvidlidam [umpak] va tvidlidi [rumpak] orasidagi farq.)

Alixo'ja — Xo'jaali.

**RUS** Что в лоб, что по лбу.



**EN** Diligence is the mother of good luck.

**UZ** (Tirishqoqlik — omad onasi.)

Tirishgan toshga mix qoqar.

**RUS** Человек трудом строит счастье.



**EN** Dirt into that fountain of which thou hast sometime drunk,  
Never cast.

**UZ** (Suv ichib turadigan favoraga sira axlat tashlama.)

Quduqqa tupurma, qaytib icharing bor.

**RUS** Не плюй в колодец, пригодится воды напиться.

**EN** Discreet woman have neither eyes nor ears.

**UZ** (Ehtiyotkor ayolning na ko'zi bor, na qulog'i.)  
Pardali qiz — pari tengsiz.

**RUS** Не всякая жена мужу правду рассказывает.



**EN** Distress makes trouble less, Company in.

**UZ** (Mushkul vaziyatni baham ko'rish musibatni yengillashtirar.)  
Ko'pchilikka hamroh bo'lsang,  
Manzilingga tezroq yetasan.

**RUS** На миру и смерть красна.



**EN** Do well than to say well, Better to.

**UZ** (Yaxshi gapirgandan ko'ra yaxshilik qil.)  
So'zing kumush bo'lsin,  
Ishing — oltin.

**RUS** Хорошие дела лучше хороших слов.



**EN** Do as you would be done by.

**UZ** (O'zingga nimani ravo ko'rsang, o'zgaga ham shuni qil.)  
Pichoqni avval o'zingga ur,  
Og'rimasa — birovga.

**RUS** За худо примись, а худо за тебя.



**EN** Done can't be undone, What's.

**UZ** (Qilingan ishni qilinmagan deb bo'lmaydi.)  
O'tib ketgan yomg'irning ketidan o'pkalama.

**RUS** Что с возу упало, то пропало.



- EN** Done do it yourself, If you want a thing well.  
**UZ** (Biron narsaning yaxshi qilinishini istasang, o'zing qil.)  
 O'zimning ishimga xo'kizman.  
**RUS** Своего дела никому не доверяй.



- EN** Dog in the manger, A.  
**UZ** (Pichan ustidagi it.)  
 O'zi yemas, itga bermas.  
**RUS** Собака на сене.



- EN** Dogs bark, The / but caravan goes on.  
**UZ** (Itlar hurar, karvon esa o'tar.)  
 It hurar — karvon o'tar.  
**RUS** Собака лает, ветер носит.



- EN** Dog has his day, Every.  
**UZ** (Har bir itning o'z kuni bor bo'ladi.)  
 Omadi kelsa, sichqon filni yengadi.  
**RUS** Будет и на нашей улице праздник.



- EN** Dog a bad name and hang him, Give a.  
**UZ** (Itga yomon nom bergin-u, osgin.)  
 Yomon atalib tirik yurguncha,  
 Yaxshi atalib o'lgan yaxshi.  
**RUS** Дурная слава накрепко пристает.



**EN** Dog deserves a good bone, A good.

**UZ** (Yaxshi itga — yaxshi suyak.)

Yaxshiga ipak ilashur,  
Yomonga tikan ilashur.

**RUS** По заслугам и честь.



**EN** Down with dogs must rise up with fleas, He that lies.

**UZ** (Itlar bilan yotgan, bitlab turar.)

Yaxshiga yondashsang, yetarsan murodga,  
Yomonga yondashsang, qolarsan uyatga.

**RUS** С кем поведешься, от того и наберешься.



**EN** Dogs lie, Let sleeping.

**UZ** (Uxlab yotgan kuchuklarni uyg'otmang.)

Yotgan ilonning quyrug'ini bosma.

**RUS** Не буди лиха, пока лихо спит.



**EN** Dog will not howl if you beat him with a bone, A.

**UZ** (Itni suyak bilan ursang, vovullamaydi.)

Itni suyak bilan ursangiz, qorqmas.

**RUS** Не дразни собаку, так и не укусит.



**EN** Dog and bark oneself, Keep a.

**UZ** (Iti bo'la turib, o'zi vovullar.)

Eshak minganning oyog'i tinmas.

**RUS** Денег накопил, да черта и купил.



**EN** Dog is better than a dead lion, A living.

**UZ** (O'lik arslondan tirik it afzal.)

O'lik arslondan tirik sichqon a'lo.

**RUS** Живая собака лучше мертвого льва.



**EN** Dog barks not in vain, An old.

**UZ** (Qari it bekorga hurimaydi.)

Qari it ko'p yo'l bilar.

**RUS** Старый ворон не каркнет мимо.



**EN** Dog will learn no new tricks, An old.

**UZ** (Qari it yangi hunar o'rganmas.)

It qarisa, yotgan yeridan xuradi.

**RUS** Старого пса к цепи не приучишь.



**EN** Dog, A staff is quickly found to beat a / with.

**UZ** (Itni urishga tayoq tez topiladi.)

Tayoq maymunga namoz o'qitar.

**RUS** Была бы собака — а палка найдется.



**EN** Dogs strive for a bone, and third runs away with it, Two.

**UZ** (Ikki kuchuk suyak talashar, uchinchisi esa ilib ketar.)

Olgan — olganniki, ot — minganniki.

**RUS** Кто атаман, у того и булава.





- EN** Dogs over one bone seldom agree, Two  
**UZ** (Ikki it bir suyak ustida kamdan-kam chiqisha oladi.)  
 ltdan suyak ortmas,  
 Mushukdan — bez.  
**RUS** Собака и в море локчет, да не все же выпьет.



- EN** Dog fears cold water, The scalded.  
**UZ** (Kuygan it sovuq suvga ham puflar.)  
 Olovdan qo'rqan tutundan ham qochar.  
**RUS** Обжегшись на молоке, будешь дуть и на воду.



- EN** Dogs will eat dirty puddings, Scornful.  
**UZ** (Dimog'dor itga yag'ir non qolar.)  
 Tanlay, tanlay tozga yo'liqdim,  
 Boshi piyoz, kalga yo'liqdim.  
**RUS** Не надейся на счастье: не купи коня хромого.



- EN** Dogged that does it, It is.  
**UZ** (Sabr ko'p ishni yengar.)  
 Sabrli yetar murodga,  
 Sabrsiz qolar uyatga.  
**RUS** Терпение и труд все перетрут.



- EN** Doing is better than saying.  
**UZ** (Gapirgandan qilgan yaxshi.)  
 Gap bilguncha, ish bil.  
**RUS** Хорошие дела лучше хороших слов.



**EN** Doing we learn, In.

**UZ** (Ish davomida o'rganamiz.)

Ish g'ayratlidan qo'rqadi.

**RUS** Ткали рогожу, доткались и до красен (полотна).



**EN** Doing at all is worth doing well, What is worth.

**UZ** (Biror ishni qiladigan bo'lsang, a'lo bajar.)

Ishga yaxshi qarasang,

Ish ham senga yaxshi qarar.

**RUS** Лес сечь - не жалеть плеч.



**EN** Done by night appears by day, What is.

**UZ** (Tunda sodir bo'ladigan narsa kunduzi oydinlashadi.)

Bigizni qanorda yashirib bo'lmas.

**RUS** Все тайное становится явным.



**EN** Donkey bray at you, If a / don't bray at him.

**UZ** (Agar eshak senga xarasa, sen unga baqirma).

Ahmoqqa aytgan bilan gap uqmas.

Xarsangga qoqqan bilan mix o'tmas.

**RUS** Не связывайся с дураком.



**EN** Doors dogs come in, At open.

**UZ** (Ochiq eshikka itlar kirar.)

Hushyorni yov bosmas,

Yov bossa ham, dov bosmas.

**RUS** Без забора, без запора не уйдешь от вора.

**EN** Door may be shut but death's door, Every .

**UZ** (O'lim eshigidan o'zga eshikni yopsa bo'ladi.)  
O'limdan qochib bo'lmas.

**RUS** От смерти не откупишься.



**EN** Door, If each would sweep before his own /  
we should have a clean city.

**UZ** (Har bir kishi o'z eshigi oldini supurganida,  
shahrimiz toza bo'lardi.)

Tozalikka rioya qil,

Chang kirmasin, soya qil.

**RUS** Только жук, в навозе живучи, да чисто обихаживается.



**EN** Door after the horse is stolen, Lock the stable.

**UZ** (Otni o'g'irlab ketishgandan keyin otxonaning  
eshigini qulflamoq.)

So'nggi pushaymon — o'zingga dushman.

**RUS** Задним умом крепок.



**EN** Door closes another opens, When one.

**UZ** (Bir eshik yopilganda, ikkinchisi ochiladi.)

Baxt g'oyibdan kelmas,

Uni qo'ling bilan yarat.

**RUS** Счастье, что палка: о двух концах.





**EN** Drink, As you brew, so must you.

**UZ** (Sharobni qanday shopirgan bo'lsang, shunday ichasan.)

O'zing pishirgan osh —

Aylanib ich, o'rgilib ich.

**RUS** Сам заварил кашу, сам и расхлебывай.



**EN** Drink wine and have the gout: drink no wine and have the gout too.

**UZ** (Ichgan ham bod kasaliga yo'liqadi, ichmagan ham.)

Og'riq-og'riq — ko'z og'rig'i,

Har kimsaning — o'z og'rig'i.

**RUS** Здоровому и нездоровое здорово, а нездоровому и здоровое нездорово.



**EN** Drop from the clouds.

**UZ** (Bulutdan tomchi.)

Kutmagan tosh bosh yorar.

**RUS** Свалиться как снег на голову.



**EN** Drop makes the cup run over, The last.

**UZ** (So'nggi qatra qadahdagi suvni toshirar.)

Tuya elakka qolganda oqsaydi.

**RUS** Терпя и камень треснет.



**EN** Drop of poison infects the whole tun of wine, One.

**UZ** (Bir tomchi zahar sharob to'la xumni aynitar.)

Bir shaharni bir bola buzar.

**RUS** Ложка дегтя в бочке меда.



**EN** Dropping wears away a stone, Constant.

**UZ** (To'xtovsiz tomchilasa, tosh ham yeyilar.)

Tomchiga tosh chidamas.

**RUS** Капля камень долбит.



**EN** Drowning man will catch at a straw, A.

**UZ** (Cho'kayotgan odam xasdan najot izlar.)

Umidli — dunyo,

Noumid — shayton.

**RUS** Болящий ожидает здоровья даже до смерти.



**EN** Drunk as a fish, As.

**UZ** (Baliqdek ichgan.)

Mast kayf qiladi,

O'zini hayf qiladi.

**RUS** Пьян — не свой — сам себе чужой.




**EN** Drunken night makes a cloudy morning, A.

**UZ** (Mastlikda o'tkazilgan kechadan so'ng bulutli tong kelar.)

Mast bilan qo'shilib otimni chopdim,

Otimni o'ldirib sazomni topdim.

**RUS** День пируют, а неделю голова с похмелья болит.



**EN** Ear and out at the other, In at one.

**UZ** (Bir quloqqa kirib, ikkinchisidan chiqadi.)

Oqma quloqqa aytsang, oqib ketar,  
Quyma quloqqa aytsang, quyib olar.

**RUS** Мимо ушей.



**EN** Ears burn, If your / someone is talking about you.

**UZ** (Agar qulog'ingiz qiziyatgan bo'lsa, kimdir siz  
haqingizda gapirayapti.)

So'zning yomoni — pichir,  
Dardning yomoni qichir.

**RUS** Заочную брань ветер носит.



**EN** Early sow, early mow.

**UZ** (Vaqtli ekan, vaqtli o'rar.)

Barvaqt qilingan harakat,  
Hosilga berar barakat.

**RUS** Откладывай безделье, да не откладывай дела.





**EN** Easier said than done.

**UZ** (Qilmoqdan aytmoq oson.)

Gap bo'lsa — paka-paka,

Ish bo'lsa — chaka-chaka.

**RUS** Хвастать — не косить:

Спина не болит.



**EN** East or west home is best.

**UZ** (Sharq-u G'arbdan o'z uying afzal.)

O'z uyimning hushligi —

Oyoq-qo'lning bo'shligi.

**RUS** В гостях хорошо, а дома лучше.



**EN** Easy come, easy go.

**UZ** (Oson kelgan, oson ketadi.)

Tez kelgan davlatning bahosi bo'lmas.

**RUS** Легко нажито, легко и прожито.



**EN** Easy to be wise after the event, It is.

**UZ** (Voqeadan keyin oqil bo'lish oson.)

Aqling pesh — ishing besh,

Aqling kech — ishing hech.

**RUS** Задним умом крепок.



**EN** Eat high off the hog.

**UZ** (Cho'chqadan ko'p ovqat yemoq.)

Yaxshi ovqat qolguncha,

Yomon qornim yorilsin.

**RUS** Как сыр в масле кататься.





**EN** Eat out of smb.'s hand.

**UZ** (Birovning qo'lidan yemoq.)  
Birovning qo'lida ul bo'lguncha,  
O'z uyingda qul bo'l.

**RUS** Плясать под чужую дудку.



**EN** Eat the fat of the land.

**UZ** (Yerning qaymog'ini yemoq.)  
Arpa yegan ot o'ynar,  
Makka yegan zot o'ynar.

**RUS** Как сыр в масле кататься.



**EN** Eat at pleasure, drink by measure.

**UZ** (Rohatingga yegin, me'yorida ichgin.)  
Sharobning ozi — dori, ko'pi — og'u.

**RUS** Поешь — сыт будешь; напьешься — пьян будешь.



**EN** Eat to live, but do not live to eat.

**UZ** (Yashash uchun yegin, ammo yeyish uchun yashamagin.)  
Yeyish uchun yashama,  
Yashash uchun ye.

**RUS** Ешь просто — проживешь лет до ста.



**EN** Eating and scratching wants but a beginning.

**UZ** (Yemoq va qichinmoq boshlangandan keyin kuchayadi.)  
Yemayman degan kelin yengdek xasipni yer.

**RUS** Аппетит приходит во время еды.



**EN** Education begins a gentleman,  
conversation completes him.

**UZ** (Jentlmen tarbiyadan boshlanadi,  
suhbat esa uni maromiga yetkazadi.)  
Yigit orif bo'lsa, aslini so'rama.

**RUS** Дай бог тому честь, кто умеет ее снесть.



**EN** Eel, Slippery as an.

**UZ** (Ilon baliqdek sirpanchiq.)

Baliqning ham sakkiz qanoti bor.

**RUS** Голыми руками не возьмешь.



**EN** Eggs must endure the cackling of hens,  
He that would have.

**UZ** (Tuxum olmoqchi bo'lgan odam tovuqlarning  
qaqillashiga chidashi lozim.)

Jon kuydirmasang, jonona qayda,  
Tog'ga chiqmasang, do'lona qayda.

**RUS** Любишь кататься, люби и саночки возить.



**EN** Elbow grease gives the best polish.

**UZ** (Sayqal zo'r yaltirash beradi.)

Tinmasang, tinarsan.

**RUS** Неустанный труд — залог успеха.



**EN** Empty purse that is full of other men's money,  
That is but an.

**UZ** (Aynan bo'sh hamyon o'zgalar puliga to'la bo'ladi.)  
Kambag'al saxiy bo'lar,  
Boy — baxil.

**RUS** Деньги девать некуда, кошелка купить не на что.



**EN** Empty vessels make the most noise.

**UZ** (Bo'sh idishdan eng ko'p shovqin chiqadi.)  
Sutsiz sigir ko'p ma'raydi.

**RUS** Без ума голова — пивной котел.



**EN** End justifies the means, The.

**UZ** (Maqsad choralarni oqlaydi.)  
Maqsadli bo'lgan yo'l topar.

**RUS** Цель оправдывает средства.



**EN** Ends of the earth, At the.

**UZ** (Yerning oxirida.)  
Tashlandiqqa tosh tegmas.

**RUS** У черта на куличках.



**EN** End of the horn, Come out at the little.

**UZ** (Karnayning ingichka uchidan chiqmoq.)  
Ahmoqqa son tegmas,  
Sepdan ishton kiyar.

**RUS** Сесть в лужу.



**EN** End crowns all, The.

**UZ** (Hamma narsaning toji — oxiri.)  
Ishni qilsang, tamom qil.

**RUS** Конец — всему делу венец.



**EN** End things will mend, In the.

**UZ** (Oxirida hamma narsa yaxshi bo'lib ketadi.)  
Umidingni uzma, ko'nglingni buzma.

**RUS** Перемелется — мука будет.



**EN** End, The longest day must have an.

**UZ** (Eng uzun kun ham nihoyasiga yetadi.)  
Har bir ishning oxiri bor,  
Har qiyinchilikning — oxiri.

**RUS** Всеу приходит конец.



**EN** Englishman's house is his castle, An.

**UZ** (Inglizning uyi — uning qal'asi.)  
O'z uyimning xushligi —  
Oyoq-qo'limning bo'shligi.

**RUS** Своя хата — родная matka.



**EN** Enough is enough.

(Yetarli — yetarlidir.)

**UZ** Oz oshagan moy oshar,  
Ko'p oshagan loy oshar.

**RUS** Хорошего понемножку.



**EN** Enough is as good as a feast.

**UZ** (Me'yorida [yemoq] bayram ziyofatiday yaxshi.)

Har narsa o'z epi bilan.

**RUS** От добра добра не ищут.



**EN** Enough to make a saint swear.

**UZ** (Avliyoni ham la'nat aytishga majbur qilishga yetarli.)

Har cho'ronning bir tayoq ko'tarishi bor.

**RUS** Даже у святого терпение может лопнуть.



**EN** Enough to try the patience of a saint.

**UZ** (Avliyoning sabrini sinashga yetarli.)

Sabrli chidar,

Sabrsiz yonar.

**RUS** Хотя у кого терпение лопнет.



**EN** Err is human, To.

**UZ** (Xato qilmoq insonga xosdir.)

Xato qilmoq bordir,

Tuzatmaslik - ordir.

**RUS** Человеку свойственно ошибаться.



**EN** Ethiopian change his skin?, Can the

**UZ** (Habash terisini o'zgartira oladimi?)

Qon bilan kirgan, jon bilan chiqar.

**RUS** Горбатого могила исправит.



**EN** Evening crowns the day, The.

**UZ** (Oqshom kunduzning toji.)

Har kechaning — kunduzi,  
Har kunduzning kechasi bor.

**RUS** Хвались вечером, днем не сеченый.



**EN** Events cast their shadows before, Coming.

**UZ** (Kelajakdagi voqealar oldindan o'z soyasini to'shaydi.)  
Bo'ladigan bola boshidan ma'lum.

**RUS** Это были одни цветики, теперь пойдут ягоды.



**EN** Every man for himself and God for us all.

**UZ** (Har bir kishi o'zi uchun, Xudo bo'lsa hammamiz uchun.)  
Har kim o'zim bo'lay deydi.

**RUS** Всяк себе хорош.



**EN** Every man has his faults.

**UZ** (Har kimning o'z kamchiligi bor.)

Har bir to'kisning bir kamchiligi bor.

**RUS** И на солнце есть пятна.



**EN** Every man is best known to himself.

**UZ** (Har bir kishi o'ziga-o'zi a'lo ayon.)

Har kim o'zidan o'tganini o'zi biladi.

**RUS** Всякому своя обида горька.



**EN** Every man to his taste.

**UZ** (Har kimning o'z didi bor.)

Har kimning didi boshqa,

Har gulning — hidi.

**RUS** На вкус и цвет товарищей нет.



**EN** Everything comes to him who waits.

**UZ** (Kutgan hamma narsaga erishadi.)

Sabr etgan yetar murodga,

Besabr qimtinib qolar uyatga.

**RUS** Терпи, казак, атаманом будешь.



**EN** Everything must have a beginning.

**UZ** (Har bir narsa boshlanishga ega bo'lishi kerak.)

Har bir ishning chaması bor.

**RUS** Все дело в почине.



**EN** Evils 'tis not worth choosing, Between two.

**UZ** (Kulfatlar orasida tanlashga arzigusi yo'q.)

Ikki jinni qo'shildi, -

Bo'ldi bir qurbon hayit.

**RUS** Хрен редьки не слаще.



**EN** Evil be to him who evil thinks.

**UZ** (Ajalni o'ylaganni ajal olar.)

Ayiqni yo'qlasang, tayoq ol.

**RUS** Без притчи и лихоманка не берет.



**EN** Evils we bring on ourselves are the hardest to bear, The.

**UZ** (O'zimizga o'zimiz chaqirib olgan kulfatlarga chidash eng og'ir bo'ladi.)

O'zimdan chiqqan baloga,  
Qayga boray davoga.

**RUS** Пусти черта в дом, не вышебешь его и лбом  
(то есть, молитвой.)



**EN** Example is better than precept.

**UZ** (O'rnak nasihatdan afzal.)

Ming shirin nasihatdan bitta o'rnak yaxshi.

**RUS** Передний заднему дорога.



**EN** Exchange is no robbery.

**UZ** (Almashish qaroqchilik emas.)

Alishar bo'lsang, chiningni ayt,  
Qovushar bo'lsang, siringni ayt.

**RUS** Мена — не грабеж.



**EN** Expected where much is given, Much is.

**UZ** (Kimga ko'p berilgan bo'lsa, undan talab ham katta.)  
Talabli erga nur yog'ar.

**RUS** Большому кораблю — большое и плаванье.



**EN** Experience is the mother of wisdom.

**UZ** (Tajriba — oqillikning onasi.)

Bir sinalgan tajriba  
Yetti kitobdan afzal.

**RUS** Жизненный опыт — основа мудрости.





**EN** Experience keeps a dear school,  
but fools learn in no other.

**UZ** (Tajriba qimmatbaho maktab, ammo  
ahmoqlarni o'zga narsaga o'rgatmas.)  
Aqlni ahmoqdan o'rgan.

**RUS** Коли братня смерть не накажет,  
своею уж не накажешься.



**EN** Experience is good, if not bought too dear.

**UZ** (Agar qimmatga sotib olinmasa, tajriba yaxshi.)  
Bosh toshga tegsa,  
Aql boshga kelar.

**RUS** Не околело дитя, так наторело.



**EN** Experience teaches.

**UZ** (Tajriba o'rgatadi).  
Zamon seni o'qitar,  
Tayoq bilan cho'qitar.  
Sabog'ingni bilmasang,  
Do'konda bo'z to'qitar.

**RUS** Опыт -- лучший учитель



**EN** Extremes meet.

**UZ** (Haddan ziyod [narsalar] uchrashar.)  
Ahmoq ahmoqni topar.

**RUS** Рука руку моет, плут плута кроет.





**EN** Eye for an eye and a tooth for a tooth, An.

**UZ** (Ko'zga — ko'z, tishga — tish.)

O'chakishgan it qorpay qolmas.

**RUS** Не дразни собаку, так и не укусит.



**EN** Eye sees not, What the/the heart rues not.

**UZ** (Ko'z ko'rmagan narsaga yurak qayg'urmaydi.)

Ko'zdan nari — ko'ngildan nari.

**RUS** С глаз долой — из сердца вон.



**EN** Eyes are the mirror of the soul, The.

**UZ** (Ko'z — inson qalbining ko'zgusi.)

Ko'z — ko'ngil darchasi.

**RUS** Глаза — зеркало души.



**EN** Eyes see more than two, Four.

(To'rtta ko'z ikkitadan ko'proq ko'radi)

**UZ** Bir bosh — balo bosh,

Ikki bosh — mardona.

**RUS** Ум хорошо, а два лучше



**EN** Eyes are bigger than one's belly, One's.

**UZ** (Ko'zi qornidan ham kattaroq)

Ochko'z eshak to'ruva teshar.

**RUS** Глаза завидующие



**EN** Eye, Sleep with one/ open.

**UZ** (Bir ko'zni ochib uxlaydi.)

Hushyorni yov bosmas,  
Yov bossa ham, dov bosmas.

**RUS** Одним ухом спит, другим слышит.




**EN** Eye does not see the heart cannot grieve, What the.

**UZ** (Ko'z ko'rmasa, qalb ham qayg'urmaydi.)

Ko'z qayerda bo'lsa,  
Mehr ham o'sha yerda.

**RUS** С глаз долой, из сердца вон.




**F**

**EN** Face is the index of the heart, The.

**UZ** (Yuz — qalb ko'rsatkichi.)

Yuzim oq bo'lsin desang,  
Ishingni to'g'ri qil.

**RUS** Лицо — зеркало души.



**EN** Face may hide a foul heart, A fair.

**UZ** (Chiroyli yuz jirkanch qalbni niqoblashi mumkin.)

Yuzing qoraligi uyat emas,  
Yuziqoralik uyat.

**RUS** Яблоко румяное, а внутри червивое.



**EN** Face is a letter of recommendation, A good.

**UZ** (Yaxshi yuz — tanishtiruv yorlig'i.)

Yuz — o'tdan issiq.

**RUS** Перья птицу выдают.



**EN** Face is her fortune, Her.

**UZ** (Uning yuzi — uning omadi.)

Yuzi ochiqning tili uzun.

**RUS** Не родись красивой, а родись счастливой.



**EN** Face on smth., Put a good.

**UZ** (Biron narsa borasida ochiq yuzli bo'lmoq.)

O'zini "aka" der, echkisini "taka" der.

**RUS** Делать хорошую мину при плохой игре.



**EN** Facts are stubborn things.

**UZ** (Dalillar — o'jar narsa.)

Haqiqat qilni qirq yorar.

**RUS** Огонь под полой недалеко унесешь.



**EN** Failing to trust everybody, It is an equal/  
and to trust nobody.

**UZ** (Har kimga ishonish va hech kimga  
ishonmaslik — bir xil kamchilik.)

Kuf-sufchiga ishonsang ham,  
«Хо'р-хо'р»chiga ishonma.

**RUS** Доверяй — и проверяй.



**EN** Faint heart never won fair lady.

**UZ** (Uyatchan qalb hech qachon go'zal ayolni rom etolmas.)

Uyalgan yigit qizdan quruq qolar.

**RUS** Сробел — пропал.



**EN** Fair and softy goes far.

**UZ** (Chiroyli va muloyim odam uzoqqa boradi.)

Muloyim, muloyim, quling bo'loyin.

**RUS** Ласковый теленок двух маток сосет.

- EN** Fair face is half a fortune, A.  
**UZ** (Chiroyli yuz-yarim omad.)  
 Yaxshi xusn-yarim omad.  
**RUS** Не родись красивой, а родись счастливой.



- EN** Fair play's a jewel.  
**UZ** (Sof o'yin — boylik.)  
 To'g'rilik to'rga tortar,  
 O'g'rilik — go'rga.  
**RUS** Истинное всегда благородно.



- EN** Fairer the hostess, the fouler the reckoning, The.  
**UZ** (Oliyjanobroq mehmon, yomonroq hisob-kitob.)  
 Mehmonxonang tor bo'lsa ham,  
 Mehri diling keng bo'lsin.  
**RUS** Мягко стелет да жестко спать.



- EN** Fall into a snare.  
**UZ** (Tuzoqqa ilinmoq.)  
 Aldashga bola yaxshi.  
**RUS** Попасться на удочку.



- EN** Fall, Ride for a.  
**UZ** (Baxtsizlik tomon ot choptirmoq.)  
 O'z aybingni ochsang,  
 Elning mehri qochar.  
**RUS** Самому себе рыть яму.



**EN** Fall, Though heaven/ let justice be done.

**UZ** (Osmon uzilib tushsa ham, adolat o'rnatilsin.)

Adolat qilichi kesgan qo'l og'rimas.

**RUS** Хотя в уголь сожги меня, так нет.



**EN** Falling out of lovers is the renewing of love, The.

**UZ** (Sevishganlarning urushgani — sevgining yangilangani.)

Ikki yorning urushgani — o'ynashgani.

**RUS** Милые бранятся, только тешатся.



**EN** Familiarity breeds contempt.

**UZ** (Betakalluflik hurmatsizlikka keltiradi.)

Yaqindagi tishlashar,

Uzoqdagi kishnashar.

**RUS** Близкое дешево, дорогое далеко.



**EN** Far from eye, far from heart.

**UZ** (Ko'zdan uzoqda, qalbdan uzoqda.)

Ko'zdan yiroq — qalbdan yiroq.

**RUS** С глаз долой — из сердца вон.



**EN** Fault once denied is twice committed, A .

**UZ** (Xatoni inkor etgan uni ikki marotaba chuqurlashtiradi.)

Mis qozonning misi chiqar,

Berkitganning isi chiqar.

**RUS** От вины, что от долга, не отрекайся.



**EN** Fault confessed is half redressed, A.

**UZ** (Tan olingan xato yarmisiga tuzatilgan [hisoblanadi].)

Aybiga iqror mard kishi,  
Yashirmoq — qoʻrqqoq ishi.

**RUS** Повинную голову меч не сечет.



**EN** Faults are thick where love is thin.

**UZ** (Sevgi oz joyda xatolar qalin boʻladi.)

Sevganga — sultonsan,  
Sevmaganga — ultonsan.

**RUS** В постылом все немило.



**EN** Faults are theirs that commit them, The first/  
the second theirs that permit them.

**UZ** (Birinci xatoni uni inkor etuvchilar qilsa,  
ikkinchi oʻrinda unga yoʻl qoʻyuvchilar turadi.)

Adashganning aybi yoʻq, soʻrab yoʻlini topsa,  
Ochilganning aybi yoʻq, bilib etagin yopsa.

**RUS** Вору потакать — что самому воровать.



**EN** Fat is in the fire, The.

**UZ** (Olov ichidagi dumba yogʻi.)

Davlat ketgandan keyin oʻzingni somonxonada koʻr.)

**RUS** Что с возу упало, то пропало.







**EN** Feast today and fast tomorrow.

**UZ** (Bugun ziyofat, ertasiga esa ro'za.)

Har kuni yema palovni,

Har kuni yoqqin olovni.

**RUS** Разом густо, разом пусто.



**EN** Feast, Death's head at a.

**UZ** (Bayram ziyofatida murdaning boshi.)

Ayoz, o'tgan kuning unutma,

Xom chorig'ingni quritma.

**RUS** Что ни делай, а на свой хвост оглядывайся.



**EN** Feathers make fine birds, Fine.

**UZ** (Go'zal qanotlar go'zal qushni yaratadi.)

Qush qanoti bilan uchar.

**RUS** Одежда красит человека.



**EN** Feather to fly with, Not to have a

**UZ** (Uchmoqqa qanot yo'q.)

Qanotsiz qush uchmas,

Suvsiz tegirmon yurmas.

**RUS** Сидеть на мели.



**EN** Fee, Not to set at a pin's.

**UZ** (Bir ninaning puliga ham arzimasi.)

Arzimaydi shavlası,

Kuydiradi g'alvası.

**RUS** Гроша ломаного не стоит.



**EN** Fellow, Stone-dead hath no.

**UZ** (O'lganning do'sti yo'q.)

O'lgan kelmas, o'chgan yonmas.

**RUS** Мертвые не говорят.



**EN** Few words are best.

**UZ** (Eng yaxshisi kam so'zlamog.)

Ko'p gap — eshakka yuk.

**RUS** Слово — серебро, молчание — золото.



**EN** Fiddle while Rome is burning, To.

**UZ** (Rim yonayotganda skripka chalmoq.)

Kimga — to'y, kimga — aza.

**RUS** Кому — вилы в бок, кому — хлеба кусок.



**EN** Fiddler, If you dance you must pay the.

**UZ** (Raqs tushadigan bo'lsang, skripkachiga pul to'lashing lozim.)

Gulni sevgan, tikanini ham sevadi.

**RUS** Любишь кататься, люби и саночки возить.



**EN** Finders keepers, losers weepers.

**UZ** (Topgan ushlaydi, yo'qotgan yig'laydi.)

Topgan — piyoz, topmagan — piyoz.

**RUS** Кому — сон, кому — явь, кому — клад, кому — шиш.





**EN** Finger off than aye wagging, Better a.

**UZ** (Barmog'ing qiynagandan ko'ra uni chopib tashlash afzal.)

Bo'ladigan ishning bo'lgani yaxshi,

Uydagilarning tingani yaxshi.

**RUS** Лучше конец с ужасом, чем ужас без конца.



**EN** Finger in the pie, To have a.

**UZ** (Pudingga barmoq suqmoq.)

Bilib o'tir o'ringni,

Har yerga suqma burningni.

**RUS** Любопытной Варваре нос оторвали.



**EN** Fingers, Have light.

**UZ** (Yengil barmoqli bo'lmoq.)

Qo'li qing'irning dili qing'ir.

**RUS** На руку нечист.



**EN** Finger is thicker than another's loins, One's.

**UZ** (Birovning jimjilog'i o'zganing belidan yo'g'on.)

Kalit qulfdan kuchli.

**RUS** И мизинца не стоит.



**EN** Fire, A burnt child dreads the.

**UZ** (Kuygan bola olovdan qo'rqqar.)

Olovdan qo'rqqan tutundan ham qochar.

**RUS** Пуганая ворона куста боится.



**EN** Fire with fire, Drive out.

**UZ** (Olovni olov bilan chekintirish.)

Achchiqni achchiq kesar.

**RUS** Клин клином вышибают.



**EN** Fire and water are good servants, but bad masters.

**UZ** (Olov va suv yaxshi xizmatchi, ammo yomon xo'jayin.)

Olov bilan o'ynashsang, oqibatda kuyarsan.

**RUS** С огнем не шути, с водой не дружись, ветру не верь.



**EN** Fire that's closest kept burns most of all.

**UZ** (Yashirincha yongan olov eng kuchli bo'ladi.)

Kasalni yashirsang,

O'lim oshkora qilar.

**RUS** Не ворошенный жар под пеплом лежит.



**EN** Fire which lights us at a distance  
will burn us when near, The.

**UZ** (Bizni uzoqdan isitgan olov yaqindan kuydiradi.)

Suv ko'paysa, daryo toshar.

**RUS** Ветер задует свечу и раздувает костер.



**EN** Fire and water, Go through.

(Olov va suvdan o'tmoq.)

**UZ** Achchiq bilan chuchukni totgan bilar,

Uzoq bilan yaqinni-yurgan.

**RUS** Битому псу только плеть покажи.



**EN** Fire without smoke, No.

**UZ** (Tutunsiz olov bo'lmaz.)

Tutunsiz o't bo'lmaz,

Yorsiz — yigit.

**RUS** Где дым, там и огонь.



**EN** Fire, Play with.

**UZ** (Olov bilan o'ynashmoq.)

Olov bilan o'ynashma.

**RUS** Не водись с чертом — попадешь в пекло.



**EN** Fire, Set the Thames on.

**UZ** (Temza daryosini yondirmoq.)

Erchil xotin qor qalab qozon qaynatar.

**RUS** Достать луну с неба.



**EN** Fire into the wrong flock.

**UZ** (Adashib boshqa to'dani yondirish.)

Anglamay tushdim tangga,

Endi menga soy qayda.

**RUS** Попасть пальцем в небо.



**EN** Fish in the air.

**UZ** (Havoda baliq tutmoq.)

Behuda harakat beburd qilar.

**RUS** Решетом воду носить

**EN** First catch your hare and then cook it.

**UZ** (Aval quyinni tutib ol, keyin qovur.)  
Borishda maqtanma, kelishda maqtan.

**RUS** Делить шкуру неубитого медведя.



**EN** First come, first served.

**UZ** (Birinchi kelganga birinchi bo'lib xizmat qilishadi.)

Erta borsang, et pishar,  
Kechga qolsang, bet pishar.

**RUS** За содомом гостей не достанется погладать и костей.



**EN** First think, and then speak.

**UZ** (Aval o'yla, keyin so'yla.)

Aval o'yla, keyin so'yla

**RUS** Не спросившись броду, не суйся в воду.



**EN** First thrive and then wife.

**UZ** (Aval o'zingni o'nglab ol, keyin xotin ol.)

Xotin olmoqqa cho't kerak,  
Botmon-daxsar et kerak.

**RUS** Христа ради невест не выдают.



**EN** First blow is half the battle, The.

**UZ** (Birinchi hamla — yarim jang.)

Vaqt o'tgandan keyin,  
Qilichingni toshga chop

**RUS** Смелый приступ не хуже победы.

**EN** Fish that comes to his net, All is.

**UZ** (To'riga tushgan har narsani ham baliq deb biladi.)

Haromza suvdan halvo pishirar.

**RUS** Доброму вору все в пору.



**EN** Fish are near the bottom, The best.

**UZ** (Baliqning sarasi suv tubida suzadi.)

Baliq suvning chuqurini,

Mard ishning qiyinini izlar.

**RUS** Все хорошее нелегко дается.



**EN** Fish in a little pond, A big.

**UZ** (Kichik ko'lmakdagi katta baliq.)

Kichiklarning kattasi bo'lma,

Kattalarning kichigi bo'l.

**RUS** Как пышка не дуйся — больше пирога не будешь.



**EN** Fish, Cry stinking.

**UZ** (Chiriyatgan baliq hayqirig'i.)

Uydagi sirni ko'chada aytma,

Ko'chada aytib, g'amini tortma.

**RUS** Выносить сор из избы.



**EN** Fish begins to stink at the head.

**UZ** (Baliq boshidan sasiy boshlaydi.)

Baliq boshidan chiriydi.

**RUS** Рыба гниёт с головы.



**EN** Fish out of water, A.

**UZ** (Suvdan tashqaridagi baliq.)  
Baliqning tirikligi suv bilan,  
Odamning tirikligi odam bilan

**RUS** Быть не в своей тарелке.



**EN** Fish eat up the small, The great.

**UZ** (Katta baliq kichigini yeydi.)

**RUS** Zo'rga ham zo'rdek balo bor.  
Кто сильнее, тот прав.



**EN** Fish, If you swear you will catch no.

**UZ** (Janjallashadigan bo'lsangiz baliq tutolmaysiz.)  
Janjalli uyda baraka bo'lmas.

**RUS** Ссора до добра не доведет.



**EN** Fish, It is a silly/that is caught twice with the same bait.

**UZ** (Faqat ahmoq baliq bir xo'rakka ikki marta ilinadi)

Zamon seni o'qitar,

Tayoq bilan so'qitar.

Sabog'ingni bilmasang,

Do'konda bo'z to'qitar.

**RUS** Кому бог ума не дал, тому кузнец не прикует.



**EN** Fish nor fowl, Neither.

**UZ** (Baliq ham emas, qush ham emas.)

Qo'nimi yo'qning unumi yo'q.

**RUS** Ни рыба, ни мясо.





**EN** Fish in the sea, There's as good.

**UZ** (Dengizda baliq kabi ko'p.)

Keng bo'lsang, kam bo'lmaysan.

**RUS** Свет не клином сошелся.



**EN** Fish to catch a great one, Venture a small.

**UZ** (Katta baliqni tutmoq uchun kichigidan voz kechish.)

Saxiyning qo'li ochiq,

Qo'li ochiqning yo'li ochiq.

**RUS** Тороватому бог подает, а у скупого черт отбирает.



**EN** Fish to fry, I have other.

**UZ** (Qovurishga o'zga balig'im bor.)

Bermasning bahonasi ko'p.

**RUS** У всякого Федорки свои отговорки.



**EN** Fish-guts to one's own sea-maws, Give one's own.

**UZ** (Baliq hasipini o'z suzgich pufagiga solmoq.)

Qo'ynidan to'kilsa — qo'nijga.

**RUS** Помогать своим, а не чужим.



**EN** Fishing in troubled waters, It is good.

**UZ** (Loyqa suvda baliq tutish yaxshi.)

Loy ichidan dur ajrat.

**RUS** Ловить рыбу в мутной воде.



**EN** Fit as a flea, As.

**UZ** (Burga kabi yaroqli [sakrashga].)  
Tani sog'ga kunda to'y.

**RUS** Здоров как бык.



**EN** Fit to command others that cannot  
command himself, He is not.

**UZ** (O'zini boshqarolmagan, o'zgalarni boshqarolmas.)  
O'zini bilmagan o'zgani bilmas.

**RUS** Хозяин добр — и дом хорош, хозяин худ — и в доме тож.



**EN** Flatterers meet, When/ the devil goes to dinner.

**UZ** (Xushomadgo'ylar uchrashganida  
shayton ovqatlangani ketadi.)  
Xushomad so'zlagan til  
Yalab-yalab yara etar.

**RUS** Лихва да лезть дьяволу в честь.



**EN** Fleas, Nothing must be done hastily but killing of.

**UZ** (Burga o'ldirishdan o'zga ishda shoshish kerak emas.)  
Shoshgan pashsha sutga tushar.

**RUS** Поспешишь — людей насмешишь.



**EN** Flesh, Be one.

**UZ** (Bir tan bo'lmoq [eru-xotin haqida].)  
Er-xotin — qo'sh ho'kiz.

**RUS** Муж и жена — одна сатана.



**EN** Fling dirt enough, and some will stick.

**UZ** (Yetarlicha loy otsang, ozmi-ko'pmi yopishadi.)

Suv tog'ni kemiradi,

Tuhmat — odamni.

**RUS** Клевета, что уголь: не обожжет, так замарает.



**UZ** Float on a cloud.

**RUS** (Bulutda suzmoq.)

O'ynab-kulgin yigitdek,

Siqilmagin chigitdek.

**RUS** Ног под собой не чуют.



**EN** Flog a dead horse, To.

**UZ** (O'lgan otni qamchilamoq.)

Suv o'pirib ketgan to'g'onni do'ppi bilan bekitib bo'lmas.

**RUS** Решетом воду носить.



**EN** Flow has its ebb, Every.

**UZ** ((Dengizda) Har bir suv toshishning qaytishi ham bor.)

Bir xor bo'lgan —

Bir aziz bo'lmay qolmas.

**RUS** Все течет, все изменяется.



**EN** Fly in the ointment, A.

**UZ** (Mo'ya tushgan pashsha.)

Bir qorin moyni bir qumaloq buzar.

**RUS** Ложка дегтя в бочке мёда.



**EN** Fly on the wheel, A.

**UZ** (G'ildiragida o'tirgan pashsha.)  
Manmanlikni netarsan,  
Obro'yingdan ketarsan.

**RUS** От скромности он не умрет.



**EN** Fly on the wheel, To break a.

**UZ** (Pashsha o'tirgan g'ildirakni sindirmoq.)  
Igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqma.

**RUS** Стрелять из пушек по воробьям.



**EN** Flying from fate, No.

**UZ** (Taqdirdan uchib ketolmaysan.)  
Tadbirning yengi bilan  
Taqdirni yashirib bo'lmas.

**RUS** От судьбы не уйдешь.



**EN** Fog cannot be dispelled with a fan, A.

**UZ** (Tumanni yelpig'ich bilan tarqatib bo'lmas.)  
Behuda urinsang, poyoni bo'lmas,  
O'ylanib qilsang, ziyoni bo'lmas.

**RUS** Ковшом море не вычерпашь.



**EN** Folks have the least leisure, Idle.

**UZ** (Dangasaning bo'sh vaqti hammadan kam bo'ladi.)  
Dangasaning ishi bo'lmas,  
Yoz kelsa ham, qishi bitmas.

**RUS** Спишь, спишь, а отдохнуть некогда.

**EN** Folks lack no excuses, Idle.

**UZ** (Dangasada bahonadan ko'pi yo'q.)  
Dangasaning vaji ko'p,  
Ohangsizning — avji.

**RUS** И козлы недосуг: надо лошадей на водопой провожать.



**EN** Follow the river and you'll get to the sea.

**UZ** (Daryoga ergashib dengizga chiqasan.)  
Daryo chopar, chaqqon topar.

**RUS** Где цветок, там и медок.



**EN** Folly is wise in her own eyes.

**UZ** (Har bir ahmoq o'z ko'zida dono ko'rinadi.)  
Ahmoq aql o'rgatar.

**RUS** Умный на суд не ходит, а дурень с суда не сходит.



**EN** Fool and his money are soon parted, A.

**UZ** (Ahmoq va uning puli bir-biridan tez orada ajralar.)  
Ahmoqniki — og'zida,  
Podshoniki — g'aznada.

**RUS** Дал дурака, яичко; что покатыл, то и разбил.



**EN** Fool according to his folly, Answer a.

**UZ** (Ahmoqqa ahmoqligiga yarasha javob ber.)  
Ahmoqni urma-so'kma, gapga sol.

**RUS** С умным сочтешься, а дурню — хоть подари, да прогони.



**EN** Fool thinks, As the/so the bell clinks.

**UZ** (Qo'ng'iroq, ahmoq o'ylaganiday jaranglarkan.)  
Ahmoqning o'z bilgani  
Gapirmasa — o'lgani.

**RUS** Дуракам закон не писан.



**EN** Fool will be meddling, Every.

**UZ** (Har bir ahmoq [har narsaga] aralashaveradi.)  
Ahmoqdan so'rama, o'zi aytar.

**RUS** Дураки любят во все вмешиваться.



**EN** Fool always rushes to the fore, A.

**UZ** (Ahmoq doim to'rga intilar.)  
Ahmoq uyining to'rini bermas,  
Qayta unikiga mehmon kelmas.

**RUS** Попа да дурака в передний угол сажают.



**EN** Fool does think he is wise, The/ but the wise man  
knows himself to be a fool.

**UZ** (Ahmoq o'zini dono deb o'ylarkan,  
dono esa o'zini ahmoq deb bilarkan.)  
Dono aql so'rab hormas,  
Nodon nozin qilib bormas.

**RUS** Умный любить учиться, а дурак учить.



**EN** Fool is known by his laughing, A.

**UZ** (Ahmoq kulgisidan ma'lum.)  
Ahmoq o'zi so'zlab, o'zi kular.

**RUS** Смех без причины — признак дурачины.

**EN** Fool may ask more questions in an hour than a wise man can answer in seven years, A.

**UZ** (Ahmoq bir soat ichida bera oladigan savollarga aqli yetti yilda ham javob berolmaydi.)

Ahmoqning o'z bilgani,  
Gapirmasa o'lgani.

**RUS** Дурак завяжет — и умный не развяжет.



**EN** Fool may give a wise man counsel, A.

**UZ** (Ahmoq aqliga ham maslahat bera oladi.)

Ahmoq so'zlar, aqli tinglar.

**RUS** Умный молчит, когда дурак ворчит.



**EN** Fool may sometimes speak to the purpose, A.

**UZ** (Goho ahmoq ham o'rinli so'zlar.)

Ahmoqdan chaqmoq.

**RUS** Дурак врет, врет, да и правду скажет.



**EN** Fool may throw a stone into a well which a hundred wise men cannot pull out, A.

**UZ** (Bir ahmoq quduqqa tashlagan toshni yuzta aqli ham olib chiqolmas.)

Bitta ahmoq quduqqa tosh tashlasa,  
O'nta aqlini ovora qiladi.

**RUS** Дурак в воду камень бросит,  
десятеро умных не вытащат.





**EN** Fool like an old fool, No.

**UZ** (Qari ahmoqqa teng keladigan ahmoq yo'q.)

Ahmoq qarimas,

Qarisa ham, ahmoqligi arimas.

**RUS** Седина в бороде, бес в ребро.



**EN** Fool always, None is a /every one sometimes.

**UZ** (Hech kim har doim ahmoq bo'lavermaydi,

har kim ba'zan [ahmoq] bo'ladi.)

Birovning holiga kulmagin zinhor,

Sening holingga ham kulguvchilar bor.

**RUS** На час ума не станет, а навек дураком прослывешь.



**EN** Fool makes many, One.

**UZ** (Bir ahmoq ko'pni [ahmoq] qiladi.)

Ahmoq elchi ikki tarafni buzar.

**RUS** Глупость заразительна.



**EN** Fools cut their fingers, but wise men cut their thumbs.

**UZ** (Ahmoqlar jimjilog'ini chopsa,

aqllilar bosh barmog'ini chopadi.)

Olim adasha, olam qoqilar.

**RUS** Если умный валяет дурака, за ним

никакой дурак не угонится.







**EN** Fool is never cured, He who is born.

**UZ** (Ahmoq bo'lib tug'ilgan sira tuzalmas.)  
Ahmoqning boshiga aql yopishtirib qo'ysang,  
Qo'li bilan ko'chirib tashlaydi.

**RUS** Горбатого могила исправит.



**EN** Fool when he is silent is counted wise, A.

**UZ** (Ahmoq indamay turganda aqli hisoblanadi.)

Ahmoq — ko'zidan ma'lum,  
So'zlasa — so'zidam ma'lum.

**RUS** Молчи — за умного сойдешь.



**EN** Fools and bairns should not see half-done work.

**UZ** (Ahmoqlarga va bolalarga bitmagan ishni ko'rsatma.)

Aqlsiz — aytmasang bilmas,  
Ochmasang — ko'rmas.

**RUS** Глупый да малый, что ни увидят, то и просят.



**EN** Fools make feasts and wise men eat them.

**UZ** (Ahmoqlar ziyofat beradi, aqllilar esa mehmon bo'ladi.)

Aqli kalta pand yeydi,  
Aqli teran — qand.

**RUS** Дурак дом построил, а умный купил.



**EN** Fools never know when they are well.

**UZ** (Ahmoqlar hech qachon o'z foydasini bilmas.)

Devonaga ikki dunyo barobar.

**RUS** Дурак не понимает своей выгоды.

**EN** Fools rush in where angels fear to tread.

**UZ** (Farishtalar qadam bosgani qo'rqan yerga ahmoqlar otilib kirar.)

Ahmoqni charchatar oyoq,  
Ahmoqning davosi tayoq.

**RUS** Дуракам закон не писан.



**EN** Fools should not have chapping sticks.

**UZ** (Ahmoqlarga darz ketgan tayoq ushlar man etiladi.)

Ahmoq to'qmoq yig'ar.

**RUS** Не копьём побивают, а умом.



**EN** Fools will be fools.

**UZ** (Ahmoq ahmoqligicha qoladi.)

Ahmoq otdan tushsa ham,  
Egardan tushmas.

**RUS** Пьяный проспится, а дурак никогда.



**EN** Fool that forgets himself, He is a

**UZ** (O'zini unutgan ahmoqdir.)

Ahmoq og'zidagini oldirar.

**RUS** Только дурак живет, зазмурившись на всё.



**EN** Fool that is not melancholy once a day, He is a.

**UZ** (Kuniga bir marta ham ma'yus tortmagan ahmoqdir.)

Ahmoq — o'ynashdi,  
Yaxshi — o'ylashdi.

**RUS** Дураку все смех на уме.



**EN** Fool to the market, Send a/ and a fool he'll return.

**UZ** (Ahmoqni bozorga yuborsang, ahmoqligicha qaytadi.)  
Ahmoqqa aytgan bilan gap uqmas,  
Xarsangga qoqqan bilan mix o'tmas.

**RUS** Ворона и за море летала, да вороной и вернулась.



**EN** Fool wanders, The/ the wise men travels.

**UZ** (Ahmoq daydib yurar, dono sayohat qilar.)  
Donoga ish — shon-u shuhrat,  
Nodonga ish — g'am-u kulfat.

**RUS** Без ума суму таскаты, а с умом деньги считать.



**EN** Fools went not to market, If / bad wares  
would not be sold.

**UZ** (Agar ahmoqlar bozorga bormaganda,  
yomon mollar sotilmasdi.)  
Bozordagi botmon quyruq,  
Tarozigiga tortgan quyruq.

**RUS** Товар полюбится, так и ум расступится.



**EN** Foot slip than the tongue, Better the.

**UZ** (Til toygandan oyoq toygani afzal.)  
Oyog'idan qulagan turadi,  
Og'zidan qulagan turmaydi.

**RUS** Слово не воробей, вылетит — не поймаешь.





**EN** Foot in both camps, Have a.

**UZ** (Ikkala [bir-biriga dushman]  
lashkargohga qadam qo'ymoq.)  
Six ham kuymasin,  
Kabob ham kuymasin.

**RUS** Служить и нашим и вашим.



**EN** Foot by one's own last, Measure another man's.

**UZ** (Birovning oyog'ini o'z qolipiga qarab o'lchash.)  
O'zga mushtini yemagan o'z mushtini botmon der.

**RUS** Мерить все на свой аршин.



**EN** Forbearance is no acquittance.

**UZ** (Sabr-toqat qilmoq qarzdan ozod etish degani emas.)  
Vaqti kelsa, fil sichqondan qo'rqar.

**RUS** Временно смириться — не значит примириться.



**EN** Forewarned, forearmed.

**UZ** (Oldindan ogohlantirilgan — oldindan qurollangan.)  
Xushyorlik mustahkam qo'rg'on.

**RUS** Предупреждение — то же бережение.



**EN** Forgive and forget.

**UZ** (Kechir va unut.)

Yomonlikni yaxshilik bilan yeng.

**RUS** От лихого человека — хоть полу отрежь, да уйди.



**EN** Fortune favours the bold.

**UZ** (Omad botirlarga hamroh.)

Botir botqoqdan ham o'tar, qatqoqdan ham.

**RUS** Смелость города берет.



**EN** Fortune is variant.

**UZ** (Omad bevafoadir.)

Qimorboz ham yutar, ham yutqazar.

**RUS** Счастье не кляп: в руки не возьмешь.



**EN** Fortune knocks once at least at every man's door.

**UZ** (Omad har bir kishining eshigini  
hech bo'lmasa bir marta taqillatadi.)

Har yigitga bir omad.

**RUS** Счастье всякому хоть раз в жизни улыбнется.



**EN** Fortune knocks, When/open the door.

**UZ** (Omad taqillatganda eshikni och.)

Kumush kimga qo'nsa,

Oltin o'z oyog'i bilan kelar.

**RUS** Счастье придет, и на печи найдет.



**EN** Fortune pipes, He dances well to whom.

**UZ** (Kimga omad jo'r bo'lsa, o'sha raqsga zo'r tushadi.)

Omadi kelsa, sichqon filni yengar.

**RUS** Кому счастье служит, тот ни в чем не тужит.

**EN** Foul water will quench fire.

**UZ** (Iflos suv olov o'chiradi.)

Yomon ho'kiz shoxini sindirar.

**RUS** Злой человек не проживет в добре век.



**EN** Fox preaches, When the / then beware your geese.

**UZ** (Tulki nasihat qila boshlaganda,  
g'ozlaringizni qo'riqlang.)

Tulkingning hiylasi ko'p, yaxshisi — qochmoq.

**RUS** Заговелась лиса: загоняй гусей.



**EN** Fox knows much, The / but more he that catcheth him.

**UZ** (Tulki ko'p narsani biladi,  
ammo uni tutgan ko'proq biladi.)

Tulki qanchalar qochmasin,  
borar joyi — mo'ynado'zning do'koni.

**RUS** Кто лукавит, того черт задавит.



**EN** Free, Come off scot.

**UZ** (Bepul jarima bilan qutulish.)  
Eplagan ikki oshar.

**RUS** Выйти сухим из воды.



**EN** Friar preached against stealing and had  
a goose in his sleeve The.

**UZ** (Rohib o'g'rilikka qarshi nasihat qiladi,  
o'zi bo'lsa yengida g'oz berkitadi.)  
Mullani aytganini qil, qilganini qilma.

**RUS** Не всяк монах, на ком клубок.

**EN** Friend eat a bushel of salt with him, Before you choose a.

**UZ** (Do'st tanlashdan oldin u bilan bir botmon tuz yegin.)

Do'st safarda bilinar,

Og'a-ini — kulfatda.

**RUS** Изведен друг, куль соли вместе съевши.



**EN** Friend in court is better than a penny in purse, A.

**UZ** (Saroydagi do'st cho'ntakdagi penni [tiyin]dan afzal.)

Boylik boylik emas,

Birlik boylik.

**RUS** Не имей сто рублей, а имей сто друзей.



**EN** Friend in need is a friend indeed, A.

**UZ** (Qiyinchilikdagi do'st — asl do'st.)

Jonga kuygan jondan do'st,

Jonga kuymas qanday do'st.

**RUS** Друзья познаются в беде.



**EN** Friend, Be slow in choosing a / slower in changing him

**UZ** (Do'st tanlaganda shoshilma, uni almashtirganda

yanada ehtiyotkor bo'l.)

Ish bilganni oqil deydi,lar,

Do'stlikni uzganni qatil deydi,lar.

**RUS** Друга ищи, а найдешь — береги.



**EN** Friends all is common, Between.

**UZ** (Do'stlar orasida hamma narsa umumiy.)

Do'stlar o'rtasida "meniki" bo'lmas.

**RUS** Для милого дружка и сережку из ушка.

||

**EN** Friends must part, The best of.

**UZ** (Eng yaxshi do'stlar ajrashmog'i muqarrar.)

O'rtada burun bo'lmasa,

Ko'z ko'zni o'yar.

**RUS** На частую дружбу часто раздружье.



**EN** Friend to thyself, Be a/and others will befriend thee.

**UZ** (O'zingga o'zing do'st bo'l va boshqalar ham senga do'st bo'ladi.)

O'ziga boqmagan — o'zgaga yoqmas.

**RUS** Коли дома не пекут, так и в людях не дадут.



**EN** Friend to everybody is a friend to nobody, A.

**UZ** (Hammaga do'st bo'lgan hech kimga do'st bo'lmaydi.)

Ko'pni sevgan birni sevmas.

**RUS** Друзей-то много, да друга нет.



**EN** Fair-weather friend, A.

**UZ** (Obi-havo hush kelgandagi do'st.)

Davlatning — do'sting.

**RUS** Скатерть со стола — и дружба сплыла.



**EN** Friends are thieves of time.

**UZ** (Do'stlar vaqt o'g'rilaridir.)

Do'stingni saqlama, yo'ldan qolar,

Dushmanni saqlama, siring olar.

**RUS** Вор крадет деньги, а друг — время.





**EN** Friends are worse than bitter (open) enemies, False.

**UZ** (Soxta do'stlar ashaddiy [ochiq] dushmandan xavfli.)

Bostirmadan ayvon yaxshi,

Yomon do'stdan hayvon yaxshi.

**RUS** Коварный друг опаснее заклятого врага.



**EN** Friends may meet, but mountains never greet.

**UZ** (Do'stlar uchrashishi mumkin, ammo tog'lar hech qachon bir-biriga ta'zim qilmaydi.)

Tog'-tog' bilan qovushmas,

Odam-odam bilan qovushar.

**RUS** Гора с горой не сходится, а человек с человеком всегда сойдется.



**EN** Friends and old wine are best, Old.

**UZ** (Eski do'stlar va eski may eng a'lo bo'ladi.)

Kiyimning yangisi yaxshi,

Do'stning — eskisi.

**RUS** Старый друг лучше новых двух.



**EN** Friends both in heaven and hell,  
It is good to have some.

**UZ** (Ham jannatda, ham jahannamda bir nechta do'stlarga ega bo'lish yaxshi.)

Tor yer do'stlar bilan maydon bo'lur,

Keng yer dushman bilan — zindon.

**RUS** В поле пшеница годом родится,  
а добрый человек всегда пригодится.



- EN** Friends, Have but few / though many acquaintances.  
**UZ** (Tanish-bilish ko'p bo'lsa ham do'st atigi bir nechta dir.)  
 Har kimni do'stim dema,  
 Tandagi po'stim dema.  
**RUS** Приятелей много, да друга нет.



- EN** Friendship cannot stand always on one side.  
**UZ** (Do'stlik har doim bir tomondan qaror topavermaydi.)  
 Qars ikki qo'ldan chiqadi.  
**RUS** Черт попу не товарищ.



- EN** Friendship is not to be bought at a fair.  
**UZ** (Do'stlikni bozordan sotib olib bo'lmaydi.)  
 Do'stlik oltinga sotilmas,  
 Mehmon — pulga.  
**RUS** Друга на деньги не купишь.



- EN** Frog in a big pond, A little.  
**UZ** (Katta hovuzdagi kichik qurbaqa.)  
 Kattalarning kichigi bo'lguncha,  
 Kichiklarning kenjasi bo'l.  
**RUS** Мелкая сошка среди тузов.



- EN** Forbidden fruit is sweetest.  
**UZ** (Man etilgan meva eng shirin bo'ladi.)  
 Qo'shninging tovug'i g'oz ko'rinar,  
 Kelinchagi — qiz.  
**RUS** Запретный плод сладок.

**EN** Fruit must climb the tree, He that would eat the.

**UZ** (Meva yegisi kelgan daraxtga chiqishi lozim.)

Non yemoqchi bo'lsang, o'tin tashishdan erinma.

**RUS** Не потрудиться, так и хлеба не добиться.



**EN** Frying-pan into the fire, Out of the.

**UZ** (Qizigan tovadani olovga tushmoq.)

Qordan qutulgan yomg'irga tutilar.

**RUS** Из огня да в полях.



**EN** Full of courtesy, full of craft.

**UZ** (Xushmuomalalik mo'l, mohirlik mo'l.)

Xushmuomalali mingni uribdi,

Tayog'i yo'g'on birni uribdi.

**RUS** Не поддавайся на пчелкин медок;  
у неё жало в запасе.




**EN** Full to the gills.

**UZ** (Baqbaqasigacha [to'la] ichibdi.)

Xurmachangga siqqanicha ich.

**RUS** Пьян в стельку.




**G**

**EN** Game is not worth the candle, The.

**UZ** (O'yin shamga ham arzimaydi.)

Arzimaydi shavlası,

Kuydiradi g'alvası.

**RU** Игра не стоит свеч.



**EN** Gains never prosper, Ill-gotten.

**UZ** (Harom topilgan foyda hech qachon  
ravnaq topmaydi.)

Harom molning barakasi yo'q.

**RU** Чужое добро впрок нейдет.



**EN** Gain is to lose, Sometimes the best.

**UZ** (Ba'zan eng yaxshi foyda — voz kechish.)

Ko'rga yugurgan ozdan qolar.

**RU** Иногда стоит поступиться немногим ради многого.



**EN** Game, The cat-and-mouse.

**UZ** (Mushuk bilan sichqon o'yini.)  
Sichqonga — o'lim,  
Mushukka — o'yin.

**RUS** Кобыла с волком тягалась — один хвост  
да грива остались.



**EN** Game at which two can play, It is a.  
**UZ** (O'yin deganni ikki kishi o'ynay oladi.)

Bugun — sizdan, ertaga — bizdan.

**RUS** Посмотрим еще, чья возьмет.



**EN** Game, The same old!

**UZ** (O'sha-o'sha eski o'yin.)

Kelma-kezak dunyo.

**RUS** Опять за старое!



**EN** Garden without its weeds, No.

**UZ** (Bog' begona o'tsiz bo'lmas.)

Gul tikansiz bo'lmas,

Dur — sadafsiz.

**RUS** Нет розы без шипов.



**EN** Gas-meter, Lie like a.

**UZ** (Gaz o'lchog'ichi kabi aldamoq.)

Yolg'on gap yoqaga yopishmas.

**RUS** Врать как сивый мерин.



- EN** Geese are swans, All his.  
**UZ** (Uning hamma g'ozlari oqqushdir.)  
 Maqtanma g'oz, hunaring oz!  
**RUS** Овсяная каша хвалилась, будто  
 с коровьим маслом родилась.



- EN** Gentleman that pays the rent, The.  
**UZ** (Renta haqini to'laydigan jentlmen.)  
 Nasiya yema go'shtni,  
 Teshib chiqar to'shni.  
**RUS** Пьешь воду — не забывай о вырывшем колодец.



- EN** Ghost, Look like a.  
**UZ** (Arvohga o'xshamoq.)  
 O'lik bo'lib go'rda yo'q,  
 Tirik bo'lib sonda yu'q.  
**RUS** Краше в гроб кладут.



- EN** Giant among pygmies, A.  
**UZ** (Pakanalar orasidagi devqomat.)  
 Ko'rlar orasida bir ko'zli ham yetakchidir.  
**RUS** В царстве слепых кривой сойдет за короля.



- EN** Gifts from enemies are dangerous.  
**UZ** (Dushmanlarning hadyasi xatarlidir.)  
 Dushmanning sovg'asidan qo'rq,  
 Mug'ombirning — navhasidan.  
**RUS** Недруг дарит, зло мыслит.



**EN** Gift horse in the mouth, Look not a.

**UZ** (Hadya otning og'ziga qaralmas.)

Baxshish otning tishiga qaralmas.

**RUS** Дареному коню в зубы не смотрят.



**EN** Ginger shall be hot in the mouth.

**UZ** (Zanjabil [mazasi] og'zida avj oladi.)

Mazali so'zga quloq charchamas.

**RUS** По сладостям и слюнки текут.



**EN** Give as good as one gets.

**UZ** (Birov berganiga yarasha bermoq.)

Nima sochsang, shuni o'rasan.

**RUS** Платить той же монетой.



**EN** Give a dog a bad name, and hang him.

(Itga yomon nom bersang, uni osib o'ldir.)

**UZ** Itni qorog'on qilgan — egasi.

**RUS** Не дразни собаку, так и не укусит.



**EN** Give him an inch and he'll take an ell.

**UZ** (Unga bir duym [2.5sm] bersang, bir el [113sm] oladi.)

Insuf bilan qo'l uzatsang,

Noinsof yelkangacha chiqar.

**RUS** Дай ему палец, он и всю руку откусит.





**EN** Give the devil his due.  
**UZ** (Shaytonga tegishlisini ber.)  
 Dushmanni kuchsiz hisoblasa, boshga balo bo'lur.  
**RUS** Отдавать должное противнику.



**EN** Gives to all, denies all, Who.  
**UZ** (Hammaga beradigan hammasini rad etar.)  
 Suv qattiq yerda to'xtaydi.  
**RUS** Все спустил и сам сел.



**EN** Gives twice who gives quickly, He.  
**UZ** (Tez bergan ikki barobar berar.)  
 Berganning yuzi yorug',  
**RUS** Bermaganning yuzi choriq.  
 Делать добро спеши.



**EN** Giving much to the poor doth increase a man's store.  
**UZ** (Kambag'alga ko'proq bermoq kishining  
 farovonligini oshiradi.)  
 Sadaqasiga qarab savobi.  
**RUS** Давущего рука не оскудеет.



**EN** Glass houses, People who live in /  
 should never throw stones.  
**UZ** (Shishadan yasalgan uyda yashovchi  
 zinhor tosh otmasin.)  
 Birovga kesak otsang,  
 U senga tosh otadi.  
**RUS** Не бей в чужие ворота плетью;  
 не ударили бы в твои дубиной.





**EN** Glove, An iron fist in a velvet.

**UZ** (Duxoba qo'laqodagi temir musht.)

Yuvosh otning tepkisi qattiq bo'lar.

**RUS** Слова бархатные, а дела ежовые.



**EN** Gluttony kills more than the sword.

**UZ** (Ochofatlik qilichdan ko'proq odamni o'ldirar.)

Ochofat tishi bilan o'ziga go'r qazir.

**RUS** Хотя лопни брюшко, да не оставайся добро.



**EN** Gnat, Strain at a / and swallow a camel.

**UZ** (Chivinni elakdan o'tkazib, tuyani yutib yuboribdi.)

Tanlab, tanlab, toziga uchrabdi.

**RUS** Обращать внимание на мелочи и упустить основное.



**EN** Go down the ladder when thou marriest a wife;  
go up when thou choosest a friend.

**UZ** (Xotining bilan birlashganda zinadan pastga tushasan;  
do'st tanlanganda yuqoriga ko'tarilasan.)

Xotin so'zini qondirar,

Er urug'idan tondirar.

**RUS** Женился, да сам себе подивился,  
что ни богу, ни людям не сгодился.



**EN** Go farther and fare worse.

**UZ** (Uzoqroq borgan sari yo'l xarajati battar bo'lar.)

Boriga rozi bo'l,

Yo'g'iga sabr qil.

**RUS** Чем дальше, тем хуже.

**EN** Go to bed with the lamb, and rise with the lark.

**UZ** (Qo'zichoq bilan bir paytda o'ringa yotib,  
to'rg'ay bilan baravar uyg'on.)

Erta turgan ish bitirar,  
Kech turgan ko'p turtinar.

**RUS** Кто в молодости много спит, тот и жизнь просвистит.



**EN** Go out like a candle in a snuff.

**UZ** (So'xta bo'lgan sham kabi sob bo'lmoq.)

**RUS** Kuygandan kul chiqar.

Сгореть как свеча.



**EN** Goes a-borrowing, He that / goes a-sorrowing.

**UZ** (Qarz olaversang oxiri uyalib qolasan.)

Qarz etma birovdan,  
Qutulmaysan ingrovdan.

**RUS** Кто занимает, в беду попадает.



**EN** God comes at last when we think he is furthest off.

**UZ** (So'nggi daqiqada, Xudo yordamga kelmaydi deb  
o'ylaganimizda, u keladi.)

Umidli — dunyo, Noumid — shayton.

**RUS** Век живи, век надейся!



**EN** God defend me from my friends;

**UZ** from my enemies I can defend myself.

(Xudo meni do'stlarimdan asrasin;  
dushmanlarimdan esa o'zimni-o'zim asrayman.)

Do'stlarimdan o'zing saqla,

Dushmanlarimdan o'zim bilaman.

**RUS** С другом дружись, а как недруга берегись.

**EN** God heals, and the doctor takes the fee.

**UZ** (Xudo shifo beradi, tabib pul oladi.)

Kasal jonning harakatida,

Tabib pulning harakatida.

**RUS** Разорит, так больше не заболит.



**EN** God help the poor, for the rich can help themselves.

**UZ** (Xudo kambag'alga yordam ber,  
boy o'ziga-o'zi yordam bera biladi.)

Boyning ko'zi nonda,

Kambag'alniki — imonda.

**RUS** У богатого черт детей качает.



**EN** God help the rich, the poor can beg.

**UZ** (Xudo boyga yordam beradi, kambag'al  
tilamchilik qilishi mumkin.)

Boy ham boyga,

Xudo ham boyga.

**RUS** Есть денежки, так и по-божески идет.



**EN** God helps them, who help themselves.

**UZ** (O'ziga yordam berganga Xudo yordam beradi.)

Sen o'zingni asrasang,

Seni Xudo asrar.

**RUS** На бога надейся, а сам не плошай.



■ God is always on the side of the big battalions.

■ (Xudo doim katta qo'shin tarafida.)

Bek gapirsa, bekniki ma'qul,

Xon gapirsa — xonniki.

■ Бог всегда на стороне сильных.



■ God send me a friend that will tell me of my faults.

■ (Xudo menga kamchiliklarimni aytadigan do'st yubor.)

Do'st achitib so'zlar,

Dushman — kuldrib.

■ Кто друг прямой, тот брат родной.



■ God send you joy, for sorrow will come fast enough.

■ (Xudo sizga hursandlik yuboradi,

qayg'u bo'lsa tez orada yetib keladi.)

Rizq ham azaliy,

Yomon ham azaliy.

■ Где радость, тут и горе.



■ God sends fortune to fools.

■ (Xudo omadni ahmoqlarga yuboradi.)

Devonaning ishini Xudo o'nglar.

■ Дуракам везет.



■ God sends meat and the devil sends cooks.

■ (Xudo go'st yuboradi, shayton esa oshpazni.)

Xudoning berganiga shaytonning baxilligi kelar.

■ Лучше хлеб с водой, чем пирог с бедой.



**EN** God tempers the wind to the shorn lamb.

**UZ** (Juni yo'q qo'zichoqqa Xudo mayin shabada yuboradi.)

Taqdirning balosi ko'p,

Saqlasa panosi ko'p.

**RUS** Бог по силе крест налагает.



**EN** God's mill grinds slow but sure.

**UZ** (Xudoning tegirmoni sekin, ammo bexato yanchir.)

Bandaning boshi — Allohning toshi.

**RUS** От судьбы не уйдешь.



**EN** God for money will serve the devil for better wages,  
He that serves.

**UZ** (Xudoga pulga xizmat qiladigan odam  
mo'mayroq pulga shaytonga ham xizmat qiladi.)

Puldorning ota-onasi — pul.

**RUS** На чем возу сажу, того и песенку пою.



**EN** God would ruin, Whom / he first deprives of reason.

**UZ** (Xudo kimni xarob qilmoqchi bo'lsa,  
avval uning aqlini oladi.)

Aqling ko'r bo'lsa, ko'zdan ne foyda.

**RUS** Кому бог ума не дал, тому кузнец не прикует.



**EN** Gods love die young, Whom the.

**UZ** (Xudo sevgan bandasi yosh o'ladi.)

Bandaning boshi — Allohning toshi.

**RUS** Молодые по выбору мрут, старые поголовно.



**EN** Gold that glitters, All is not.

**UZ** (Yaltiragan hamma narsa ham oltin emas.)  
Zarhal ko'rinar soxta,  
Avval bilib so'ng maqta.

**RUS** Яблоко румяное, а внутри червивое.



**EN** Gold, Gild refined.

**UZ** (Sof oltinga zarhal bermoq.)  
Behuda harakat beburd qilar.

**RUS** Ехал не путем, погонял не кнутом.



**EN** Good against evil, Set.

**UZ** (Yomonlikka yaxshilik qil.)  
Yomonlikka yaxshilik er kishining ishidir,  
Yomonlikka yomonlik har kishining ishidir.

**RUS** Не устоять худу против добра.



**EN** Good and quickly seldom meet.

**UZ** (Yaxshi va tez kam uchrar.)  
Tez bitgan tez yitar.

**RUS** Скоро блины пекут. А дело спехом творить —  
только людей смешить.



**EN** Good anvil does not fear the hammer.

**UZ** (Yaxshi sandon bolg'adan qo'rqmas.)  
Yigitning sarasi yov bosganda bilinar.

**RUS** Верен, что золото в огне.

- Good beginning makes a good ending, A.  
 ■ (Yaxshi boshlangan [ish] yaxshi nihoyaga keltiradi.)  
 Ishimning boshi yoq,  
 Oshimning moshi yoq.  
 ■ Доброе начало — полдела откачалю.



- Good example is the best sermon, A.  
 ■ (Yaxshi o'rnak eng a'lo nasihat.)  
 Ming shirin nasihatdan,  
 Bitta o'rnak yaxshi.  
 ■ С кем поведешься, от того и наберешься.



- Good face needs no paint, A.  
 ■ (Chiroyli yuzga g'oz'a kerakmas.)  
 Yaxshi husn — yarim daromad.  
 ■ Белила не дают мила.



- Good health is above wealth.  
 ■ (Yaxshi sog'lik boylikdan afzal.)  
 Sog'lik bo'lsa, boylik kelar.  
 ■ Здоровье дороже богатства.



- Good life is the only religion, A.  
 ■ (Yaxshi hayot yagona dindir.)  
 Boyning ko'zi nonda,  
 Kambag'alniki — imonda.  
 ■ О чем тому тужить, кому есть чем жить.



**EN** Good to want and to have, It is not.

**UZ** (Istamoq va ega bo'lmq — yaxshimas.)

Nafsini tiygan kishi sulton bo'lur,

Nafsini tiymagan kishi ulton bo'lur.

**RUS** В лихости и зависти нет ни проку, ни радости.



**EN** Good turn deserves another, One.

**UZ** (Bir yaxshilik o'zga yaxshilikni keltiradi.)

Yaxshilik qilsang, yaxshilik qaytar,

Yomonlik qilsang — yomonlik.

**RUS** Дей добро, и жди добра.



**EN** Good wife and health are a man's best wealth, A.

**UZ** (Yaxshi xotin va sog'liq erkakning eng yaxshi boyligidir)

Yaxshi xotin — hazina.

**RUS** Не надобен и клад, коли у мужа с женой лад.



**EN** Good wife makes a good husband, A.

**UZ** (Yaxshi xotin yaxshi erni yaratadi.)

Erni er qiladigan ham xotin,

Qora yer qiladigan tram xotin.

**RUS** Доброю женою и муж честен.



**EN** Good wine needs no bush.

**UZ** (Yaxshi may tok navdasiga muhtoj emas

[qadimgi udumga ko'ra, Angliyada mayxona egasi may sotishini bildirish uchun eshigi tepasiga uzum toki navdasini osib qo'yardi.]])

Mol sarasi — o'ngida, Odam sarasi — ichida.

**RUS** Хороший товар сам себя хвалит.





**EN** Good workmen are seldom rich.

**UZ** (Yaxshi usta kamdan-kam boy bo'lar.)

Usta pichoqqa yolchimas,

Etikdo'z — bigizga.

**RUS** Денег ни гроша, да слава хороша.



**EN** Good is that has endured evil, He knows best what.

**UZ** (Yomonlikni boshidan kechirgan, yaxshilikning qadriga ko'proq yetar.)

Non qadrini och bilar,

Kiyim qadrini — yalang'och.

**RUS** Не отведав горького, не узнаешь и сладкого.



**EN** Good untill we have lost it, We know not what is.

**UZ** (Yaxshi nimaligini uni yo'qotmaguncha anglamaymiz.)

Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q.

**RUS** Что имеем — не храним, потерявши — плачем.



**EN** Goose, Can't say «bo» to a.

**UZ** (G'ozga «g'a» deyolmaydi.)

Birovning mushigini «pisht» demaydi.

**RUS** И мухи не обидит



**EN** Goose, Cook own.

(O'z g'ozini pishirmoq.)

**UZ** O'z oyog'ingga o'zing bolta urma!

**RUS** Вырыть себе самому яму.

**EN** Goose hangs high, Everything is lovely and the.

**UZ** (Hamma narsa ajoyib va g'oz balandga osib qo'yilgan.)  
Hamirdan qil sug'urgandek.

**RUS** Все идет как по маслу.



**EN** Goose that laid the golden eggs, Kill the.

**UZ** (Oltin tuxum qo'yadigan g'ozni o'ldirmoq.)  
O'zing suv ichadigan quduqqa tupurma.

**RUS** Убить курицу, несущую золотые яйца.



**EN** Gossiping and lying go hand in hand.

**UZ** (G'iybat va yolg'on qo'l ushlab yuradi.)  
G'iybatchining dili kir,  
G'ar-o'g'rining tili bir.

**RUS** По саже хоть гладь, хоть бей — все черно.



**EN** Grain, Against the.

**UZ** (Ipnig to'qimiga qarshi.)  
Aytishsang so'z chiqadi,  
Turtishsang — ko'z.

**RUS** Гладить против шерсти.



**EN** Grain of weat in a bushel of chaff, A.

**UZ** (Bir botmon poholda bittagina bug'doy doni.)  
Arzimaydi g'allasi,  
Kuydiradi shogirdonasi.

**RUS** Гора родила мышь.



**EN** Grandmother to suck eggs, Teach one's.

**UZ** (Buvini tuxum yutishga o'rgatish.)

Ahmoq aql o'rgatar.

**RUS** Курицу яйца не учат.



**EN** Grapes are sour, The.

(Uzum xom.)

**UZ** Mushuk bo'yi yetmasa, «puf sassiq» der.

**RUS** Зелен виноград — когда не дают.



**EN** Grasp all, lose all.

**UZ** (Hamma narsaga yopishgan hammasidan ayrilar.)

Ko'p olarman deb ozdan qolma.

**RUS** За многим погонишься — последнее потеряешь.



**EN** Grasp the nettle and it won't sting you.

**UZ** (Qichitqi o'tni shartta ushlang, u kuydirmas.)

Mard yo'lida g'ov bo'lsa,

Bir hamlada dov bermas.

**RUS** Смелость города берет.



**EN** The grass is /always/ greener on the other side of the fence, The.

**UZ** (Devor ortidagi o't [doim] yashilroq ko'rinadi.)

Qo'shninging tovug'i g'oz ko'rinar,

Kelinchagi — qiz.

**RUS** В чужой каше и зерна крупнее.



- EN** Grass grow under one's feet, Let the.  
**UZ** (Birovning poyi ostidagi o't o'sib chiqsin.)  
 Vaqting ketdi — baxting ketdi.  
**RUS** Обрасти жком.



- EN** Grass grows the horse starves, While the.  
**UZ** (O't o'sib chiqquncha ot harom o'ladi.)  
 Paysalga soladigan saxiydan,  
 Tez javob beradigan baxil yaxshi.  
**RUS** Пока солнце взойдет, роса очи выест.



- EN** Grave, Silent as the.  
**UZ** (Go'r kabi jimjit.)  
 Indamasang, uyday balodan qutulasan.  
**RUS** Нем как рыба.



- EN** Great minds think alike.  
**UZ** (Buyuk allomalar o'xshash fikrlaydi.)  
 Olim aytgani — olam aytgani,  
 Podsho aytgani — yurt aytgani.  
**RUS** Ум городьбой не обгородишь.



- EN** Great ones if there were no little ones, There would be no.  
**UZ** (Birov kichik bo'lmaganida, birov katta bo'lmasdi.)  
 Birov suv topolmaydi ichgani,  
 Birov suv topolmaydi kechgani.  
**RUS** Как гусь, шею не вытягивай — лебедем тебе не быть.



**EN** Great talkers are great liars.

**UZ** (Sergaplar uchiga chiqqan yolg'onchi bo'ladi.)  
Sera'da kishi yolg'onchi bo'lar.

**RUS** Как станет врать, так его в два объёма не объять.



**EN** Great talkers are little doers.

**UZ** (Sergaplar kam ish qiladi.)

Gap desang — qop-qop,  
Ish desang — Samarqanddan top.

**RUS** Из лука — не мы, из пищали — не мы, а зубы  
поскалить, язык почесать — против нас не сыскать.



**EN** Great trees are good for nothing but shade.

**UZ** (Katta daraxtlar soyadan boshqa narsaga yaramaydi.)  
Katta daraxtning soyasi ham katta.

**RUS** Не в том сила, что кобыла сива, а в том, что не везет.



**EN** Greater the truth, The/ the greater the libel.

**UZ** (Haqiqat qanchalik ulkan bo'lsa,  
bo'hton ham shunchalik ulkan bo'ladi.)

Da'vogaring xon bo'lsa,  
Arzingni Allohga ay.

**RUS** Какова резва не будь ложь, а от правды не уйдет.



**EN** Greatest hate springs from the greatest love, The.

**UZ** (Eng katta nafrat eng katta sevgidan paydo bo'ladi.)

Muhabbat ketsa, nafrat kelar,  
Nafrat kelsa, muhabbat ketar.

**RUS** Где любовь, там и напасть.

**EN** Greek to me, It is.

**UZ** (Men uchun bu grek tili.)

Bilmaganga bit o'ldirish qiyin.

**RUS** Это для меня китайская грамота.



**EN** Greek meets Greek, When / then comes the tug of war.

**UZ** (Grek bilan grek uchrashsa, urush mojarosi boshlanadi.)

Donxonada sichqon chiqisholmas.

**RUS** Нашла коса на камень.



**EN** Grin and bear it.

**UZ** (Tirjayib [qiyinchilikni] bildirma.)

Sir boy berding — bosh boy berding.

**RUS** Делать хорошую мину при плохой игре.



**EN** Grist to the mill, To bring.

**UZ** (Tegirmonga don keltirmoq.)

Birov o'lmay, birov kun ko'rmas

**RUS** Жнет, где не сеял, а собирает, где не растил.



**EN** Grist that comes to his mill, All is.

**UZ** (Tegirmoniga keltirgan har narsa ham don bo'laveradi.)

Abjir bo'lsa farzanding, cho'ldan non terar,  
Yalqov bo'lsa farzanding, yerdan don termas.

**RUS** Кому мертвец, а нам товариц  
(говорят попы да гробовщики.)

**EN** Ground, Be on one's own.

**UZ** (O'z yerida turmoq.)

O'z o'rnini bilmagan o'rinsiz qolar.

**RUS** Быть в своей стихии.



**EN** Grudge against smb, Bear a.

**UZ** (Birovga qarshi kek saqlamoq.)

Kek xotinga yarashar.

**RUS** Иметь зуб против кого-либо.



**EN** Guest is never welcome, A constant.

**UZ** (Doimiy mehmon hech qachon xush kelmas.)

Oyda kelganga — oyoq,

Kunda kelganga — tayoq.

**RUS** Частого гостя радушно не встречают.



**EN** Guns speak it is too late to argue, When.

**UZ** (Miltiq tilga kirganda, muzokara uchun kech.)

Urushning kengashi yo'q.

**RUS** В поле съезжаются, родом не считаются.



**EN** Gutter, Be born in the.


**UZ** (Ariqda tug'ilmoq.)

Yetim o'z kindigini o'zi kesar.

**RUS** Скотины — таракан да жуколица;

посуды — крест да пуговица;

одежи — мешок да рядно.



**EN** Hail fellow well met, To be.

**UZ** (Birovni ko'rganda qadrdonlarcha so'rashgan,  
yaxshi kutib olinadi.)

Qadrlasang, qadring oshar,  
Qadrsizdan hamma qochar.

**RUS** Как аукнется, так и откликнется.



**EN** Hairs to the grave, Bring smb.'s gray.

**UZ** (Birovning oq sochini go'rga yetkazmoq.)

O'lgandan xo'rlangan yomon.

**RUS** Напрасливый чужой век заедает.



**EN** Hair about the heels.

**UZ** (Baqay ustidagi soch [otlarda yomon nasl belgisi].)

Yaxshi qiz erta turib soch tarar,  
Yomon qiz erta turib non so'rar.

**RUS** И космат, а не медведь.





**EN** Hair of the dog that bit you, Take a.  
**UZ** (Seni tishlagan itning yungini ol  
 [qadimgi udumga ko'ra quturgan itning qopgan joyiga  
 uning yungini qo'yish yaxshi davo hisoblangan].)  
 Joningni olmagan kasal yoningda bo'lsin.  
**RUS** Чем ушибся, тем и лечись.



**EN** Hair and short wit, Long.  
**UZ** (Sochi uzun, aqli kalta.)  
 Aqli boshda soch turmas.  
**RUS** Борода с локоток, в ума с ноготок.



**EN** Half a loaf is better than no bread.  
**UZ** (Umuman yo'q nondan yarimta kulcha afzal.)  
 Yo'qni quvib, bordan ajralma.  
**RUS** Лучше хоть что-нибудь, чем ничего.



**EN** Half is more than the whole, The.  
**UZ** (Yarmisi butunidan ko'proq.)  
 Oz oshagan moy oshar,  
 Ko'p oshagan loy oshar.  
**RUS** Лучше меньше, да лучше.



**EN** Half the world knows not how the other half lives.  
**UZ** (Dunyoning yarmi ikkinchi yarmi qanday  
 yashashidan bexabar.)  
 Boy boyga boqar,  
 Suv soyga oqar.  
**RUS** Богатый никого не помнит — только себя помнит.

**EN** Half, One's better.

**UZ** (Birovning go'zal yarmi.)

Xotin — uga bezak, erga — ko'mak.

**RUS** Своя жена — своя и краса.



**EN** Half-seas over, To be.

**UZ** (Dengizdan yarmi ko'tarilib turibdi.)

Mastga xon yo'l beribdi.

**RUS** Пьяному море по колено.



**EN** Halves, Never do things by.

**UZ** (Hech qachon biron narsani yarmiga qilma.)

Chalasavodning tagidan chirigi chiqar.

**RUS** По-церковному, запел, да на плясовую свел.



**EN** Hamlet without the Prince of Denmark.

**UZ** (Daniyalik shaxzodasi yo'q Gamlet.)

Ma'ni yo'q gap — doni yo'q cho'p.

**RUS** Хороши были волосы, да отрубили голову.



**EN** Hammer and anvil, Between.

**UZ** (Bolg'a bilan sandon orasida.)

Osmon — yiroq, yer — qattiq.

**RUS** Поди-ка ко мне в ступу, я тебя пестом приглажу.



**EN** Hand that feeds one, Bite the.

**UZ** (Boqayotgan qo'lni tishlamoq.)

Ko'r bo'lsang ham, ko'rnamak bo'lma

**RUS** И собака на того не лает, чей хлеб ест.



**EN** Hand and a warm heart, A cold.

**UZ** (Sovuq qo'l va issiq yurak.)

Sovug'ing oshsa — davlatdir,

Issig'ing oshsa — qiyomatdir.

**RUS** Держи голову в холоде, живот в голоде,  
а ноги в тепле.



**EN** Hand at smth., A crack.

**UZ** (Zo'r qo'l egasi.)

Hunarli qo'l och qolmas.

**RUS** Золотые руки



**EN** Hand at smth., A bad.

**UZ** (Yomon qo'l egasi.)

Qo'li hunarsiz — non gadoyi.

**RUS** У него работа в руках плесневеет.



**EN** Hand is no lure for a hawk, An empty

**UZ** (Bo'sh qo'lga qirg'iy ham qo'nmaydi.)

Quruq qo'lga qush qo'nmas.

**RUS** Сухая ложка рот дерет.



**EN** Hand of friendship to smb., Extend a.

**UZ** (Birovga do'stlik qo'lini uzatmoq.)

Qo'lingdan kelsa, qo'lla,  
Qo'lingdan kelmasa, yo'lla.

**RUS** Ради милого дружка и сережка из ушка.



**EN** Hand and glove.

**UZ** (Qo'l va qo'lqop.)

Sigirning shoxiga ursang, tuyog'i zirqirar.

**RUS** Куда лиса, туда и хвост.



**EN** Hand, Have smb.'s fate in one's.

**UZ** (Birovning taqdirini qo'lda ushlamoq.)

Taqdirim deb o'ylama,  
Qismat o'lchog'i qo'lda.

**RUS** Быть делу так, как пометил дьяк.



**EN** Hand on, Keep a firm.

**UZ** (Qo'l bilan qattiq ushlamoq.)

Zo'r-zo'rni ko'rganda bo'ynini qisar.

**RUS** Держать в ежовых рукавицах.



**EN** Hands, Many/ make light work.

**UZ** (Ko'p qo'l ishni yengillashtiradi.)

Qo'llashib ko'targan yuk yengil.

**RUS** Когда рук много, работа спорится.



**EN** Hand, Many kiss the/ they wish cut off.

**UZ** (Ko'plar chopib tashlamoqchi bo'lgan qo'lni o'padi.)  
Ehtiyoj sherni tulkiga aylantirar.

**RUS** Ноги целует, а головы ищет.



**EN** Handful of good life is better than a bushel of learning, A.

**UZ** (Biroz yaxshi hayot bir [bushel] botmon bilimdan afzal.)  
Qorni to'qning qayg'usi yo'q.

**RUS** Всяк хлопочет, себе добра хочет.



**EN** Hand does, Not to let one's left hand know  
what one's right.

**UZ** (Chap qo'l nima qilayotganini o'ng qo'ling bilmasin.)  
O'ng qo'ling bersin,  
Chap qo'ling bilmasin.

**RUS** ,Сделав добро, не помни.



**EN** Hand, An old.

**UZ** (Qari qo'l.)

Qari ot ko'p yo'l bosar.

**RUS** Старый конь борозды не портит.



**EN** Hand washes another, One.

**UZ** (Bir qo'l ikkinchisini yuvadi.)

Qo'l qo'lni yuvar.

**RUS** Рука руку моет



**EN** Hand, An open.  
(Ochiq qo'l.)

**UZ** Qo'li ochiqning yo'li ochiq.

**RUS** Делать добро поспешай.



**EN** Hand for all it is worth, Play one's.

**UZ** (Bironning qo'lida [kartada] borini bilmoq.)

Tavakkalni toshga ur, baxtingdan ko'r.

**RUS** Все поставить на одну карту.



**EN** Hand between the bark and the tree, Put not your.

**UZ** (Qo'lingni daraxt bilan po'stlog'i orasiga tiqma.)

Er-u xotin urishar,

Nodon o'rtaga tushar.

**RUS** Свои собаки грызутся, чужая не приставай.



**EN** Hands of smb., Wash one's.

**UZ** (Birov [qismati]dan qo'l yuvmoq.)

Nomarddan najot kutma,

Itidan - hojat.

**RUS** Умыть руки.



**EN** Handsome is that handsome does.

**UZ** (Ishi go'zal odam, o'zi ham go'zaldir.)

Ishing bo'lsa sharofat,

Hech ko'rmaysan kasofat.

**RUS** Человека дела красят.

**EN** Handsome at twenty, He that is not / not strong  
at thirty, nor rich at forty, nor wise at fifty,  
will never be handsome,  
strong, rich or wise.

**UZ** (20 yoshida hushbichim bo'lmagan, 30 yoshida kuchli  
bo'lmagan, 40 yoshida boy bo'lmagan, 50 yoshida dono  
bo'lmagan odam hech qachon hushbichim, kuchli, boy  
yoki dono bo'lmaydi.)

Bo'ladigan bola boshidan ma'lum.

**RUS** Не спрашивай старого, спрашивай бывалого.



**EN** Hang one's harps on the willows.

**UZ** (Arfani majnuntolga osib qo'ymoq.)

O'ynab-kulgin yigitdek,  
Siqilmagin chigitdek.

**RUS** Резвился-веселился, да в яму свалился.



**EN** Hanged for a sheep as a lamb, As good be.

**UZ** (Qo'zichoq deb dorga osilguncha, qo'y uchun  
osilmoq afzal [qadimgi ingliz qonuniga ko'ra  
qo'y o'g'irlaganning jazosi — dorga osish edi].)

O'g'irlik solsang qo'yingga,  
Sirtmoq tushar bo'yingga.

**RUS** Дай вору воробья прокормить,  
без гуся и за стол не сядет.





**EN** Hanging and wiving go by destiny.

**UZ** (Dorga osilmoq va uylanish taqdirdan.)

Taqdirning balosi ko'p,  
Saqlasa panosi ko'p.

**RUS** Смерть да жена — богом суждена.



**EN** Happiness takes no account of time.

**UZ** (Bahtiyorlar vaqtga qaramas.)

Baxtlilar vaqtini kutmas.

**RUS** Счастливый человек всегда немного глух и слеп.



**EN** Happy is he that is happy in his children.

**UZ** (Bolalarida baxtli odam baxtiyordir.)

Farzand baxti — o'qa taxti,  
Farzand kamoli — o'ta jamoli.

**RUS** Детки хороши — отцу, матери венец,  
худы — отцу, матери конец.



**EN** Hard as a Flint /stone/,As.

**UZ** (Chaqmoq toshdek qattiq.)

Tosh yurak tog'ni talqon qilari.

**RUS** Тароват как кремьнь: обухом не ударишь,  
искры не увидишь.







**EN** Hard cases make bad law.

**UZ** (Mushkul vaziyatlar yomon qonun yaratadi.)  
Qiyindan qochma, yo'ldan adashma.

**RUS** Семь бед — один ответ.



**EN** Hard nut to crack, A.

**UZ** (Qattiq yong'oq qarsillar.)  
Og'ir karvon og'ir ko'char.

**RUS** Нашла коса на камень.



**EN** Hare, First catch your/ then cook it.

**UZ** (Oldin quyonna tutib ol, keyin uni qovur.)  
Avval otingni taqala,  
Keyin yo'l tanla.

**RUS** Не говори «гоп», пока не перепрыгнешь.



**EN** Hares may pull dead lions by the beard.

**UZ** (O'lik sherning soqolini quyonlar ham tortishi mumkin.)  
Qo'rqoqning odati — maqtanmoq.

**RUS** Молодец среди овец



**EN** Hares, If you run after two / you will catch neither.

**UZ** (Agar ikki quyonning ketidan quvlasang, bittasini ham tutolmaysan.)

Ikki quyonna quvlagan birini ham tutolmas.

**RUS** За двумя зайцами погонишься, ни одного не поймаешь.

- EN** Hare and hunt with the hounds, Run with the.  
**UZ** (Tozi itlar bilan ham quyon, ham ovchi tomonida yugurmoq.)  
 Ikki tarvuz bir qo'ltiqqa sig'mas.  
**RUS** Служить и нашим и вашим



- EN** Harness, Pull together in double.  
**UZ** (Qo'shaloq bo'lib hamjihatlikda ishlamoq.)  
 Hamjihatlik-davlat,  
 Yolg'izlik-kulfat.  
**RUS** Кабы волк заодно с собакой, так бы человеку и житья не было.



- EN** Haste makes waste.  
**UZ** (Shoshqaloqlik zarar keltirar.)  
 Shoshqaloq to'g'ramchi qo'lini kesar.  
**RUS** Поспешишь — людей насмешишь.



- EN** Haste slowly, Make.  
**UZ** (Sekinroq shoshgin.)  
 Shoshmagan arava quyonga yetar.  
**RUS** Тише едешь, дальше будешь.



- EN** Haste, Marry in / and repent at leisure.  
**UZ** (Shoshib uylangan, bafurja afsuslanar.)  
 Shoshgan pashsha sutga tushar.  
**RUS** Женился на скорую руку, да на долгую муку.



**EN** Hasty climbers have sudden falls.

**UZ** (Shoshib ko'tariluvchilar to'satdan yiqiladi.)

Shoshding, jarga qulading,  
Shoshmading, niyatga yetding.

**RUS** Кто на слова скор, тот в делах редко спор.



**EN** Hat covers his family, His.

**UZ** (Uning oilasi qalpog'i ostiga sig'adi.)

Bo'ydoqning bo'ynini bit yer,  
Topgan-tutganini bit yer.

**RUS** Живет один, как божедом.



**EN** Hat, I'll eat my.

**UZ** (O'z telpagimni yeiman.)

Yolg'onchining guvohi qasam.

**RUS** Голову даю на отсечение.



**EN** Hat in the air, Throw one's.

**UZ** (Qalpoqni osmonga otmoq.)

O'ynab-kulgin yigitdek,  
Siqilmagin chigitdek.

**RUS** И в воздух чепчики бросали.



**EN** Hatred is blind, as well as love.

**UZ** (Muhabbat singari nafrat ham ko'rdir.)

Rashkning ko'zi ko'r.

**RUS** Как себя не поведешь, от напраслины не уйдешь.



**EN** Haul over the coals, To.

**UZ** (Ko'mir ustidan sudrab o'tmoq.)

Qilmish — qidirmish.

**RUS** Палка нема, а даст ума.



**EN** Hawks will not pick hawk's eyes out.

**UZ** (Qirg'iy qirg'iyning ko'zini cho'qimaydi.)

Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimas.

**RUS** Ворон ворону глаз не выклюет.



**EN** Hawk from a handsaw, Know a.

**UZ** (Qirg'iy bilan arra orasidagi farqni bilmoq.)

O'zini bilmasang ham, otini bil.

**RUS** Уметь отличить кукушку от ястреба.



**EN** Hay while the sun shines, Make.

**UZ** (Quyosh nur sochganda pichanni o'rib ol.)

Kin ishini tun o'yla.

**RUS** Коси коса, пока роса.



**EN** Head, He that hath no / needs no hat.

**UZ** (Boshi yo'qqa telpak kerak emas.)

Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar.

**RUS** Снесши голову, по волосам не плачут.



**EN** Hare, Timid as a.

**UZ** (Quyondek jur'atsiz.)

Quyون o'z ko'lankasidan ham qo'rqar.

**RUS** Труслив как заяц.



**EN** Head against a brick wall, Batter one's.

**UZ** (Boshini g'isht devorga urib yormoq.)

Ajali yetgan sichqon

Mushukka g'amza qilar.

**RUS** Не дразни собаку, так и не укусит.



**EN** Head like a sieve, Have a.

**UZ** (G'alvirga o'xshash bosh egasi.)

Esi pastning ishi past.

**RUS** Голова как решето.



**EN** Head on young shoulders, Have an old.

**UZ** (Yosh yelkada qari boshga ega bo'lmoq.)

Aql yoshda emas, boshda.

**RUS** Ум не в годах, а в голове.



**EN** Head in the air, Go about with one's.

**UZ** (Boshini osmonga ko'tarib yormoq.)

Kekkayish terakka yarashar.

**RUS** Не закидывай головы, споткнешься.



- EN** Heads I win, tails you lose.  
**UZ** (Boshlarini men yutdim, dumlarini sen yutqazding.)  
 Foyda bilan zarar bir hurjunning ko'zida.  
**RUS** Торгуешь — хаешь; купишь — похвалишь.



- EN** Heads are better than one, Two.  
**UZ** (Ikkita bosh bittasidan afzal.)  
 Bir kalla — kalla,  
 Ikki kalla — tilla.  
**RUS** Ум хорошо, а два лучше.



- EN** Headache, Be as good as a.  
**UZ** (Bosh og'rig'iday yaxshi.)  
 Befahmning dardi — o'ziga yuk.  
**RUS** Нужно как собаке пятая нога.



- EN** Health is better than wealth.  
**UZ** (Sog'liq boylikdan afzal.)  
 Salomatlik — tuman boylik.  
**RUS** Здоровье дороже денег.



- EN** Health is not valued till sickness come.  
**UZ** (Dard kelmaguncha sog'liqning qadri yo'q.)  
 Dard kelar, dard ketar,  
 Jon qadrini anglatar.  
**RUS** Тот здоровья не знает, кто болен не бывает.

**EN** Healthy mind in a healthy body.

**UZ** (Sog' aql sog' tanda.)

Sog' tanda sog'lom aql.

**RUS** В здоровом теле здоровый дух.



**EN** Heap coals of fire on smb.'s head, To.

**UZ** (Birovning boshi uzra ko'mir cho'g'larini sochmoq.)

Uyat o'limdan qattiq.

**RUS** Правый суд не остуда.



**EN** Hear much, speak little.

**UZ** (Ko'proq tingla, kamroq gapir.)

Og'zingni ochguncha, ko'zingni och.

**RUS** Веревка хороша длинная, а речь короткая.



**EN** Hear all parties.

**UZ** (Hamma tarablarni tinglamoq.)

Avvak kuzat, keyin tuzat.

**RUS** Суд не на осуд, а на рассуд.



**EN** Hear twice before you speak once.

**UZ** (Bir marta javob berguncha, ikki marta tingla.)

Avval o'yla, keyin so'yla.

**RUS** Семь раз отмерь — один раз отрежь.



**EN** Heard a pin drop, You might have.

**UZ** (Tomchining [chakillashini] eshitishingiz mumkin edi.)

Sukutda hikmat ko'p,

Bulutda — himmat.

**RUS** Слышно было, как муха летит.



**EN** Have one's heart is one's foot.

**UZ** (Yuragi oyog'iga tushib ketdi.)

Qo'rqoq o'lmasdan burun o'lar.

**RUS** Душа ушла в пятки.



**EN** Heart knows its own bitterness, Every.

**UZ** (Har bir yurak o'zining dardini o'zi biladi.)

Har kimning bog'i bor,

Yuragida dog'i bor.

**RUS** У каждого свои горести.



**EN** Heart that once truly loves never forgets, The.

**UZ** (Bir marta bo'lsada chin sevgini tatigan yurak,  
uni sira unutmas.)

Muhabbat — dilning mevasi.

**RUS** Старая любовь не ржавеет.



**EN** Heart that never rejoices, It is a poor.

**UZ** (Hech shod bo'lmagan yurak qashshoqdir.)

O'limdan achchiq narsa yo'q,

Shodlikdan ortiq boylik yo'q.

**RUS** Ржа железо ест, а печаль — сердце.





**EN** Hearts are more than coronets, Kind.

**UZ** (Mehribon yuraklar tojlardan a'lo.)

Mehr — gul, qahr — tikan.

**RUS** Милость над грехом, что вода над огнем.



**EN** Heart thinks the tongue speaks, What the.

**UZ** (Nimani yurak o'ylasa, til shuni so'zlaydi.)

Azaga borgan xotin o'z dardini aytib yig'lar.

**RUS** У кого что болит, тот о том и говорит.



**EN** Heavy purse makes a light heart, A.

**UZ** (Og'ir hamyon yurakni yengil qilar.)

Borida — kuldiring-kuldiring,

Yo'g'ida qarab o'tiring.

**RUS** Богатому завсе праздник.



**EN** Hedge between keeps friendship green, A.

**UZ** (Oradagi buta devor do'stlikni kuchaytiradi [ko'kartiradi].)

Do'stlik sinovdan chiniqar.

**RUS** Не изведен — друг; а изведен — два.



**EN** Hell has no fury like a woman scorned.

**UZ** (Tashlab ketilgan ayolga teng keladigan ajina [qasos olish borasida] jahannamda ham yo'q.)

Xotin avjyidi, el aljyidi.

**RUS** Где сатана не сможет, туда бабу пошлет.

**EN** Hell is paved with good intentions, The road to.

**UZ** (Jahannamga olib boruvchi yo'lda  
yaxshi niyatlar poyondoz.)

Yomon yo'ldan yurgan tuya yo'lda cho'kar.)

**RUS** Дорога в ад вымощена благими намерениями.



**EN** Hell freezes, When.

**UZ** (Jahannam muzlaganda.)

Tuyaning dumi yerga tekkanda.

**RUS** Когда рак на горе свистнет.



**EN** Hell and Chancery are always open.

**UZ** (Jahannam va qozixonaning eshigi doim ochiq.)

Qoziga bolta berma, pora ber.

**RUS** Судиться — не богу молиться:  
поклоном не отделаешься.



**EN** Helve after the hatchet, Throw the.

**UZ** (Boltaning ortidan dastasini uloqtirmoq.)

Tavakkal andisha bilmas.

**RUS** Весело гулять, коли нечего загонять.



**EN** Hen with one chick, As a.

**UZ** (Bitta jo'jali tovuq singari.)

Hovliqqanga sichqon teshigi ming tanga.

**RUS** Носиться как курица с яйцом.



**EN** Hen on a hot girdle, Like a.

**UZ** (Issiq qumda turgan tovuq singari.)

Olovning tishi yo'q,  
Ho'l-quruq bilan ishi yo'q.

**RUS** Живет, что в печи.



**EN** Herb will cure love, No.

**UZ** (Muhabbatni davolashga qodir dori yo'q.)

Hamma dardga bor davo,  
Sevgi dardi — bedavo.

**RUS** Любовь не пожар, а загориться — не потушишь.



**EN** Here to-day and gone to-morrow.

**UZ** (Bugun bu yerda, ertaga o'zga yerda.)

Qo'nimi yo'qning unumi yo'q.

**RUS** Перелетная птица.



**EN** Hesitates is lost, He who.

**UZ** (Ikkilangan yutqazar.)

O'ychi o'yiga yetguncha,  
Tavakkalchi suvdan o'tar.

**RUS** Промедление смерти подобно.



**EN** Higher up, The/ the greater the fall.

**UZ** (Balandroqqa chiqqan, qattiqroq yiqilar.)

Manmanga — zavor, yomonga — ajal.

**RUS** Летала высоко, а села недалеко.



**EN** History repeats itself.

**UZ** (Tarix o'zini qaytaryapti.)

O'tgan kuningni unutma,  
Xom chorig'ingni quritma.

**RUS** История повторяется.



**EN** Hit or miss.

**UZ** (Yo shuhrat, yo kulfat.)

Yo dong'ing chiqsin, yo changing.

**RUS** Пан или пропал.



**EN** Hit the nail on the head, To.

**UZ** (Mixning boshini poylab urmoq.)

Ishbilarmon dehqonning ketmoni yerning tanobini uzar.

**RUS** Не в бровь, а в глаз.



**EN** Hitch, Without a.

**UZ** (Bironta ilgaksiz.)

Suvdagi kemandi izi bilinmas.

**RUS** Без сучка без задоринки.



**EN** Hog in armour, A.

**UZ** (Sovut kiygan cho'chqa.)

Eshakka atlas to'qim yopsang ham, baribir eshak.

**RUS** Идет как корове седло.



**EN** Hoist with his own petard.

**UZ** (O'z tuzog'iga ilingan.)

Yoqma — pisharsan,

Qazma — tusharsan.

**RUS** Не копай другому ямы: сам в неё свалишься.



**EN** Hold a candle to the devil, To.

**UZ** (Shaytonga shamchiroq tutmoq.)

Yomon baliq suv loyqatar.

**RUS** Кто злым попускает, сам зло творит.



**EN** Holiday, A Roman.

**UZ** (Rimliklar bayrami [qadimgi Rimda bayram kuni gladiatorlar bir-birini o'ldirguncha kurashgan].)

Kimga — to'y, kimga — aza.

**RUS** Кому — вилы в бок, кому — хлеба кусок.



**EN** Homer sometimes nods.

**UZ** (Gomer ham ba'zan mudrab qoladi.)

Xatosiz mergan bo'lmas.

**RUS** На всякого мудреца довольно простоты.



**EN** Honesty is the best policy.

**UZ** (Halollik eng yaxshi siyosatdir.)

Halol mehnat — yaxshi odat,

Berur senga saodat.

**RUS** Простота да чистота — половина спасенья.

**EN** Honest man's word is as good as his bond, An.

**UZ** (Rostgo'y kishining so'zi uning shartnomasidek yaroqli.)

Rost gap — haq gap,

Haq gap — naqd gap.

**RUS** Кто правдой живет, тот добро наживет.



**EN** Honest men merry soon, wise ones not at all.

**UZ** (Halol erkaklar erta uylanadi,  
aqllilari umuman uylanmaydi.)

Yigit bo'lsang, sho'x bo'l,

Sho'x bo'lmasang, yo'q bo'l.

**RUS** Наперед перебеситься, а там и жениться.



**EN** Honey is not for the ass's mouth.

**UZ** (Asal eshakning og'zi uchin emas.)

Bolni bol deydi,

Bolni bilgan yeydi.

**RUS** Понимает как свинья в апельсинах.



**EN** Honey is sweet, but the bee stings.

**UZ** (Asal shirin, ammo asalari chaqadi.)

Bol bor yerda bolari bor.

**RUS** Где пчелы, там и мед.



■ Honeymoon is over, The.

■ (Asal oyi tugadi.)

Bahmal kiydim — egnimda yoʻq,

Palov yedim — ogʻzimda yoʻq.

■ Не все коту масленица.



■ Honour and profit lie not in one sack.

■ (Halollik va foyda bir qopda yotmaydi.)

Foydasi yoʻq farishtadan oshna dev yaxshi.

■ Честность и прибыль не сродни.



■ Honour among thieves, There is.

■ (Oʻgʻrilar orasida halollik bor.)

Oʻgʻri oʻgʻriga xolavachcha.

■ Вор вора не обидит.



■ Honours change manners.

■ (Shuxrat qiliqlarni oʻzgartiradi.)

Shuxratparast — hamisha pastkash.

■ Слава меняет людей.



■ Hook or by crook, By.

■ (Yo ilgak bilan, yo ilmoq bilan.)

Yo ezib yengasan, yo kezib.

■ Не мытьем, так катаньем.



**EN** Hoop, Jump through a.

**UZ** (Chambarakdan sakra.)

Birovni qo'lda ul bo'lguncha, o'z uyingda qul bo'l.)

**RUS** Плясать под чужую дудку.



**EN** Hope for the best and prepare for the worst.

**UZ** (Yaxshilikka umid bog'la va yomonlikka tayyor bo'l.)

Yaxshilik — yog'och boshida,

Yomonlik oyoq ostida.

**RUS** Надейся добра, а жди худа.



**EN** Hope is as cheap as despair.

**UZ** (Umid umidsizlikdek arzondir.)

Umid to'rga tortar,

Umidsizlik — go'rga.

**RUS** Много надежды впереди, а смерть на носу.



**EN** Hope deferred maketh the heart sick.

**UZ** (Ushalmagan orzular yurakni o'taydi.)

Umidi yo'qning imoni yo'q.

**RUS** Над кем стряслось, над тем и сбылось.



**EN** Hope is a good breakfast, but a bad supper.

**UZ** (Umid yaxshi nonushta, ammo yomon tushlikdir.)

Umid o'lmas, rizq kamaymas.

**RUS** Болящий ожидает здоровья даже до смерти.



**EN** Hope, If it were not for / the heart would break.

**UZ** (Agarda umidga o'rin bo'lmaganida, yurak yorilardi.)

Umidingni uzma, ko'nglingni buzma.

**RUS** Сердце надеждой живо.



**EN** Horns of a dilemma, Between the.

**UZ** (Muammo shoxlari orasida.)

Osmon — yiroq, yer — qattiq.

**RUS** Между двух огней.



**EN** Horse, Back the wrong.

**UZ** (Xato tanlangan ot orqada qolar.)

Ot bozori — baxt bozori.

**RUS** Кабы на добра коня не спотыкач,  
и цены бы ему не было.



**EN** Horses in the midstream, Change.

**UZ** (Daryo oqimi o'rtasida otlarni almashtirmoq.)

Otning zo'ri qiya oshganda bilinadi.

**RUS** На переправе лошадей не меняют.



**EN** Horse cannot be of a bad colour, A good.

**UZ** (Yaxshi ot yomon tusli bo'lolmaydi.)

Tusi yaxshidan chekinma.

**RUS** Удастся голубец (голубая лошадь),  
не надобен и дубец.



**EN** Horse and half alligator, Half.

**UZ** (Yarmisiga ot, yarmiga timsoh.)

Ot tuz deydi, yigit — qiz.

**RUS** Лошадь, что жернов; все мало корму.



**EN** Horse that never stumbles, It is a good.

**UZ** (Hech qoqilmaydigan ot yaxshidir.)

Otning yaxshisi tizidan ma'lum,

Odamning yaxshisi — so'zidan.

**RUS** Конь без спотычки, корова без передов,  
да закром без убыли.



**EN** Horse while another may not look over a hedge,  
One man may steal a.

**UZ** (Biri otini o'g'irlashi mumkin bo'lganda,  
boshqasi devordan qo'tonga qarolmaydi.)

Beraman degan quliga,

Chiqarib qo'yadi yo'lga.

Olamani degan qulidan,

Tortib oladi qo'lidan.

**RUS** Кому пироги да пышки, а кому желваки да шишки.



**EN** Horse is soon curried, A short.

**UZ** (Bo'yi kalta otini tozalash oson.)

Kaltani maqta, kattani saqla.

**RUS** Большая лошадь хозяину не ко двору:  
травы не достанет.

**EN** Horse to the water, You can take a/ but you cannot make him drink.

**UZ** ( Siz otini suv labiga olib borishingiz mumkin, ammo uni suv ichishga majbur etolmaysiz.)  
Zo'r bilan ochilgan gulning hidi bo'lmas.

**RUS** Не всего можно добиться силой.



**EN** Host in himself, A.

**UZ** (Bir o'zi lashkar.)

Bir yigit — bir elga rizq.

**RUS** Один стоит многих.



**EN** Hostages to fortune, Give.

**UZ** (Omadga omonat bermoq.)

Omadning shishasi temirchining dandonini sindirar.

**RUS** Вверить свою судьбу провидению.



**EN** Hot love is soon cold.

**UZ** (Shahvoniv muhabbat tezda soviydi.)

Bir nafaslik muhabbat,

Boshga keltirar ofat.

**RUS** Миловались долго, да расстались скоро.



**EN** Hour is that before the dawn, The darkest.

**UZ** (Tong otishidan oldin eng qorong'i soat keladi.)

O'ttiziga chidagan

O'ttiz biriga ham chidar.

**RUS** Нет худа без добра.



**EN** Hour in the morning is worth two in the evening, An.

**UZ** (Ertalabki bir soat kechki ikki soatga teng.)

Ertalabki vaqt — naqdgina baxt.

**RUS** Утро вечера мудренее.



**EN** Hour of pain is as long as a day of pleasure, An.

**UZ** (Jahlning bir soati hursandchilikning bir kynidek uzun.)

Jahl bilan qartayasan,

Kulgi bilan yasharasan

**RUS** От радости кудри выются, в печали секутся.



**EN** Hour's sleep before midnight, One / is worth three after.

**UZ** (Yarim tundan oldin bir soat uxlamoq,  
tun oqqandan keyin uch soat uxlashga teng.)

Uyquning tinchi yaxshi,

O'limning — kechi.

**RUS** Лучший сон до полуночи.



**EN** Hour to-day, One / is worth two to-morrow.

**UZ** (Bugungi bir soat ertangi ikki soatga teng.)

Bugungi ishni ertaga qo'yma,

Ertaning ham o'z ishi bor.

**RUS** Откладывай безделье, да не откладывай дела.



**EN** House upon a rock, Build one's.

**UZ** (Uyni qoyaga qurmoq.)

Uyim — sinch,

Ko'nglim — tinch.

**RUS** Купи хоромину житую, а шубу шитую!

**EN** Houses are built to live in, and not to look on.

**UZ** (Uylar ko's-ko'z qilish uchunmas,  
ular da yashash uchun quriladi.)

Uying kapa bo'lsa ham,  
Noning katta bo'lsin.

**RUS** Хотя худ дом, да крыша крепка.



**EN** House upon the sand, Build one's.

**UZ** (Qum ustiga uy qurmoq.)

Puch yong'oq bilan qo'yin to'lg'azmoq.

**RUS** Воздушные замки.



**EN** House-tops, Cry from the.

**UZ** (Uyning tomidan qichqirmoq.)

Uyga kelganga uydek o'pkangni aytna.

**RUS** Выносить сор из избы.



**EN** House to get rid of the mice, Burn one's.

**UZ** (Sichqonni haydash uchun o'z uyini yondirmoq.)

Burgaga achchiq qilib, ko'rraga o't qo'yimoq.

**RUS** Свой нос резать — свое лицо бесчестить.



**EN** House that hanged himself, Name not a halter in his.

**UZ** (O'zini osib o'ldirganning uyida arqon nomi tilga olinmas.)

Andishaning otini qo'rqqoq qo'yma.

**RUS** В доме повешенного не говорят о веревке.



**EN** House in order, Put one's.

**UZ** (O'z uyida tartib o'rnatmoq.)

O'z uyin yoritmagan chiroq, o'zganikida mash'al bo'lmas.

**RUS** Не дом хозяина красит, а хозяин дом.



**EN** Human, To err is.

**UZ** (Xato qilmoq insonga oid.)

Benuqson-Parvardigor.

**RUS** Человек не без греха.



**EN** Hunger breaks stone walls.

**UZ** (Ochlik yosh devorni buzadi.)

Och o'zini o'tga urar.

**RUS** Голод не тетка.



**EN** Hunger is the best sauce.

**UZ** (Ochlik eng yaxshi ziravordir.)

Och qolib yegan so'ng,

Zog'ora non ham qand bo'lar.

**RUS** Голод — лучший повар.



**EN** Husband makes a good wife, A good.

**UZ** (Yaxshi er yaxshi xotinni yaratadi.)

Xotining yomon bo'lsa, ayb o'zingda.

**RUS** У умного мужа и глупая жена досужа.



**EN** Husk from the grain, Separate the.


**UZ** (Donni kurmakdan ajratmoq.)

Yaxshini bil o'zidan,

Yomonni bil ko'zidan.

**RUS** Отделить зерна от плевел.





- EN** Idle that might be better employed, He is.  
**UZ** (Unumliroq ishlatish mumkin bo'lgan dangasa.)  
 Dangasaning g'ayrati ish bitganda qo'zir.  
**RUS** Хорошо ленивого за смертью посылать.



- EN** Idleness is the holiday of fools.  
**UZ** (Bekorchilik — nodonlarning bayrami.)  
 Bekorchilik — bemazachilik.  
**RUS** Праздность — мать всех пороков.



- EN** Idleness makes the wit rust.  
**UZ** (Bekorchilik miyani zanglatar.)  
 Bekorchidan — bemaza gap.  
**RUS** От лени мхом оброс.



- EN** If Ibs and Ans were pots and pans,  
 There'd be no trade for tinkers.  
**UZ** (Agarda "ogar"lar mis jom va tovoq bo'lganida,  
 misgarlar ishsiz qolardi.)  
 Shaf-shaf degan bilan shaftoli og'izga tushmas.  
**RUS** Кабы ты была пила, то ты была бы железная.





**EN** If there were no clouds, we should not enjoy the sun.

**UZ** (Agar bulutlar bo'lmaganda,  
quyoshning qadriga yetmasdik.)

Ari chaqdi deb arazlama, boli bor.

**RUS** Любишь смородину, люби и оскомину.



**EN** If we can't do as we would we must do as we can.

**UZ** (Agarda biz xohlaganimizni qilolmasak,  
qo'limizdan kelganini qilishimiz kerak.)

Topgan qo'y keltirar,

Topmagan — jo'jaho'roz.

**RUS** Не деньги богатство, а бережливость да разум.



**EN** If you can't have the best,  
make the best of what you have.

**UZ** (Agarda yaxshisiga ega bo'lmasang,  
qo'lingda borini yaxshilab ishlat.)

Bor — boricha, yo'q — holicha.

**RUS** Чем богаты, тем и рады.



**EN** If you touch pot, you must touch penny.

**UZ** (Agar xumni qo'lga olsang,  
pulni ham qo'lga olishga majbursan.)  
Tekinga mushik ham oftobga chiqmaydi.

**RUS** Даром ничего не даётся.



**EN** If you want a thing well done, do it yourself.

**UZ** (Yaxshi qilingan narsa xohlasang, o'zing qil.)

O'zimning ishimga ho'kizman.

**RUS** Свой глаз — алмаз.



**EN** Ignorance is bliss 'tis folly to be wise, Where.

**UZ** (Nodonlik foydali joyda, dono bo'lish noo'rin.)

Bilaman dedim — tutildim.

Bilmayman dedim — qutuldim.

**RUS** Знать не знаешь, так и вины нет.



**EN** Ignorance of the law excuses no man.

**UZ** (Qonunni bilmaslik hech kimni oqlamaydi.)

Gunohiga yarasha — jazosi.

**RUS** Незнание закона не может служить оправданием.



**EN** Ill doers are ill thinkers.

**UZ** (Chala o'ylaydiganlar ishni chala bajaradi.)

O'ylab qilingan ish — bitar,

O'yamay qilingan ish — yitar.

**RUS** Не тот глуп, кто на слова скуп,  
а тот глуп, кто на деле туп.



EN Ill gotten, ill spent.

UZ (Yomonlik bilan topilgan yomonlikka ketar.)  
Haromdan kelgan haromga ketar.

RUS В аду не быть — богатства не нажить.



EN Ill news comes too soon.

UZ (Yomon xabar tezda yetib keladi.)  
Yomon xabar tez yetishar.

RUS Худые вести не лежат на месте.



EN Ill weeds grow apace.

UZ (Yomon urug' tez unadi.)

Bemaza qovunning urug'i ko'r.

RUS Дурная трава в рост идет.



EN Ill wind that blows nobody good, It is an.

UZ (Yomon shamol hech kimga yaxshilik keltirmas.)  
Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r.

RUS Ветер горы разрушает, слово народы подымает.



EN In at one ear and out at the other.

UZ (Bir qulog'iga kirib, ikkinchisidan chiqadi.)  
Eshitmas quloq elni buzar.

RUS А Васька слушает, да ест.



**EN** In for a penny, in for a pound.

**UZ** (Tiyinniki-tiyinda, so'mniki-so'mda.)

Tiyin, tiyinning ishi qiyin.

**RUS** Назвался груздем, полезай в кузов.



**EN** Invention breeds invention.

**UZ** (Topqirlik topqirlikni yaratadi.

Bilimlining bilimi yuqar,

Bilimsizning nimasi yuqar.

**RUS** От умного научишься, от глупого разучишься.



**EN** Inch, Give smb. an/and he will take a mile.

**UZ** (Birovga duym/2.5 sm./ bersang, bir milyani /1609m./ oladi.)

Betamiz mehmon mezbonni qistar.

**RUS** Дай ему палец, он и всю руку отхватит.



**EN** Inch breaks no square, An.

**UZ** (Duym maydonni buzmas.)

Kamlikning kamoli bor.

**RUS** Не всякое лыко в строку.



**EN** Inch is as good as an ell, An.

**UZ** (Ba'zan duym el [113sm]dan afzal.)

Kichigi – chaqmoq, kattasi – ahmoq.

**RUS** Мал золотник, да дорог.

- EN** Innocent as a babe unborn.  
**UZ** (Tug'ilmagan chaqaloqdek pokiza.)  
 Toza qalbdagi dog' bo'lmas.  
**RUS** Простота да чистота — половина спасенья.



- EN** Insult to injury, To add.  
**UZ** (Xafa bo'lganni haqoratlamog.)  
 O'lganning ustiga tepgan.  
**RUS** Кто кого сломит, тот того и топчет.



- EN** Iron entered his soul, The.  
**UZ** (Ruhiga temir kirgan.)  
 Temirni zang yemirar,  
 Odamni — g'am.  
**RUS** Железо ржа поедает, а сердце печаль изнуряет.



- EN** Iron hand in a velvet glove, An.  
**UZ** (Duxoba qo'lqopdagi temir qo'l.)  
 Yuvosh it hurmay tishlar.  
**RUS** Мягко стелет, да жестко спать.



- EN** Irons in the fire To have many.  
**UZ** (Olov ustiga ko'p temir qo'yumoq.)  
 Ish buyurdim olti tozga,  
 Olti toz qo'ydi yozga.  
**RUS** Работы без заботы нет, а забота и без работы живет.

**EN** Iron, Strike while the / is hot.

**UZ** (Temirni issig'ida bos.)

Temirni qizig'ida ur,  
Tandirni qizig'ida bos.

**RUS** Куй железо пока горячо.



**EN** It is always in season for old man to learn.

**UZ** (Qarilarga o'qish uchun doim mavsum [har vaqt].)

O'qishning erta-kechi yo'q.

**RUS** Науче учиться старости нет.



**EN** It is an equal failing to trust everybody and  
to trust nobody.

**UZ** (Hammaga ishongan va hech kimga ishonmaslik  
bir xil xatodir.)

Har kimning bo'yiga qarab to'n bich.

**RUS** По Сеньке и шапка.



**EN** It is an ill bird that fouls its own nest.

**UZ** (Kasal qush o'z uyasini bulg'aydi.)

Suvni ich, chashmani bulg'atma.

**RUS** Не плюй в колодец — может пригодится  
из него воды напиться.



**EN** It is double pleasure to deceive the deceiver.

**UZ** (Aldoqchini aldash ikki karra rohatli.)

O'g'rini qaroqchi urdi.

**RUS** Напоролся плут на мошенника.



**EN** It is easy to swim if another holds your head.

**UZ** (Agar boshingizni birov ushlasa, suzish oson.)

Ahil ishlasang ish bitar,

Har mushkul oson bo'lar.

**RUS** И комар лошадь свалит, коли волк пособит.



**EN** It is no use crying over spilt milk.

**UZ** (Toshib ketgan sut ustida yig'lashdan foyda yo'q.)

Yig'lagan bilan o'lik tirilmas,

Yamagan bilan churik tikilmas.

**RUS** По отрезанным волосам не плачут.



**EN** It is no use pumping a dry well.

**UZ** (Qurigan quduqdan suv chiqarishga urinish befoyda.)

Behuda urinsang poyoni bo'lmas,

O'ylanib qilsang, ziyoni bo'lmas.

**RUS** За мухой не угоняешься с топором.

**EN** It is not a gay coat that makes the gentleman.

**UZ** (Chiroyli to'n odamni oliyjanob qilmas.)

Libosoro bo'lguncha, majlisoro bo'l.

**RUS** Не одежда красит человека.



**EN** It is the last straw that breaks the camel's back.

**UZ** (So'nggi tomchi tuyaning belini sindirar.)

Tuya elakka kelganda oqsar.

**RUS** Последняя капля переполняет чашу.



**EN** It's a poor heart that never rejoices.

**UZ** (Hursand bo'la olmaydigan yurak kambag'aldir.)

Kulmaganga kulmasang, ko'ngli qolar.

**RUS** Кто в радости живет, того и кручина неймет.




**EN** It's poor mouse that has only one hole.

**UZ** (Bittagina ini bor sichqon bechoradir.)

Ehtiyoting bo'lsa, ehtiyojning bo'lmas.

**RUS** Скирдой мыши не задавит.





# J

**EN** Jack shall have Jill, All shall be well.

**UZ** (Hammasi yaxshi bo'ladi, Jek Jilga erishadi.)  
Er molsiz bo'lmas,  
Yigit yorsiz.

**RUS** Всякий будь со своею милой.



**EN** Jack has his Jill, Every.

**UZ** (Har bir Jekning o'z Jilli bor.)  
Har kim suygan oshini ichar.

**RUS** У каждого голубка своя горлица.



Jack makes a good Jill, A good.  
(Jek yaxshi bo'lsa, Jill ham yaxshi bo'ladi.)  
Xotinning chiroyi — eridan.

У хорошего мужа и жена хорошая.



**EN** Jack of all trades.

**UZ** (Jek har bir ishga usta.)  
Bir yigitga yetmish hunar oz.

**RUS** Мастер на все руки.



**EN** Jack of all trades and master of none.

**UZ** (Jek hamma hunarga usta va hech birini bilmas.)

Yuz hunarni chala bilgandan,  
Bir hunarni to'la bil.

**RUS** За все браться и ничего толком не уметь.



**EN** Jack of both sides.

**UZ** (Ikki tarafning Jeki.)

Beburdga behisht yo'q,  
Qaytib kelsa do'zax yo'q.

**RUS** Слуга двух господ.



**EN** Jackdaw in peacock's feathers.

**UZ** (Tovus patini ilgan zog'cha.)

Eshak maqtanib tulpor bo'lmas,  
Qarg'a maqtanib shunqor bo'lmas.

**RUS** Ворона в павлиньих перьях.



**EN** Jam tomorrow.

(Murabbo — ertaga.)

**UZ** Ertagi palovdan bugungi atala yaxshi.

**RUS** Завтра — все равно, что вчера.



**EN** Jest than a friend, Better lose a.

**UZ** (Do'stni yo'qotgandan hazilni yo'qotgan afzal.)

Hazil, hazilning tagi zil.

**RUS** Подшучивать над другом — нажить врага.



**EN** Jest, Many a true word is spoken in.

**UZ** (Hazil deb ko'pgina chin gap aytilar.)

Hazil edi, chin bo'ldi,

O'ynash edi, er bo'ldi.

**RUS** В каждой шутке есть доля правды.



**EN** Jest with edged tools.

**UZ** (O'tkir asboblilar bilan o'ynashmoq.)

Olov bilan o'ynashsang, oqibati kuyarsan.

**RUS** Играть с огнем.



**EN** Job, Give smth. up as a bad.

**UZ** (Biron narsani befoyda deb tark etmoq.)

Befoyda kundadan o'tin yaxshi.

**RUS** Махни рукой да ступай домой.



**EN** Job, As patient as.

**UZ** (Job [avliyo] kabi sabrli.)

Sabr tagi — rahmon,

Shoshgan — ishi shayton.

**RUS** Обладающий ангельским терпением.



**EN** Joan is as good as my lady in the dark.

**UZ** (Qorong'ida Joan mening xonimimdek yaxshi.)

Qorong'ining ko'zi ko'r.

**RUS** Ночью все кошки серы.

**EN** Jolly/happy/ as a sandboy, As.

**UZ** (Betashvish boladek baxtiyor.)

G'amsiz oshim, da'vosiz boshim.

**RUS** От радости и старики со старухами помолодели.



**EN** Joys shared with others are more enjoyed.

**UZ** (Birov bilan baham ko'rilgan hursandchilik ko'proq hushyoqar.)

Baxtlik garovi — do'stlik.

**RUS** Счастливым быть — никому не досадить.



**EN** Joys without alloy, No.

**UZ** (Hursandchilik yomon qorishmasiz bo'lmas.)

Gulga boq — tikanni ko'r,

Yorga boq — jafoni ko'r.

**RUS** Нет розы без шипов.



**EN** Judge from appearances, Never.

**UZ** (Tashqi ko'rinishga qarab baholama.)

Tashiga qarama, ichiga qara.

**RUS** Внешность обманчива.





**EN** Juice, Stew in one's own.


**UZ** (O'z sharobida qovrilmoq.)

O'zing pishirgan osh —

Aylanib ich, o'rgilib ich.

**RUS** Сам кашу заварил, сам и расхлебывай





**K**

**EN** Ka me and I'll ka thee.

**UZ** (Sen menga xushomad qil, men senga xushomad qilaman.)  
Sizdan ugina, bizdan bugina.

**RUS** Услуга за услугу, а рука руку моет.



**EN** Keep a thing seven years and you will find a use for it.

**UZ** (Biron narsani yetti yil saqla va uni ishlatishga joy topasan.)  
Saqla somonni, kelar zamoni.

**RUS** Велик сапог — на ногу; мал — под лавкой.



**EN** Keep one's tongue between one's teeth, To.

**UZ** (Tilingni tishing orasida saqla.)  
Til suyaksiz, tish-qal'a, Til yomoni — bir balo.

**RUS** Держи язык за зубами.



**EN** Keep your eyes wide open before marriage  
and hulf shut afterwads.

**UZ** (Ko'zingni uylanishdan oldin katta och,  
uylangandañ keyin esa yarmisiga yop.)  
Xotin olsang, saylab ol, Ixlosingni boylab ol.

**RUS** До свадьбы всё подмечай,  
а после — на многое закрой глаза.

**EN** Keep your mouth shut and you eyes open.

**UZ** (Og'zingni yop, qulog'ingni och.)

Og'zingni ochguncha, ko'zingni och.

**RUS** Слово — не воробей, выпустишь не поймашь.



**EN** Keep your mouth shut and your ears open.

**UZ** (Og'zingni yop, qulog'ingni och.)

Oz so'zla, ko'p tingla.

**RUS** Меньше говори, больше слушай.



**EN** Keeper, Am I my brother's?

**UZ** (Men ukam uchun javobgarmanmi?)

Har kim o'z aravasini o'zi tortar.

**RUS** Всякая сестра себе несла, всяк брат себе рад.



**EN** Keg of gun-powder, Sit on a.

**UZ** (Poroxli bochka ustida o'tirmoq.)

Ajalga davo yo'q,

Yomonga — balo.

**RUS** Жить как на вулкане.



**EN** Kernel must crack the nut, He that will eat the.

**UZ** (Mag'zini yemoqchi bo'lgan, yong'oqni chaqish kerak.)

To'r to'qilmay, baliq tutilmas.

**RUS** Чтобы приготовить яичницу, надо разбить яйцо.





**EN** Kettle of fish, Another.

**UZ** (Baliqli boshqa qozon.)

O'zganing mis qozonidan

O'zingning qora qozoning yaxshi.

**RUS** Это совсем другой коленкор.



**EN** Kettle calls the pot black, The.

**UZ** (Qozon choyqumg'onni "qorasan" der.)

Yirtiq og'iz tirtiq og'izga kulibdi.

**RUS** Горшок котел сажей корил.



**EN** Kicks than halfpence, More.

**UZ** (Sariq chaqasidan tepkisi ko'proq.)

Arzimaydi shavlası,

Kuydiradi g'alvası.

**RUS** Больше неприятностей, чем выгоды.



**EN** Kill not the goose that lays the golden eggs:

**UZ** (Oltin tuxum qo'yadigan g'ozni o'ldirish.)

O'zing suv ichadigan quduqqa tupurma.

**RUS** Не руби сук, на котором сидишь.



**EN** Kill two birds with one stone, To.

**UZ** (Bir tosh bilan ikki qushni urib tushirmoq.)

Ikkovga bir ishton,

Qaytib chiqamiz qishdan.

**RUS** Убить двух зайцев одним ударом.





**EN** Kin than kind, More.

**UZ** (Mehriganisbatan qarindoshligi ustun.)

Bemehr qarindoshdan  
Mehr bilgan yot yaxshi.

**RUS** Хотя родной, да недобрый.



**EN** Kind, Answer in.

**UZ** (Munosib javob qaytarmoq.)

Salomga qarab alik.

**RUS** Отплатить той же монетой.



**EN** Kindness, Kill with.

**UZ** (Ezgu niyatlar bilan o'ldirmoq.)

Parvona -- o'z oshig'ining qurboni.

**RUS** Зацеловать до смерти.



**EN** King for a day.

**UZ** (Bir kunli qirol.)

Yotib qolguncha, otib qol.

**RUS** Калиф на час.



**EN** King can do no wrong, The.

**UZ** (Qirol xato qilishi mumkin emas.)

Holingni hokimga ayt,  
Hokim -- Xudoning elchisi.

**RUS** Правда к Петру и Павлу ушла,  
а кривда по земле пошла

**EN** King's favour is no inheritance, The.

**UZ** (Qirolning xayrxohligi meros emas.)

Ochilib turgan havodan qo'rq,  
Kulib turgan — podshodan.

**RUS** Барская милость — божья роса.



**EN** Kings go mad, and the people suffer for it.

**UZ** (Qirollar aqldan ozsa, xalq jabrini tortar.)

Podsho zolim bo'lsa, yurt to'zar,  
Podsho olim bo'lsa, yurt o'zar.

**RUS** Этот изъян разложить на крестьян.



**EN** Kings have long hands.

**UZ** (Qirolning qo'li uzun.)

Podshoning kuragi uzun.

**RUS** Суди меня Сенат да канат. (При Петре I)



**EN** Kiss, A Judas.

**UZ** (Iudaning o'pkichi [Isoni sotgan].)

Hushomad so'zlagan til  
Yalab-yalab yara etar.

**RUS** Кто много целует, редко не укусит.



**EN** Kiss and be the friends.

**UZ** (O'pgin va do'st bo'lasizlar.)

Dushmani musht bilan urma, osh bilan ur.

**RUS** На пиру много друзей.

**EN** Kiss the mistress, If you can/ never kiss the maid.

**UZ** (Agarda siz xonimni o'pa olsangiz,  
hech qachon cho'risini o'pmang.)

Osilsang ham, o'zingdan balanaga osil.

**RUS** Кто любит девушек — на мученье души;  
кто любит молодухек — на спасенье души.



**EN** Kissing goes by favour.

**UZ** (O'pich xayrxohlik bilan beriladi.)

Sevgi pulga sotilmas,  
Ko'ngil pulga topilmas.

**RUS** Бояться себя заставишь, а любить не принудишь.



**EN** Kissing has to stop, When the.

**UZ** (O'pkichlarni to'xtatish lozim payt kelganda.)

Har oshiqqa besh kun davr.

**RUS** Делу — время, а потехе — час.



**EN** Knaves and fools divide the world.

**UZ** (Mug'ombirlar va ahmoqlar dunyoni bo'ladi.)

Ahmoq oyog'idan ilinar,  
Mug'ombir — tovonidan.

**RUS** Плуту да вору — честь по разбору



**EN** Knocked me down with a feather, You might have.

**UZ** (Siz meni qushning pati bilan yiqitishingiz mumkin edi.)

Armondan qolsang ham, darmondan qolma.

**RUS** Конь о четырех ногах, да и тот спотыкается.



**EN** Knot, Tie a/ with one's tongue not  
to be united with the teeth.

**UZ** (Til bilan bog'langanni tish bilan yechib bo'lmaz.)  
Til bilan tugilgan — tish bilan yechilmas.

**RUS** Просватанная, что проданная.



**EN** Know on which side one's bread is buttered, To.

**UZ** (Birovning noni qaysi tomondan saryog'li ekanini bilmoq.)

Bilib solsang qushingni,  
Har solganda g'oz olar.  
Chuya bilmasang qushingni,  
Shunqor bo'lsa ham oz olar.

**RUS** Быть себе на уме.



**EN** Know enough to come in out of the rain.

**UZ** (Yomg'irdan qutulish uchun yetarli bilmoq.)

Bilimliga dunyo yorug', .  
Bilimsizga — qorong'i.

**RUS** Чем больше науки, тем ловчее руки.



**EN** Know the ropes, To.

**UZ** (Arqonlarni bilmoq.)

Bilgan — bitirar, bilmagan — yitirar.

**RUS** Знать все ходы и выходы.



**EN** Know the worth of water till the well is dry, We never.

**UZ** (Quduq qurumaguncha biz hech qachon  
suvning qadriga yetmaymiz.)

Oldingda oqar suvning qadri yo'q.

**RUS** Что имеем — не храним, потерявши — плачем.



**EN** Know smb. as one know his ten fingers.

**UZ** (Birovni o'z o'nta barmog'idek bilmoq.)

Bilimli mingni yiqar.

**RUS** Знать кого-либо как свои пять пальцев.



**EN** Know A from B, Not to.

**UZ** ("A"ni "B"dan ajrata olmaslik.)

Bilmaganga bit o'ldirish qiyin.

**RUS** Не знать ни аза.



**EN** Know if one is coming or going, Not to.

**UZ** (Birovning kelganini yo ketganini bilmaslik.)

Bilmas tabib jon olar.

**RUS** Не знать, на каком свете находишься.



**EN** Know which way the wind blows, To.

**UZ** (Shamol qayoqqa esayotganini bilish.)

Bilgan o'zar, bilmagan to'zar.

**RUS** Держать нос по ветру.



**EN** Knowledge is power.

(Bilim — kuch.)

**UZ** Bilim — kuchda, kuch — bilimda.

**RUS** Знание — сила.





**EN** Knows little, He that/ soon repeats it.

**UZ** (Kam bilganlar bir narsani tez orada qaytarishadi.)

Bilgan — o'qir, bilmagan to'qir.

**RUS** Недоученый хуже неученого.



**EN** Knows nothing, He that/ doubts nothing.


**UZ** (Hech narsani bilmaganlar  
hech narsaga shubha qilmaydi.)

O'zim bilaman degan o'lar,

Ko'p bilaman degan qular.

**RUS** Умный любить учиться, глупый учить.





# L

**EN** Ladder, Kick down the.

**UZ** (Narvonni tepib, pastga uloqtirmoq.)  
Ish bitdi — eshak loydan o'tdi.

Выпивши пиво, да тестя в рыло;

**RUS** а приевши пироги, тещу в кулаки.



**EN** Ladder must begin at the bottom/  
He who would climb the.

**UZ** (Zinadan ko'tarilishni istagan pastki  
pog'onasidan boshlashi lozim.)

Har bir ishning chamasi bor,

Har daryoning kemasi bor.

**RUS** Ткали рогожу, доткались и до красен (полотна).



**EN** Lamb, Quiet as a.

**UZ** (Xuddi qo'zichoqdek.)

Kamlkning kamoli bor.

**RUS** Тише воды, ниже травы.





**EN** Lammas, At latter.

**UZ** (Ikkinchi hosil bayramida [aslida yiliga bir marta bo'ladigan bayram].)

Tuyaning dumi yerga tegar,  
Xo'janing qizi erga tegar.

**RUS** После дождичка в четверг.



**EN** Lamp, Rub Aladdin's.

**UZ** (Aloviddin chirog'ini ishqamoq.)

Har afsona tagida — bir durdona.

**RUS** По щучьему велению, по моему хотению.



**EN** Land flowing with milk and honey, A.

**UZ** (Sut va asal oquvchi yer.)

Baliq chuqur joyni,  
Odam yaxshi joyni istar.

**RUS** Молочные реки и кисельные берега.



**EN** Lane that has no turning, It 's a long.

**UZ** (Muyulishi yo'q uzun tor ko'chalar.)

Har bir ishning og'iri bor,  
Har qiyinchilikning — oxiri.

**RUS** Не все ненастье, проглянет и красное солнышко.



**EN** Language is the dress of thought.

**UZ** (Til tafakkurning libosi.)

Til — aql bezagi.

**RUS** Мал язык, да всем телом владеет.





**EN** Lap of the gods, Be in the.

**UZ** (Xudoning etagidagi.)

Men qilaman o'ttiz  
Tangrim qiladi to'qqiz.

**RUS** Одному богу известно.



**EN** Lap, Drop smth. in smb.'s.

**UZ** (Etagiga tushmoq.)

Beraman degan quliga, chiqarib qo'yadi yo'liga.

**RUS** Преподнести на серебряном блюдечке.



**EN** Lark, Be up with the.

**UZ** (Turnalar bilan baravar turmoq.)

Uch kun barvaqt turgan bir kun yutar.

**RUS** Вставать с петухами.



**EN** Lasses, All are good/ but whence come the bad wives?

**UZ** (Hamma qizlar yaxshi, ammo yomon  
xotinlar qayerdan kelar?)

Terini sangobdan keyin ko'r,  
Kelinni — tuqqandan keyin.

Девушки хороши, красные пригожи,

**RUS** да отколь же злые жены берутся?



**EN** Last but not least.

**UZ** (Oxirgisi, ammo eng kichigi emas.)

So'nggi хотin — so'm хотin.

**RUS** Остатки — сладки.



**EN** Last legs, To be on one's.

**UZ** (Birovning orqa oyog'ida [yurmoq].)

Birovga qolgan kun — tong otmagan tun.

Убогий на богатого сердится,

**RUS** а за ним вслед без шапки находится.



**EN** Laughed at that laughs at himself first, He is not.

**UZ** (O'z ustidan birinchi bo'lib kulgan, kulgiga qolmas.)

O'z aybini bilgan vali bo'lar.

**RUS** Не я бью, сам себя бьешь.



**EN** Laughs best who laughs last, He.

**UZ** (Oxirgi kulgan yaxshi kuladi.)

Jo'jani kuzda sanaydilar.

**RUS** Хорошо смеётся тот, кто смеётся последним.



**EN** Law is bottomless pit.

**UZ** (Qonun — tubsiz o'ra.)

Shariatning yo'li ko'p.

**RUS** Закон — дышло; куда захочешь, туда и воротишь.



**EN** Law for the rich, One / and another for the poor

**UZ** (Bitta qonun boy uchun, ikkinchisi esa kambag'li uchun.)

Boy kiya — "qutlug' bo'lsin",

Kambag'al kiya — "qaydan olding"

**RUS** Богатому идти в суд — трин-трава,

бедному — долой голова.



**EN** Laws catch flies, but let hornets go free.

**UZ** (Qonunga pashsha tutiladi, qovoqarilar esa o'tib ketadi.)

Holvani hokim yer,  
Kaltakni — yetim.

**RUS** Закон, что паутина: шмель проскочит, а муха увязнет.



**EN** Law makers should not be law breakers.

**UZ** (Qonun chiqaruvchilar qonun buzuvchilar bo'lmaligi kerak.)

Da'vogaring qozi bo'lsa,  
Dardingni Allohga ayt!

**RUS** Кто законы пишет, тот их и ломает.



**EN** Law, Necessity has no.

**UZ** (Zarurat uchun qonun yo'q.)

Fatvo ham pulingga yarasha beriladi.

**RUS** Про нужду закон не писан.



**EN** Laws, The more / the more offenders.

**UZ** (Qonunlar ko'proq — jinoyatchilar ko'proq.)

Odamning buzug'i ham qozi,  
Buzg'unchisi ham qozi.

**RUS** Где закон, там и преступление.



**EN** Lawyer's houses built on the heads of fools.

**UZ** (Qonun peshvolarining uylari ahmoqlarning boshidan terilgan.)

Holingni hokimga ayt,

Bor-yo'g'ingni tashlab qayt.

**RUS** Умный на суд не ходит, а глупый с суда не сходит.



**EN** Lay it on with a trowel, To .

**UZ** (Andava bilan pardozni bo'rttirmoq.)  
Hushomadgo'yni salomi ta'masiz bo'lmas.

**RUS** Встречай не лестью, а с честью.



**EN** Leak will sink a great ship, A small.

**UZ** (Arzimagan suv tomchilashidan katta  
kema cho'kishi mumkin.)  
Tomchi tosh teshar.

**RUS** От малой искры сыр-бор загорается.



**EN** Lean as a rake, As.

**UZ** (Panshaxadek ozg'in.)  
Oriq otga qamchi ham yuk.

**RUS** Худ как щетка.



**EN** Learn smth. at one's mother's knee.

**UZ** (Biron narsani onasining tizzasidan o'rganmoq.)  
Beshikdagi besh turlanar,

Qayoqqa bursang, shunga o'rganar.

**RUS** Не учили поперек лавочки, а во всю  
вытянулся — не научишь.



**EN** Learn to say before you sing.

**UZ** (Ashula aytishdan oldin so'zlashni o'rgan.)  
Dud demakka dudoq kerak,

Sirka tilamakka — usul.

**RUS** Всеу свой черед.



**EN** Learning makes a good man better and an ill man worse.

**UZ** (O'qimoq yaxshi odamni go'zal qiladi, yomonni esa tubanlashtiradi.)

Ilm — egarlangan ot,  
Bilganga — do'st, bilmaganga — yot.

**RUS** Ученье всем добро, да не всякому на пользу.



**EN** Least said soonest mended.

**UZ** (Kamroq aytilsa, tezroq tuzatiladi.)

Oz so'z — orom so'z,  
Ko'p so'z — harom so'z.

**RUS** Чем меньше разговоров, тем лучше для дела.



**EN** Least foolish is wise, The.

**UZ** (Ahmoqligi kamrog'i oqildir.)

Ahmoqlarga bosh bo'lguncha,  
Donolarga yosh bo'l.

**RUS** Ума немного надо, чтобы дураком назвать.



**EN** Leave in the lurch, To.

**UZ** (Birovni og'ir ahvolda tashlab ketmoq.)

Nomardga zor bo'lgandan, qora daryoga g'araq bo'l

**RUS** Бросить на произвол судьбы.



**EN** Leave no stone unturned, To.

**UZ** (Ag'darilmas toshni tashlab ketmaslik.)

Tirishganning teshasi toshga chega qoqar.

**RUS** Забрал себе в голову, так хоть тресни.

- EN** Lees to every wine, There are.  
**UZ** (Har qanday mayning ham quyqumi bo'ladi.)  
 Oyda ham dog' bor.  
**RUS** И на солнце бывают пятна.



- EN** Leg, Crooked as a dog's hind.  
**UZ** (Itning orqa oyog'idek qiyshiq)  
 Benomusga — ne nomus.  
**RUS** Пробу негде ставить.



- EN** Legs, Fall on one's.  
**UZ** (Birovning oyoqlariga yiqilmoq.)  
 Eplagan ikki oshar.  
**RUS** Выйти сухим из воды.



- EN** Legs according to the coverlet, Stretch your.  
**UZ** (Ko'rangga qarab oyoq uzat.)  
 Ko'rangga qarab oyoq uzat.  
**RUS** По одежке протягивай ножки.



- EN** Lend I am a friend, When I/when I ask I am a foe.  
**UZ** (Qarzga bersam — do'stman, so'rasam — dushmanman.)  
 Qarz bersang, do'st ko'payar,  
 Talab qilsang — dushman.  
**RUS** Если хочешь врага нажить, так дай в долг денег!





**EN** Lend your money and lose your friend.

**UZ** (Pulingni qarzga ber va do'stlaringdan ajral.)

Qarz — muhabbatning qaychisi.

**RUS** В долг давать — дружбу терять.



**EN** Leopard change his spots?, Can the.

**UZ** (Qoplon terisidagi dog'larni o'zgartirishi mumkinmi?)

Ilon po'stini tashlagan bilan qilig'ini tashlamas.

**RUS** Змею выше глаз не поднимай.



**EN** Let sleeping dogs lie.

**UZ** (Uxlayotgan itlar yotaversin.)

Yotgan ilonning dumini bosma.

**RUS** Не буди лиха, пока лихо спит.



**EN** Let the cat out of the bag, To.

**UZ** (Mushukni qopdan chiqarib yubormoq.)

Siringni sirtga chiqarma.

**RUS** Из избы сор не выноси!



**EN** Leveller, The great.

**UZ** (Buyuk tenglashtiruvchi.)

O'lim shox-u gadoga barobar.

**RUS** Смерть всех поровняет.





**EN** Liar is not believed when he speaks the truth, A.

**UZ** (Yolg'onchi rost gapirganda ham unga ishonishmaydi.)

Yolg'onchi chin deyolmas,  
Chin desa ham, el inonmas.

**RUS** Раз солгал, навек лгуном стал.



**EN** Liars should have good memories.

**UZ** (Yolg'onchilar yaxshi xotiraga ega bo'lishlari shart.)

Yolg'on-yashiq gapirma,  
So'ng uyali b o'tirma.

**RUS** Ври да помни!



**EN** Lies have short legs.

**UZ** (Yolg'onning oyog'i kalta.)

Yolg'onchining tili kalta.

**RUS** На лжи далеко не уедешь.



**EN** Lie in one's teeth.

**UZ** (Yolg'onning og'zida.)

Yolg'on so'z yoqadan chiqar.

**RUS** Нагло врать.



**EN** Lies upon the ground, He that / can fall no lower.

**UZ** (Yerning ustida yolg'on gapirgan pastroqqa tushishi mumkin emas.)

Yolg'on yetmish yil yerda yotsa ham, yolini chiqarar.

**RUS** Кто лжет, тот и крадет.





**EN** Life, Anything for a quiet.

**UZ** (Tinch hayot evaziga istagan narsangizni beraman.)

Tinch uyda kulgi topilar,  
Kulgi topilsa, boylik topilar.

**RUS** Где лад, там и клад.



**EN** Life, To lead a dog's.

**UZ** (Itlarcha hayot kechirmoq.)

It desa — quyrug'i yo'q,  
Sigir desa — muguzi.

**RUS** Жил собакой, околел псом.



**EN** Life if you don't weaken, It's a great.

**UZ** (Zaiflashmasangiz hayot ajoyibdir.)

Besh kunim — hush kunim.

**RUS** Живи, да не тужи!



**EN** Life is but a span.

**UZ** (Hayot misli charhpalak.)

**RUS** Уmr — ariqdan oqqan suv.

Жизнь коротка.



**EN** Life is sweet.

**UZ** (Hayot shirin.)

Umr qarzga berilmas,  
Oltinga sotilmas.

**RUS** Живой смерти не ищет.



**EN** Life is not a bed of roses.

**UZ** (Hayot atirgullar bilan bezalgan gulzor emas.)

Hayot — yaltiroq, umr — qaltiroq.

**RUS** Жизнь прожить — не поле перейти.



**EN** Life, While there is/ there is hope.

**UZ** (Hayot bor ekan, umid ham bor.)

Umidim — dunyo,

Noumid — shayton.

**RUS** Надежда умирает последней.



**EN** Life is not worth a day's purchase, The man's.

**UZ** (Inson umri kundalik xariddan qimmat emas.)

Keksalik — ko'prik.

**RUS** Он на ладан дышит.



**EN** Life in the old dog yet, There is.

**UZ** (Qarigan itning ham joni bor.)

It qarisa, tozi bo'lar,

Qiz qarisa, qozi bo'lar.

**RUS** Есть еще порох в пороховницах.



**EN** Lifeless that is faultless, He is.

**UZ** (Sira xato qilmaydigan — nafas olmas.)

Inson xatodan xoli emas.

**RUS** Не ошибается тот, кто ничего не делает.



**EN** Light, Bring to.

**UZ** (Yorug'likka olib chiqmoq.)

O'g'ri oydingan qo'rqar.

**RUS** Вывести на чистую воду.



**EN** Light cares speak, great ones are dumb.

**UZ** (Yengil qiyinchiliklar so'zlar, og'iri esa sukut saqlar.)

Sukutda hikmat ko'p,

Bulutda — himmat.

**RUS** Либо ткать, либо прясть, либо песни петь.



**EN** Light under a bushel, Hide one's.

**UZ** (O'zining nurini katta xum ostiga bekitmoq.)

Ilm-u hunar yelga emas, elga.

**RUS** Держать свет под спудом

(Зарывать свой талант в землю).



**EN** Light shining in the darkness.

**UZ** (Qorong'ida yarqiragan nur.)

Har ko'ngilda bir gavhar.

**RUS** Проблеск надежды.



**EN** Lightly come, lightly go.

**UZ** (Oson kelgan oson ketar.)

Qimordan kelgan, qimorga ketar.

**RUS** Легко нажитое впрок нейдет.

**EN** Lighting never strikes twice in the same place.

**UZ** (Chaqmoq bir joyga ikki marta urmaydi.)

Har yigitga bir omad.

**RUS** Судьба одним и тем же дважды не балует.



**EN** Like it, If you don't / you can lump it.

**UZ** (Agar sizga bu yoqmasa, ko'tarasiga olishingiz mumkin.)

Noz qil nozbardoringga,

Xarid qil xaridoringga.

**RUS** Нравится или нет, а проглотить придется.



**EN** Like master, like man.

**UZ** (Xizmatkor egasiga o'xshar.)

Mol egasiga o'xshamasa, harom o'lar.

**RUS** Каков поп, таков и приход.



**EN** Like father, like son.

**UZ** (O'g'li otasiga o'xshar.)

Bola — lola, ona — kulol.

**RUS** Отец рыбак, и дети в воду смотрят.



**EN** Like cures like.

**UZ** (O'xshash o'xshashni tuzatadi.)

Dard bergan darmonini ham berar.

**RUS** Чем ушибся, тем и лечись.





**EN** Lily, Gild the.

**UZ** (Nilufarga zarhal bermoq.)

Pardozni pardoz buzar.

**RUS** Хвалят на девке шелк, коли в девке толк.



**EN** Line one's pockets, To.

**UZ** (Cho'ntagini to'ldirmoq.)

Boylik, boylik tubi — o'g'irlik.

**RUS** Богатому черти деньги куют.



**EN** Lines have fallen to me in pleasant places, The.

**UZ** ([Kaftimdagi] chiziqlar yaxshi joylashgan.)

Taqdirim deb o'ylama,

Qismat o'lchog'i qo'lda.

**RUS** У него рука легкая.



**EN** Linen at home, Wash one's dirty.

**UZ** (Kir libosni uyda yuvmoq.)

Uydagi sirni ko'chada aytna,

Ko'chada aytib, g'amini tortma.

**RUS** Не выносить сор из избы.



**EN** Lion in his den, Beard the.

**UZ** (Sherning soqplidan o'z uyasida ushlamoq.)

Arslon bolasini tutmoq uchun,

Arslon uyasiga kirmoq kerak.

**RUS** Хотя на кол, так сокол.



**EN** Lion is not so fierce as he is painted, The.

**UZ** (Sher aslida tasavvur qilganchalik qo'rqinchli emas.)

Qo'rqoqqa ip ilon bo'lib ko'rinadi.

**RUS** He так страшен черт, как его малюют.



**EN** Lions, Throw smb. to the.

**UZ** (Sherlarga yem qilmoq.)

Itlarga it o'limi.

**RUS** Бросать на съедение львам.



**EN** Little and often fills the purse.

**UZ** (Oz-ozdan va tez-tezdan hamyon to'lar.)

Toma-toma ko'l bo'lar,

Tiyinlardan so'm bo'lar.

**RUS** Курочка по зернышку клюет, да сыта бывает.



**EN** Little things please little minds.

**UZ** (Kichik narsalar kichik odamlarga ma'quldir.)

Kamtar kerilmaydi,

Mol-dunyoga berilmaydi.

**RUS** Журавлиная походка не нашей стати.



**EN** Little will stick, Put it on thick, and a.

**UZ** (Haddidan oshirsang, ozginasi sanchiydi.)

Tuhmat tosh yorar, tosh yormasa, bosh yorar.

**RUS** Старайся всю, чего-нибудь и добьешься  
(обычно говорят о клеветниках).



**EN** Lives long that lives well, He.

**UZ** (To'g'ri yashaydigan uzoq yashaydi.)

To'g'rilikka o'lim yo'q.

**RUS** Живи просто, проживешь лет до ста.



**EN** Live and learn.

**UZ** (Yashagin va o'rgan.)

O'qishning erta-kechi yo'q.

**RUS** Век живи — век учись.



**EN** Live and let live.

**UZ** (Yasha va o'zgalarga yashashga imkon ber.)

O'zim bo'lay dema, o'zganing g'amini ye.

**RUS** Сам живи и другим не мешай.



**EN** Live like a king.

**UZ** (Podshoga o'xshab yashamoq.)

Qorni to'qning qayg'usi yo'q.

**RUS** Кататься как сыр в масле.



**EN** Live without our friends, We can /  
but not without our neighbours.

**UZ** (Do'stlarimissiz yashay olamiz, ammo  
qo'shnilarimissiz yashay olmaymiz.)

Uzoqdagi qarindoshdan,

Yaqindagi qo'shni yaxshi.

**RUS** Без брата проживу, а без соседа не проживу.



**EN** Load on the willing horse, All lay.

**UZ** (Itoatkor otga hamma yuk ortar.)

Barcha yukni ko'targan tuya

Cho'michni ham ko'tarar.

**RUS** Кто безотказно везёт, на того всё и валят.



**EN** Log and I'll roll yours, Roll my.

**UZ** (Sen mening to'nkamni dumalat, men esa senikini dumalataman.)

Qo'l qo'lni yuvar, ikki qo'l yuzni.

**RUS** Рука руку моет.



**EN** Long absent, soon forgotten.

**UZ** (Uzoq muddat yo'q bo'lganlar tezda unutiladi.)

Ko'zdan nari — ko'ngildan nari.

**RUS** С глаз долой, из сердца вон.



**EN** Long spoon, He should have a / that sups with the devil.

**UZ** (Shayton bilan ovqatlanishga o'tirganing uzun qoshig'i bo'lsin.)

Yo'rg'ali bilan yo'ldosh bo'lsang, yo'lda qolasan.

**RUS** Не ходи при болоте, черт уши обколотит.



**EN** Longest day must have an end, The.

**UZ** (Eng uzun kun ham tugashi shart.)

Qorong'u kun mangu bo'lmas.

**RUS** Сколько веревочке не виться, а кончику быть.





**EN** Look before you leap.

**UZ** (Sakrashdan oldin qara.)

Daryoga ot solmasdan avval kechuvini top.

**RUS** Не зная броду, не суйся в воду.



**EN** Look on the bright side.

**UZ** (Yorug' tarafga qara.)

Yaxshi niyat — yorti mol.

**RUS** Был бы мешок, а деньги будут.



**EN** Lookers-on see more than players.

**UZ** (Tomoshabinlar o'yinchilardan ko'ra ko'proq narsani ko'radi.)

Tomosha tandir boshida.

**RUS** Со стороны видней.



**EN** Lords, New/new laws.

**UZ** (Yangi xo'jayinlar, yangi qonunlar.)

Yangi supurgi toza supurar.

**RUS** Новая метла чисто метет.



**EN** Losers are always in the wrong.

**UZ** (Yutqazganlarning doim jahli chiqadi.)  
Yiqilgan kurashga to'ymas.

**RUS** Тошно тому, кто сражается,  
а тошнее тому, кто останется.



**EN** Losers seekers, finders keepers.

**UZ** (Yo'qotgan qidiradi, topgan saqlaydi.)

Egasi yo'q mol — oldin topganniki.

**RUS** Потерял — ищи, нашел — береги.



**EN** Loss without some small gain, No great.

**UZ** (Ozgina bo'lsa-da foydasi yo'q qiyinchiliklar bo'lmaydi.)

Har bir qiyinchilikning rohati bor.

**RUS** Нет худа без добра.



**EN** Loss is another's gain, One person's.

**UZ** (Bir kishining yo'qotgani — boshqaning foydasi.)

Kimga hoy-hoy, kimga voy-voy.

**RUS** Кто-то теряет, кто-то находит.



**EN** Lost that comes at last, It is not.

**UZ** (Kech kelgani zarar emas.)

Hech bo'lmagandan kech bo'lgan yaxshi.

**RUS** Лучше поздно, чем никогда.



**EN** Lost his taste, To him that has/sweet is sour.

**UZ** (Ta'm bilish qobiliyatini yo'qotganga shirin ham achchiqdir.)

Qadr bilmasning qadri yo'q.

**RUS** Все едино, что хлеб, что рябина: оба кислы.



**EN** Lost time is never find again.

**UZ** (Yo'qotilgan vaqt hech qachon topilmaydi.)

Vaqting ketdi — baxting ketdi.

**RUS** Проспал, прогулял — на кашеваре не спрашивай.



**EN** Love and war, All is fair in.

**UZ** (Sevgi va urushda har qanday chora yaxshi.)

Gul bahona, diydor g'animat.

**RUS** В любви все средства хороши.



**EN** Love and a cough cannot be hid.

**UZ** (Muhabbat va yo'talni yashirib bo'lmaz.)

Kuygan o'lanchi bo'lar,

Suygan — laparchi.

**RUS** Любви, огня да кашля от людей не спрячешь.



**EN** Love and business teach eloquence.

**UZ** (Muhabbat va biznes so'zamlikni o'rgatadi.)

Sevdigan ham til,

Bezdirgan ham til.

**RUS** Речисты у милого глаза.



**EN** Love cannot be compelled.

**UZ** (Zo'rlab sevdirib bo'lmaydi.)

Zo'rlab sevdirish — muzga bino qurdirish.

**RUS** Насильно мил не будешь.



**EN** Love begets love.

**UZ** (Muhabbat muhabbatni tug'diradi.)  
Muhabbat muhabbatni tug'diradi.

**RUS** Сердце сердцу весть подает.



**EN** Love best, Whom we / to them we can say least. .

**UZ** (Eng yaxshi ko'rgan odamimizga hammadan  
kamroq gapira olamiz.)  
Chin sevgining tili bo'lmas.

**RUS** Глаза говорят, глаза слушают.



**EN** Love comes in at the window and goes out at the door.

**UZ** (Muhabbat oynadan kelib, eshikdan ketadi.)  
O'zi kelgan yor-yor,  
O'zi ketar yor-yor.

**RUS** Миловались долго, да расстались скоро.



**EN** Love is blind.

**UZ** (Muhabbat ko'rdir.)  
Sevgining ko'zi ko'r.

**RUS** Любовь слепа.



**EN** Love is neighter bought nor sold.

**UZ** (Muhabbat hech qachon sotilmaydi va sotib olinmaydi.)  
Sevgi pulga sotilmas.

**RUS** Нет ценности супротив любви.



**EN** Love is never without jealousy.

**UZ** (Rashksiz muhabbat bo'lmaz.)

Rashkning ko'zi ko'r.

**RUS** Суженый, что бешеный.



**EN** Love is the reward of love.

**UZ** (Sevgiga mukofot sevgidir.)

Sevdim deb maqtanma,

Sevildim deb maqtan.

**RUS** Ответная любовь — лучшая награда.



**EN** Love is sweet in the beginning but sour in the ending.

**UZ** (Muhabbat boshlanishida shirin, tugashida esa achchiq.)

Sevgining bahori bilan shodlanma,

Yoz-u qishi ham bordir.

**RUS** Поутру был хорош, а к вечеру стал непригож.



**EN** Love laughs at locksmiths.

**UZ** (Muhabbat qulf ustidan kuladi.)

Ma'shuq qayda bo'lsa,

Oshiq shunda bo'lar.

**RUS** Любовь преград не знает.





**EN** Love lives in cottages as well as in courts.

**UZ** (Muhabbat saroylarda yashaganidek,  
kulbalarda ham yashaydi.)  
Muhabbat boylikka boqmas.

**RUS** С милым и в шалаше рай.



**EN** Love makes one fit for any work.

**UZ** (Muhabbat insonni har ishga qodir qiladi.)  
Ishq bilan o'ynashib bo'lmas.

**RUS** Ради милого и себя не жаль.



**EN** Love makes the world go round.

**UZ** (Muhabbat dunyoni aylantiradi.)

Muhabbat — bir so'z,

Ma'nosi — dunyo.

**RUS** Совет да любовь, на этом свет стоит.



**EN** Love me little, love me long.

**UZ** (Meni ozgina sev, meni uzoq muddat sev.)

Sevging oz — umring oz,

Sevging soz — umring soz.

**RUS** Хотя не люби, да почаще взглядывай.





**EN** Love me, love my dog.

**UZ** (Meni sevsang, itimni ham sev.)

Meniki deganning mehri issiq.

**RUS** Любишь меня, так люби и собачку мою!



**EN** Love of money and the love of learning rarely meet, The.

**UZ** (Pul sevgisi va o'rganish sevgisi  
kamdan-kam birga uchraydi.)

Pul topguncha, aql top.

**RUS** Учение — лучшее богатство.



**EN** Love too much that die for love, They.

**UZ** (Ular shunday kuchli sevishardiki, sevgi uchun o'lishdi.)

Dehqon emas — ketmon chopib non bermasa,

Oshiq emas ishq yo'lida jon bermasa.

**RUS** Любовь сильнее смерти и страха.



**EN** Love will find a way.

**UZ** (Sevgi yo'l topadi.)

Ishq yo'lida shoh-u gado barobar.

**RUS** Хоть топиться, а с милым сходиться.





**EN** Love, Unlucky in / lucky at play.

**UZ** (Sevgida omadsiz, o'yinda omadlidir.)

Qimorboz ham yutar, ham yutqazar.

**RUS** Кому в картах не повезет, тому в любви повезет.



**EN** Luck as had the cow that stuck herself with  
her own horn, As good.

**UZ** (O'zini o'z shoxi bilan suzgan sigirdek omadli.)

Baxtsiz quduqqa kirsam, qum yog'ar

**RUS** Везет как утопленнику.



**EN** Labour, idle folk have the most.

**UZ** (Dangasa hammadan ko'p ish qiladi.)

Dangasaning ishi bitmas,

Yoz kelsa ham, qishi bitmas..

**RUS** Нерадивые делают вид, что работают больше всех.



**EN** Labour of love, A.

**UZ** (Sevgi evaziga mehnat.)

Ish qilsang, xayrli qil.

**RUS** Добрые дела говорят сами за себя.




**EN** Labour of sisyphus, A.

**UZ** (Sizif mehnati.)

Behuda harakat /belni sindirar/.

**RUS** Сизифов труд.





- EN** Maidens should be meek until they be married.  
**UZ** (Qizlar erga tegishdan oldin yuvvosh bo'lishi lozim.)  
 Maqtangan qiz to'yda buzilar.  
**RUS** Весела за столом, не повьты бы за столбом.



- EN** Main chance, Have an eye to the.  
**UZ** (Asosiy imkoniyatga ko'z'qo'yamoq.)  
 O'zi yer, ko'zi o'ynar.  
**RUS** Богатого ложка ковшом, убогого ложка веселком.



- EN** Make or break.  
**UZ** (Yo qilmoq, yo sinmoq.)  
 Yo jon chiqsin, yo nom.  
**RUS** Либо пан, либо пропал.



- EN** Man can only die once, A.  
**UZ** (Kishi faqat bir marta o'lishi mumkin.)  
 Bir boshga bir o'lim.  
**RUS** Двум смертям не бывать, а одной не миновать.



**EN** Man will catch at a straw, A drowning.

**UZ** (Cho'kayotgan odam poxolga yopishadi).

Cho'kayotgan cho'pga yopishar.

**RUS** Утопающий хватается за соломинку.



**EN** Man has a fool in his sleeve, Every.

**UZ** (Har kimning yengida ahmoq bor.)

Odil johildan pand olar.

**RUS** На всякого мудреца довольно простоты.



**EN** Man has his faults, Every.

**UZ** (Har kimning o'z kamchiliklari bor.)

Har to'kisda bir nuqson.

**RUS** Нет человека без недостатков.



**EN** Man has his hobby-horse, Every.

**UZ** (Har kimning o'z . o'yinchoq oti bor [ya'ni, sevgan ishi].)

Har kallaning xayoli,

Har dilning sevgisi bor.

**RUS** У каждого свой конек.



**EN** Man has his price, Every.

**UZ** (Har kimning o'z narxi bor.)

Har kimning bo'yiga qarab to'n bich.

**RUS** На кривой суд, что на милость — образа нет.



**EN** Man is a fool sometimes, Every/ and none at all times.

**UZ** (Hech kim har doim ham ahmoq bo'lavermaydi,  
ba'zida esa — har kim.)

Adashmagan til,

Toymagan tuyuq yo'q.

**RUS** Про всяк час ума не напасешься.



**EN** Man must eat a peck of dirt before he dies, Every.

**UZ** (Har kim o'limidan oldin bir pek [9/08 litr]  
yer [xo'rlik] yeyishi shart.)

Har kim taqdir qilganini oshar.

**RUS** Жизнь протянется — всего достанется.



**EN** Man said, Let me see as the blind.

**UZ** (Qani bir ko'raychi, debdi ko'r kishi.)

Ko'r ko'rganini qo'ymas,

Kar — eshitganini.

**RUS** Кто как хочет, а я по своему.



**EN** Man can do no more than he can, A.

**UZ** (Inson qila olishi mumkin bo'lgan narsadan  
ortiq qilolmaydi.)

Bo'yingni yetmagan joyga cho'zma.

**RUS** Выше головы не прыгнешь.





**EN** Man is as old as he feels,  
and a woman as old as she looks, A.

**UZ** (Erkak o'zini his qilganchalik qari,  
ayol esa ko'rinishiga qarab.)  
Er qarisa, erki ketar,  
Xotin qarisa, ko'rki ketar.

**RUS** Бабы хоромы недолго живут.



**EN** Man is a wolf to man.

**UZ** (Inson insonga bo'ridir.)  
Odam odamga yov.

**RUS** Человек человеку — волк.



**EN** Man is known by the company he keeps, A.

**UZ** (Kishi do'stlashgan odamlari bilan ma'lumdir.)  
Har kimning oshnasi — o'zining oynasi.

**RUS** Скажи мне, кто твой друг, и я скажу, кто ты.



**EN** Man may love his house well without riding  
on the ridge, A.

**UZ** Kishi o'z uyini tog' cho'qqisiga ot choptirmay  
ham sevishi mumkin.)

Maqtanganning uyiga bor,  
Kerilganning — to'yiga.

**RUS** Можно любить свой дом, но не обязательно  
повсюду его расхваливать.

**EN** Man lives, As a / so shall he die.

**UZ** (Odam qanday yashasa shunday o'ladi.)  
Tirik bo'lib bozorda yo'q,  
O'lik bo'lib — mozorda.

**RUS** Живучи не улыбнешься, помирать станешь — крякнешь.



**EN** Man loveth his fetters, No / be they made of gold.

**UZ** (Hech kim o'z zanjirini, oltindan bo'lsa ham, sevmaydi.)  
Bo'ynidan bog'langan it ovga yaramas.

**RU** На кнута далеко не уедешь.



**EN** Man proposes, God disposes.

**UZ** (Inson taxmin qiladi, Xudo tadbir.)  
Odam tuzar, taqdir buzar.

**RUS** Человек предполагает, а бог располагает.



**EN** Man of words and not of deeds is  
like a garden full of weeds, A.

**UZ** (Ishlamasdan so'zlovchi odam o't bosgan  
bog'ga o'xshar.)

Ish bilsang, tuzarsan,  
Bilmasang — buzarsan.

**RUS** Противник дел, любитель слов подобен саду  
без плодов.



**EN** Man shall not live by bread alone, A.

**UZ** (Inson faqat non bilan tirik emas.)  
Odam ochlikdan o'lmas, ordan o'lar.

**RUS** Не хлебом единым жив человек.



**EN** Man all things can, No living.

**UZ** (Hech kim hamma narsaga qodir bo'lolmaydi.)  
Har ishning bir ustasi bor,  
Har ustaning bir ustozini bor.

**RUS** Все уметь не может никто.



**EN** Man, can serve two masters, No.

**UZ** (Hech kim ikki xo'jayinga xizmat qilolmaydi.)  
Ikki kemanding boshini tutgan g'araq bo'lar.

**RUS** Нельзя служить двум господам сразу.



**EN** Man is a hero to his valet, No.

**UZ** (O'z xizmatkori uchun qahramon bo'lgan odam yo'q.)  
Har narsa o'z yerida qadrsiz.

**RUS** Нет пророка в своем отечестве.



**EN** Man is born wise or learned, No.

**UZ** (Hech kim dono yoki o'qimishli bo'lib tug'ilmaydi.)  
Ko'p o'qigan olim bo'lsa,  
Ko'pni ko'rgan dono bo'lar.

**RUS** Ремесло требует терпения, а учеба — времени.

**EN** Man is wise at all times, No.

**UZ** (Hech kim har doim aqlli bo'lavermaydi.)  
Olim adashsa, olam qoqilar.

**RUS** На всякий час ума не напасешься.



**EN** Man and twice a child, Once a.

**UZ** (Odam umrida bir marta erkak va ikki marta  
bola bo'ladi.)  
Qarilik — bolalik.

**RUS** Человек два раза глуп живет: стар да мал.



**EN** Man no man, One.

**UZ** (Bir kishi kishi emas [hisobga o'tmaydi].)  
Yolg'iz yigit yov olmas.

**RUS** Один в поле не воин.



